

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqi

UDK 9 (c) 2

TAL'AT HALIMOVNING
**“XVI-XVIII ASRLARDA HINDISTON VA O'RTA
OSIYO XONLIKLARI”**

mavzuida magistr darajasi uchun

DISSERTATSIYA

Mutaxassislik: 5A120302

Buxoro - 2014

BuxDU Tarix kafedrası II bosqich magistranti Halimov
Tal'at To'rayevichning "XVI-XVIII asrlarda
Hindiston va O'rta Osiyo xonliklari"
mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasiga

T a q r i z

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida O'rta Osiyoda xonliklar davri davlatchilik tarixini o'rganish, bu davrlar haqida tegishli ilmiy xulosalarga kelish vazifasini tarixchi va tarixshunos, manbashunos va sharqshunos olimlar zimmasidagi muhim vazifa qilib qo'ydilar. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qadar bo'lgan davrda O'rta Osiyoda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari yoxud uch mustaqil davlat bo'lib, ular mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishgan. Xonliklarning tashqi iqtisodiy (savdo-sotiq), diplomatik va madaniy aloqalari Sharq va G'arb mamlakatlari bilan qizg'in kechgan. Aynan Rossiya bilan XVI asr o'rtalaridan boshlab doimiy va muntazam diplomatik aloqalar o'rnatilgan. U paytlardagi o'zaro munosabatlar tenglik asosida, har bir subyekt mustaqilligi mezoniga amal qilingan holda yo'lga qo'yilgan. Sharq davlatlari bilan O'rta Osiyo aloqalari esa eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu munosabatlar tizimida Hindiston muhim o'rin tutadi. Kushon imperiyasi (mil.avv I – mil. IV asrlar) davrida O'rta Osiyo va Hindiston bitta mamlakat tarkibida bo'lgan. Tarixdan bu kabi dalillarni ko'plab keltirish mumkin.

Ayniqsa, XVI-XVIII asrlarda Hindiston va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi ko'pyoqlama munosabatlar tarixi masalalari alohida bir tadqiqot obyekti bo'la olar edi. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda T.Halimov tanlagan magistrlik dissertatsiyasi dolzarb, davrtalab, ilmiy o'rganishga arzigulikdir.

T.Halimovning magisrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati qismlaridan iborat. Shuningdek, dissertant o'z ishini taqdimot asosida himoya qilish uchun bir necha shaklda slaydlar ham

tayyorlagan. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslantirilgan, tadqiqotning o'rganilish darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy-nazariy yangiligi, metodologik asosi, ilmiy-amaliy ahamiyati, joriylanishi, hajmi va tuzilishi to'g'risida belgilangan nizom asosida to'xtalib o'tilgan.

Dissertatsiya asosiy mazmunini ifodalaydigan boblarda XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarining Hindiston bilan diplomatik, savdo-sotiq va madaniy aloqalari haqida xronologik izchillik asosida fikr yuritiladi. Tadqiqotchi Hindistonda Boburiylar sulolasi hukmronlik qilganligi (1526-1858 yy), ular O'rta Osiyo vakillari ekanligi, xonliklardagi aholi va hukmdorlar bilan milliy hamda qavm-qarindoshlik rishtalari asosida bog'langanliklari ham o'zaro munosabatlarga stimuly bo'lganligini nazardan qochirmagan. O'zaro aloqalarning eng yuqori pog'onasi XVI asrda boburiy Akbarshoh (1556-1605) va shayboniy Abdullaxon II (1557-1598) zamonida yuz berganligini adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida dalillaydi. O'zaro ko'p tarmoqli aloqalar ashtarxoniy hukmdorlar: Imomqulixon, Abdulazizxon va boburiy hukmdorlar: Jahongirshoh va Shohjahon zamonida ham davom etganligi ishda qayd etilgan.

Dissertatsiyada xonliklar bilan Hindiston munosabatlari goh kuchayib, goh pasayib turganligi sabablari ham ochib berilgan.

T.Halimov o'zaro munosabatlardagi to'siq va ziddiyatlarni, foydalanilmagan imkoniyatlarni ham tadqiq etishga uringan.

Dissertatsiya xulosasida yakuniy xarakterdagi fikr-mulohazalar bildirilib, istiqbolda ushbu mavzu yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan taklif va mulohazalar ham ishlab chiqilgan. Dissertatsiyada sovet davrida yaratilgan adabiyotlardan ham keng foydalanilgan. Shuningdek istiqbol yillarida yozilgan konseptual xarakterga ega maqola va kitoblardagi ma'lumotlar ham ilmiy muomalaga olib kirilgan.

T.T.Halimovning magistrlik dissertatsiyasiga ayrim e'tirozlarimiz ham mavjud.

1. Dissertant asosiy boblardagi voqealar talqinida solnomachilikka, bayonchilikka berilib ketganligi seziladi. Tarixiy jarayonlarga shaxsiy munosabat bildirishda ilmiy tajribasizligi ham ko'rinadi.

2. Tadqiqotning ayrim bandlarida xronologik ketma-ketlik mezonining buzilganligini ham kuzatish mumkin.

3. Ishning ilmiy apparatida, havolalarni rasmiylashtirishda ayrim nuqsonlar uchraydi.

4. Dissertatsiya matnida texnik xatoliklar ham mavjud.

Yuqoridagi kamchiliklarga qaramay, T.T.Halimov tomonidan yozilgan “XVI-XVIII asrlarda Hindiston va O’rta Osiyo xonliklari” mavzuidagi tadqiqot magistrlik dissertatsiyalari oldiga qo’yilgan talablarga javob beradi. Dissertatsiyaning hajmi, mazmuni, rasmiylashtirilishi magistrlik dissertatsiyasi to’g’risidagi nizom asoslariga mos keladi. T.Halimov o’ziga xos mustaqil tadqiqot yarata olgan.

T.T.Halimov “XVI-XVIII asrlarda Hindiston va O’rta Osiyo xonliklari” mavzuidagi dissertatsiyasi uchun magistrlik darajasini olishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:

BuxDU Tarix kafedrası professori,
tarix fanlari doktori Shodmon Ahmadovich Hayitov

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
I bob. XVI – XVIII asrlarda O’rta Osiyo xonliklari va Hindiston	13
1.1. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Boburiylar imperiyasi va Buxoro xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol	13
1.2. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Boburiylar imperiyasi va Buxoro xonligida ilm-fan va madaniyat	29
II bob. O’rta Osiyo xonliklari va Hindiston o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	38
2.1. Elchilik aloqalarining yo’lga qo’yilishi va dastlabki savdo munosabatlari	38
2.2. Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o’rtasidagi iqtisodiy aloqalar	43
III bob. O’rta Osiyo xonliklari bilan Hindiston o’rtasidagi siyosiy aloqalar	47
3.1. O’zaro siyosiy-diplomatik munosabatlarning yo’lga qo’yilishi...	47
3.2. Hukmdorlarning yozishmalarida ko’zlangan siyosiy maqsadlar .	69
XULOSA.....	102
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro’yxati:	105
ILOVA	109

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston o'rtasidagi do'stona, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, O'zbekiston mustaqillikka erishgan so'nggi yillarda esa bu munosabatlarning rivojlanishida katta imkoniyatlar yaratildi. Natijada ana shu masalalar va ularning tarixiga oid ko'p ilmiy asarlar, maqolalar va arxiv hujjatlari bosilib chiqdi-ki, ular har ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni ravshanlashtirishda muhim ahamiyatga egadirlar.

O'zbekistonning yirik mamlakat — Hindiston bilan aloqalari kengayib bormoqda. Prezidentimizning hali davlatimiz mustaqilligi e'lon qilinishidan avvalroq 1991-yilning 17-19 avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrif bilan borishi ham fikrimizning dalilidir. 1993- yil 23 - 25- may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida “O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida” shartnoma, foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik to'g'risida, havo yo'llari to'g'risida va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.¹

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1993-yil 17-19 - avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi.

1995- yil 25 - avgust kuni Toshkent shahrida Hindistonning “TATA Projekte LTD” firmasi tomonidan qurib bitkazilgan 600 o'rinli salomatlik zali, majlislar xonasi, servis xizmati, yer osti garaji, sauna, barlari, katta restoranlari bo'lgan zamonaviy mehmonxonaning ochilishi ham fikrimizning dalilidir.²

¹ “Xalq so'zi”. 1993-yil 27-may soni.

² O'zbekistonning yangi tarixi. III-tom, B.225

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini Islom Karimovning 2000 - yil 1-3 - may kunlari Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Safar paytida O'zbekiston Prezidenti Hindiston prezidenti va Bosh vaziri bilan muzokaralar olib borib, uning yakunida 10 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik to'g'risida Qo'shma bayonot, jinoyat qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega.³ Shuningdek iqtisodiy, madaniy, ta'lim, axborot, bojxona sohalari bo'yicha hamkorlik qilish haqidagi hujjatlar imzolandi.

Muammoning o'rganilish darajasi. Bevosita O'zbekiston hududidagi xonliklar, jumladan Buxoro xonligi va Hindistonning azaliy tarixiy munosabatlari masalasi yuzasidan ham ba'zi bir ilmiy ishlar qilingan. Rus tadqiqotchilaridan birinchi bo'lib K.A.Antonova qariyb 50 yillik munosabatlar tarixini bir qancha sahifalarda bayon qilsa ham, tekshirilayotgan mavzu yuzasidan bir qator jihatlarni ochiq qoldirgan.

G'arbiy Yevropa olimlari ham O'rta Osiyo - Hindiston munosabatlari tarixiga oid birmuncha ishlar qilganlar. Misol tariqasida nemis olimi F. A. Noer⁴ va hind tarixchisi R. Ch. Varma⁵ asarlarini keltirib o'tish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Hindiston xalqlarining tarixiy aloqalariga bag'ishlangan bir qancha asarlar nashr qilingan bo'lsa ham bu sohada hali ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish lozim. Chunki bu borada, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlarini o'rganishda barcha mavjud qimmatli qo'lyozma asarlar va hujjatlardan yetarli darajada foydalanilmagan. Chet el olimlari, shu jumladan, hind tarixchilari ham O'rta Osiyo — Hindiston munosabatlarini o'rganishda asosan

³ www.press.uz

⁴ De Noer F. A. L'Empereur Akbar, Leide, 1883.

⁵ Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdullakhan, «Islamic culture», vol. XXI, № 4, October, 1937, p. 379—389

hind manbalariga, rus olimlari esa mahalliy manbalarga asoslanganlar. Faqatgina I.G'.Nizomiddinova⁶ har ikkala tomon manbalari tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Biz ham ushbu ishni yozishda har ikki mamlakat - Buxoro xonligi va Hindiston tarixiga oid har ikki tomon manbalaridan imkoniyati boricha foydalanishga harakat qildik. Bu yerda misol tariqasida Buxoro tarixiga oid asarlar qatorida Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma»^{7,8}, Muhammad Tolib binni Tojiddin Hasanxo'janing «Matlabut-Tolibin», Muhammad Yusuf Munshining «Tarixi Muqimxoniy»⁹ kitobini va Boburiylar imperiyasi tarixiga oid Abulfazl Allomiyning «Tarixi Akbarshohiy», Badavoniyning «Muntahabut-tavorix», Mirza Muhammad Hodining «Tuzuki Jahongiriy», Baxtovarxonning «Mirotul olam», Mirza Muhammad Soqiyning «Olamgirnoma» va boshqa asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Har ikkala davlat tarixi, geografiyasi va madaniyatiga oid masalalar esa Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»¹⁰ va Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»¹¹ asarlarida uchratish mumkin.

Har ikkala tomon tarixi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishda o'sha davrda ularga bog'liq bo'lgan ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilish ham muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, bu o'rinda e'tiborli Eron tarixchisi Iskandar Munshining «Tarixi olamoroyi Abbosiy» nomli asarini keltirib o'tish mumkin.

O'rta Osiyo - Hindiston o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning biz tekshirayotgan davrdagi ahvolini o'rganishda ushbu ishda ilova qilingan 15 ta hujjat ham alohida qimmatga egadir.

⁶ Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

⁷ Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи нашр/І жилд. Форсчадан С. Мирзаев таржимаси, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.А. Аҳмедов. - Т., "Фан", 1966.

⁸ Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи нашр/І жилд. Форсчадан С. Мирзаев таржимаси, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.А. Аҳмедов. - Т., "Фан", 1969.

⁹ М у х а м м е д Ю с у ф М у н ш и . Муқимхонская история, перевод с тадж. проф. А.А.Семенова, Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1950, стр. 140—145.

¹⁰ Заҳириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990

¹¹ Гулбаданбегим. Ҳумоюннома, Т., 1959.

Bu hujjatlar Buxoro xonlari bilan hind podsholarining o'zaro bir-birlariga yozgan maktub va nomalari bo'lib, ular har ikki mamlakatning siyosiy, iqtisodiy munosabatlarida va bu munosabatlarni o'rganishda nihoyatda muhim rol o'ynaydi.

Bizga ma'lum bo'lishicha, Akbarshohning Abdullaxonga yuborgan maktublaridan bittasi (IV maktub) nemis sharqshunosi Noer tomonidan nemis tiliga, shuningdek, Zabardastxon elchiligi keltirgan Avrangzeb xati rus tarixchisi A. A. Semyonov tarafidan rus tiliga tarjima qilingan.

Shu ikki maktubdan boshqa hujjatlar keyinchalik I.G'.Nizomiddinov tomonidan tarjima qilingan. Shunday qilib, mazkur hujjatlarning ko'pchiligi (asl nusxasi va ularning tarjimasi) birinchi marta nashr qilingan.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari. Bugungi kunda bizga ancha yengilligi shundaki, ko'pgina qo'lyozma asarlar mutaxassis olimlarimiz tomonidan tarjima qilinib, nashr etilmoqda. Ammo mavzuga oid qo'lyozma asarlar tarjimalaridan foydalanishda bir muammoni ham qayd etib o'tish lozimki, bu kabi asarlarning mualliflari saroy tarixchilari bo'lganligi sababli ular shohlarni haddan tashqari ko'kka ko'targanlar. Ularni qudratli, ulug' qilib tasvirlashga urinib, ko'pgina masalalarni to'g'ri yoritmaganlar, shu tufayli ularning dalil va mulohazalariga tanqidiy nazar bilan qaramoq darkor. Men dissertatsiyani yozishda shu narsani hisobga olgan holda, quyidagi maqsad va vazifalarni o'z oldinga qo'ydim:

- o'rganilayotgan masalalarni to'g'ri tushunish va tahlil etishda qo'lyozma asarlardagi dalillarni boshqa adabiyotlardagi dalillar bilan solishtirish;
- har ikkala mamlakatning ijtimoiy-siyosiy ahvolini, o'sha davrdagi xalqaro vaziyatni har tomonlama nazarga olish;
- milliy va diniy jihatdan bir-biriga ancha yaqin bo'lgan boburiylar imperiyasi va Buxoro xonligidagi aniq ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tanqidiy baholash;
- O'zaro tarixiy munosabatlarning bugungi talqinini ham ochib berishga harakat qilish va hokazo.

Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy yangiligi. Dissertatsiyada tomonlarning madaniy aloqalari va iqtisodiy munosabatlardagi o'ziga xosliklar masalasi ilk bor jiddiy ilmiy tadqiqotga tortilib, yaxlit hamda tizimli asosda o'rganildi. Har ikki saltanatning o'zaro aloqalarida diniy omillarning ta'siri ham katta ekanligi oydinlashtirib berildi. Xususan, har ikki mamlakat hukmdorlari o'rtasidagi o'zaro yozishmalarga e'tibor bersak, ularda hukmdorlar sunniy mazhabdagi birodarlar sifatida bir-birlarini talqin etadilar. Aslida esa bu narsa "g'ayriddinlar"ga qarshi kurashdagi ittifoqchilik uchun aniq bir niqob vazifasini bajargan.

Bundan tashqari ishda o'rganilayotgan davrda Hindiston va O'rta Osiyo xonliklaridagi madaniyat va ilm-fan rivoji ham o'rganilganki, bu narsa o'sha davr haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lishda katta yordam beradi.

Dissertatsiyaning nazariy-metodologik asosi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asar hamda nutqlarida ilgari surilgan fikr va mulohazalar tashkil qiladi. I.Karimov asarlarida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora ko'proq qo'shilayotganligi, tarixan bir-biriga yaqin bo'lgan mamlakatlar bilan o'zaro do'stona diplomatik aloqalarni o'rnatish orqali bu jarayonning yangi qirralari ochilganligi to'g'risida ilgari surilgan g'oyalardan foydalanildi¹². Shuningdek, tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, obyektivlik, xolislik, sinergetik-xronologik kabi metodlari asosida ish ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida tarixchi olimlar R.M.Abdullayev, Q.Q.Rajabov, D.A.Alimova, R.T.Shamsutdinov kabilar tomonidan tarixiy tadqiqotlar olib borishning metodologik asoslariga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy fikrlari ham ishni yozish jarayonida amaliy yordam berdi.

Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida keltirilgan ma'lumotlar, dalil va raqamlar, ilmiy xulosalar O'zbekiston tarixi, O'zbekiston Respublikasining xorij, xususan Hindiston va Pokiston mamlakatlari bilan o'zaro aloqalar tarixiga bag'ishlab yoziladigan darslik, o'quv qo'llanma,

¹² Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot, ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11 - jild. T. "O'zbekiston", 2003.

kitob hamda risolalarni materiallar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, dissertatsiya materiallari oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlarida, akademik litsey va kollejlarda maxsus kurs, maxsus seminar, mustaqil ish, referatlar tayyorlashda talabalarga nazariy va amaliy yordam beradi. Tadqiqotda ilgari surilgan fikrlar asosida yoshlarda milliy g'urur va o'zlikni tarbiyalashga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muloqot kechalari tashkil etish mumkin. Xalqlar do'stligi, buyuk o'zbek davlatchiligi tarixi, yurtimiz madaniyati va ilmi-fanining tarixiy ildizlarini o'rganishga qaratilgan yo'nalishlardagi tadbirlarga dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar material sifatida yordam beradi.

Tadqiqotning joriylanishi. Dissertatsiya mavzusi Tarix fakulteti Tarix kafedrası yig'ilishida, universitet ilmiy-texnik kengashida muhokama qilib tasdiqlangan. Dissertatsiya yuzasidan Buxoro Davlat Universitetida har yili o'tkaziladigan an'anaviy professor-o'qituvchilar va talabalarning ilmiy anjumanlarida (2012-2013; 2013-2014-yillar) ma'ruzalar qilingan. BuxDU Magistratura bo'limi tomonidan nashr qilingan "Tafakkur va talqin" nomli magistrantlarning ilmiy maqolalar to'plamida dissertatsiya mazmunini ifodalaydigan ikkita ilmiy maqola^{13,14} va Buxoro yuqori texnologiyalar va muhandislik institutida har yili bo'lib o'tadigan "Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi" nomli ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plamida ikkita maqola va bir tezis chop etildi^{15,16}. Tadqiqot yuzasidan to'plangan materiallar asosida Buxoro Davlat Universiteti Tarix ixtisosligi talabalariga amaliy mashg'ulotlar o'tishda foydalanildi. Shuningdek, BuxDU qoshidagi 4-son akademik litsey I va II bosqich talabalari bilan "Buxoro va Hindiston: tarixiy aloqalarning bugungi darajasi"

¹³ Halimov T. O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar (XV-XVII asrlar). / Tafakkur va talqin. 2-son, Buxoro, 2013. B.23-26

¹⁴ Halimov T. Buxoro xonligi va boburiylar saltanati o'rtasidagi siyosiy aloqalar. / Tafakkur va talqin. 3-son, Buxoro, 2014. B.4-6

¹⁵ Halimov T. Abdullaxon II va Akbarshoh o'rtasidagi siyosiy elchilik aloqalari. / Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi. Maqolalar to'plami. Buxoro, 2014. B.357-360

¹⁶ Halimov T. Ashtarxoniylar va boburiylarning siyosiy munosabatlari tarixidan. / Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi. Maqolalar to'plami. Buxoro, 2014. B.360-362

mavzusida suhbat kechalari uyushtirildi. Dissertatsiya universitetning veb-saytiga kiritildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi ilovasiz 95 varaqdan iborat.

I bob. XVI – XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklari va Hindiston

1.1. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Boburiylar imperiyasi va Buxoro xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol

Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan (1526) Boburiylar imperiyasi uning nabirasi Akbarshoh davridan to shoh Avrangzebning vafotiga qadar Hindistonda yagona kuchli davlat bo'lib qoladi.

XVI asrda Hindistonda siyosiy tarqoqlik hukm surardi. o'zaro ichki nizolar va urushlar mamlakatni kuchsizlantirgan edi. Hindistondagi ichki siyosiy ahvolni sinchkovlik bilan kuzatib turgan Qobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur vaziyatdan foydalanishga qaror qildi va Hindistonni egallash uchun harbiy yurish boshladi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida lodiylar sulolasi hukmronlik qilardi. Bobur Mirzoning Hindistonga qarshi harbiy yurishi 1525-yilning oxirida boshlandi. 1526- yilning 21-yil aprelida Panipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirdi. 27-aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa tarixda 332 yil yashagan yangi imperiya - Boburiylar imperiyasiga asos solindi. Bobur Hindistonda o'zi bilan qolgan qo'shinga jogir tarqatdi. Bu yerlarda xo'jalik yuritish ishlariga rahbarlik qilish mahalliy urf-odatlarini yaxshi biladigan hindlarga topshirildi. Bobur podshoh imperiya taxtida uch yil o'tirdi. 1530- yilda o'limidan avval imperiya hududlarini o'g'illariga bo'lib berdi. Imperiya taxti katta o'g'li Humoyunga nasib etdi. Panjob, Qobul va Qandahorga ega bo'lgan qolgan uch o'g'liga akalari Humoyunga bo'ysunishni vasiyat qildi.¹⁷

Humoyun imperiya sarhadlarini yanada kengaytirishga intildi. Bu kurashda uning asosiy raqibi Bixor va Bengaliyada joylashib olgan afg'on qabilalarining yetakchisi Sherxon Sur bo'ldi. Ikki sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi jangda Sherxonurning qo'li baland keldi. Mag'lubiyatga uchragan Humoyun Eronga qochib

ketdi. Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi. Bu hodisa 1540- yilda yuz berdi. Sherxon Sur va uning o'g'illari 1554-yilgacha hukmronlikni saqlab turdilar. Biroq bu davr shiddatli va shafqatsiz ichki kurashlar bilan o'tdi. Oqibatda Hindistonda og'ir siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bundan Humoyun ustalik bilan foydalandi. Taxtdan ayrilgan yillarda u turk, fors, turkman va o'zbeklardan iborat kuchli qo'shin tuza olgan edi. 1555- yilda Humoyun Hindiston taxtining da'vogarlarini tor-mor etib, yana hokimiyatni o'z qo'liga qaytarib oldi. Unga taxtda uzoq o'tirish nasib etmadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Humoyun tasodifiy falokat tufayli halok bo'ldi. Imperiya Akbarshoh davrida. Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk Akbar» degan unvonga sazovor bo'lgan Humoyunning o'g'li Akbarshoh (1542-1605) 1556- yilda otasi taxtini egalladi. Akbarshoh hamisha uzoqni ko'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatib oldi. Shuning uchun ham uni Hindistondagi Boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i -«Buyuk Akbar» deb atashgan. Hind tarixchisi Ishvari Prasadning fikri bilan aytganda, “Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyuk shohdir. Agar yevropalik hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikda ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi.”¹⁸

Akbarshoh davrida (1556—1605) Boburiylar imperiyasi chegaralari shimolda Tibet chegaralaridan janubdagi Godavari daryosigacha va G'arbda Gujaratdan Sharqda Bangol qo'ltig'igacha bo'lgan ulkan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Rajputan hokimliklari — Mevar va Marvar (Amber) hamda Gondvanada joylashgan bir qancha mayda hind rojaliklari ham Akbarshoh imperiyasiga bo'ysundirilgan edi. Shuningdek, Malva, Berar, Gujarat, Xandesh, Kashmir va qisman Ahmadnagardagi musulmon hokimliklari va so'ngroq Qandahor ham imperiyaga qo'shib olingan va yigirma bir ta katta suba — o'lkalardan tashkil topgan edi.

¹⁷ Гулбаданбегим. Хумоюннома, Т., 1959. Б.27

¹⁸ Prasad Saksena. History of Shahjahan of Dehli. Allahabad, 1958.

Akbarshoh bunday buyuklikka osonlikcha erishgan emas. Uning asosiy raqibi Hindistondagi afg'on qabilalari yetakchilari edi. Akbarshoh qo'shini 1556- yilda afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi. 1559- yilga kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari - afg'onlarning Sur sulolasi butunlay yanchib tashlandi. Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'lgan. Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, itoatkor o'g'il, g'amxo'r ota ham edi. Qo'l ostidagi xalqlarning turmush farovonligi doimo uning e'tiborida turgan. Kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan. Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan. U boshqa din vakillariga nisbatan ham adolatli siyosat yuritgan. Akbarshoh musulmon bo'lmaganlardan undiriladigan «juzya» solig'ini bekor qilgan. Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan. Imperiya hududida yagona savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralaridagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan. Akbarshoh barcha fuqarolarga e'tiqod erkinligi bergan. Bir so'z bilan aytganda, Akbarshoh hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa, o'z navbatida, imperiyaning qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan. Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati evaziga «Milliy podshoh», «Xalq hukmdori» nomlariga ham sazovor bo'lgan.¹⁹ Biroq XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab imperiyada toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Oxir-oqibatda, bu kurashda 1627-1658- yillarda hukmronlik qilgan Shoh Jahon (Akbarshohning nabirasi)ning o'g'i Avrangzeb g'alaba qozondi. U 1658- yilda Dehli shahrini egalladi va o'zini shoh deb e'lon qildi.

Avrangzeb hukmronligi davrida (1658-1707) imperiya hududi yanada kengaydi, o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. Biroq ayni Avrangzeb hukmronligi

¹⁹ Синха Н. К., Банерджи А. Г., История Индии, М., 1954.

yillarida imperiya inqirozi uchun zamin ham yetila bordi. Xo'sh, bu nimalardan iborat edi? Avvalo, Avrangzebning hech kimga ishonmasligi, hamma narsaga shubha bilan qarashi davlati arkon hamda mahalliy hind hukmdorlarining undan ko'nglini sovitdi. Ikkinchidan, Avrangzeb o'ta jaholatparast edi. U o'zini faqat mamlakatni idora qilish uchungina emas, balki islom dinini himoya qilish va uning yoyilishi ko'lamini yanada kengaytirish uchun ham taxtga chiqqan hukmdor deb hisoblardi. Shu tufayli musulmon bo'lmagan fuqarolarni islom diniga o'tkazish uchun hech narsadan qaytmadi. Bunday siyosat oqibatida mamlakatning musulmon bo'lmagan aholisi uning itoafkor fuqarosiga emas, balki g'azablangan raqibiga aylandi. 1679- yildan hindlar qaytadan «jizya» solig'ini to'lashga majbur etildi.²⁰ Hatto hindlarning muqaddas ziyoratgohlarga boruvchilaridan ham soliq olinadigan bo'ldi. Musulmon savdogarlari soliqdan ozod qilingani holda, hind savdogarlariga tovarning 5 foizi miqdorida soliq joriy etildi. Soliq yig'uvchi idoralardagi mansabdor hindlar asta-sekinlik bilan lavozimlaridan bo'shatila boshlandi. Avrangzebning bu siyosati oxir-oqibatda Boburiylar imperiyasining chok-chokidan so'kilib ketishiga olib keldi.

Boburiylar imperiyasi - feodal jamiyatidan iborat bo'lib, imperatorning o'zi esa mamlakatda birinchi katta mulk egasi va yer egalari - feodallar manfaatini himoya qiluvchi davlat boshlig'i hisoblanar edi.

Boburiylar imperiyasida yerga egalikning uch asosiy shakli — xolisa, jogirdor va zamindor mavjud edi.

Xolisa yoki davlatga qarashli yerlar podshohning shaxsiy mulki hisoblanib, ular XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda barcha hosildor yerlarning sakkizdan bir qismini tashkil qilar va bu yerlardan tushgan daromad shoh hamda shoh oilasining ehtiyojlariga, saroy va shoh qo'shinini ta'minlash uchun sarf qilinardi.²¹

²⁰ Низомиддинов И.Ф - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

²¹ Шарма Р. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). -Т., 1999.

Mamlakatdagi dehqonchilikka yaroqli asosiy yerlar jogirdorlar qo'lida edi. «Jogirdor»ning lug'aviy ma'nosi «joy olgan», «joyga egalik qiluvchi» bo'lib, «jogir» asosan harbiy xizmatlar evaziga tortiq qilingan yerlardir. Jogir yerlar vorisiy hisoblanmas edi, jogirdorlar o'z yerlarining hajmiga muvofiq ma'lum sondagi qo'shinni saqlash va ta'minlashlari hamda zarur bo'lgan vaqtda shu qo'shin bilan shohga yordam ko'rsatishlari kerak edi.

Jogir yerlarning hajmi turlicha bo'lib, butun bir pargama - tumanlar ham jogir sifatida tortiq qilinardi.

Zamindorlar - ma'lum o'lka va qishloqlardan davlatga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'ini ijaraga olgan savdogarlar ichidan chiqqan kishilar edi. Bu yer egalari ijaraga olgan yerlariga vorisiylik asosida egalik qilardilar. Zamindorlar asosan Bangol, Bihar va Orissa viloyatlarida asosiy yer egalari aylanmoqda edilar.

Yuqorida ko'rsatilgan yerga egalikning uchta asosiy shaklidan tashqari hind ruhoniylari va roja hamda roylarga tegishli kichik yer egaliklari va jamoa yerlari ham mavjud edi.

Jogirdor va zamindorlar o'z ixtiyorlaridagi mulklarda mustabid hokim edilar, ular yer solig'i sifatida hosilning ko'rsatilgan miqdoridan ko'p ulushini tortib olar va bu ulush ba'zi hollarda hosilning yarmidan ham ortib ketar edi.

Asosiy soliqdan tashqari hind dehqonlari qo'shimcha soliq va jarimalar to'lashga, jumladan, begor nomi bilan turli inshoot va qurilishlarda ishlashga majbur qilinardilar. Buning ustiga Akbarshoh tomonidan bekor qilingan, musulmon bo'lmagan - hindlardan talab qilinadigan jizya — jon solig'i Avrangzeb davrida yana tiklangan edi.

Shunday qilib, Boburiylar imperiyasida ijtimoiy va iqtisodiy ahvol feodal tartibda edi. Norozilikning kuchayishi natijasida xalq qo'zg'olonlari bo'lib turardi, bu norozilikdan ko'pincha hind rojalari o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilardilar.

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrlarda Hindistonda hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqish jarayoni davom etmoqda

edi. Hindistonda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ma'lum kasb bo'yicha bir shirkatga birlashish hollari ro'y bermoqda edi.

Hunarmandchilik mahsulotlarini boshqa viloyatlarga olib borib sotuvchi savdogarlar soni borgan sari orta bordi.

Hunarmandlar o'z mahsulotlarini qishloq xo'jalik mollariga ayirboshlar ham edilar. Bu kishilarga iqtisodiy tanqislikka uchragan vaqtda ularga qishloq xo'jalik mollarini qarz bergan yer egalari ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mutlaq arzon bahoda sotib olish huquqiga ega bo'lardilar. Hunarmandlarga qarz berib, ular yetishtirgan mahsulotlarga ega bo'lish savdogar — sudxo'rlar tomonidan ham amalga oshirilardi.

Podshoga qarashli yerlarda ham hunarmandlarni shirkatga uyushtirish, korxonalarda majburiy ishlatish hollari sodir bo'la boshlagan edi. «Oyini Akbariy»da xabar berilishicha, saroy qoshida to'quvchilar, bo'yoqchilar, qurol-aslaha ishlab chiqaruvchilar uyushmalari tashkil qilinib, bu korxonalarda ishlovchilarga oz miqdorda pul bilan haq to'langan.

Korxonalarda «chire» nomli mashhur tilla suvi yuritilgan matolar, «fo'ta» - belbog'lar, xalatlar uchun «jomavar», baxmal, zarbop va qalin ipak matosi - «xara» hamda turli xil matolar to'qib chiqarilardi.²²

Podsho va katta yer egalari, savdogarlar tomonidan qishloq xo'jalik mollariga almashtirilgan yoki haq to'lab qo'lga kiritilgan hunarmandchilik mollari ichki va tashqi bozorlarga chiqarilar va shu yo'l bilan ham katta foyda olinardi. Sayyoh Monserratening ko'rsatishicha, Akbarning o'zi yirik savdogar bo'lgan va savdodan yaxshigina foyda olgan.

Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, ichki va tashqi savdoning o'sishi pul - tovar munosabatlarini keltirib chiqardi va rivojlantirdi, buning natijasida podsho saroyi va feodallarning pul - boylikka bo'lgan ehtiyoji

²² Уринбоев А., Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси, Тошкент, УзССР ФА нашриёти, 1960, Б.22

ortadi, bu hol o'z navbatida, ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonini kuchaytiradi.

Katta mulk egasi, jogirdor va zamindorlarning markaziy davlatga bo'ysunmaslikka intilishlari, hind rojaliklarining o'z mustaqilliklari uchun tinmay kurashishlari va nihoyat, xalq qo'zg'olonlari XVIII asrga kelib Boburiylar imperiyasini siyosiy va iqtisodiy tomondan zaiflashtirib qo'ygan edi.

Angliya va Hindiston masalasiga kelsak, mavjud bunday sharoitda Hindistonga yevropaliklarning kirib kelishi kuchaydi. Yevropa imperiya davlatlari hukmron doiralarining maqsadi, Hindistonning bitmas-tuganmas boyliklariga, unumdor yerlariga ega bo'lish edi. Yevropa davlatlari hukumatlari endilikda o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishga kirishishdi. Chunonchi, 1757- yilda ingliz qo'shini Bengaliyani bosib oldi. Bu boy hudud inglizlarning keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tadi. Shu tariqa Angliyaning Hindistonni asta-sekin o'z mustamlakasiga aylantirish davri boshlandi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda siyosiy vaziyat shaklan Hindistondagi ahvolga o'xshab ketar edi. Shayboniyxon 1510-yilda halok bo'lgach, uning o'rniga amakisi Ko'chkinchixon taxtga o'tirdi. Ko'chkinchixonidan so'ng taxtga o'g'li Abu Said (1530-1533) o'tiradi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon (1533-1540) qo'lga o'tdi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qarar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sulton - Ubaydullaxonning otasiga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi. Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari katta. Avvalo, Ismoil Safaviy va qizilboshlarning hujumlarini bartaraf etib Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi har tomonlama o'sdi. Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. U Hiroti

ishg'ol etgan, qizilboshlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi. Ubaydullaxon vafot etgach, ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun qattiq kurashlar boshlandi. Shayboniyxon avlodlarining har birida 10-12 nafardan o'g'il bo'lib, ularning har biri toj-taxtga da'vogar edilar. Ularning har biri o'z otameros bo'lgan hududlarda o'z qo'shiniga bosh bo'lib, mustaqillikka intilar, o'zini oliy hukmdor deb his etar hamda imkoni bo'lsa, xonlik taxtini egallash ishtiyoqida edilar. Ubaydullaxondan so'ng shayboniylar sulolasi vakillari o'rtasida o'zaro nizolar avjiga chiqdi. Buning oqibatida Abdullaxon I ning qisqa hukmronligi (1540-1541) dan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Ya'ni bir davlatda ikki hukmdor paydo bo'ldi. Biri - Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon Buxoroda, ikkinchisi - Ko'chkinchixonning o'g'li Abdulatifxon Samarqandda hukmdorlik qila boshladilar. Mamlakat bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib ketdi.

Ana shunday sharoitda kurash maydoniga Miyonqol hukmdori Shayboniy Iskandar Sultonning o'g'li Abdullaxon II (1534-1598) chiqdi. Iskandarxon xonadoniga Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi, g'oyatda katta nufuzga ega bo'lgan shayx Muhammad Islom (1493-1563) ning ixlosi baland bo'lganligi Abdullaxonga bu kurashda juda katta madad bo'ldi. Muhammad Islom va uning avlodlari o'zlarining kelib chiqishini ota tomondan Muhammad payg'ambar avlodlariga, ona tomondan esa Chingizxon va Jo'jiga ular edilar. Aslzodalik va tasavvuf tariqatidagi mavqeyiga ko'ra, Jo'ybor shayxlari somoniylar davridan boshlaboq davlat ishlarida muhim mansablarni egallab kelar edilar. XVI asrning ikkinchi yarmida Shayx Muhammad Islom, keyinchalik uning o'g'li Shayx Abubakr Sa'd Buxoroda shayxulislom lavozimini egallagan edilar.²³ 1556-yili Muhammad Islomning ko'magida Abdullaxon amalda Buxoro taxtini egallaydi. Muhammad Islom Abdullaxonning faoliyatiga oq fotiha bergan edi. Abdullaxon II

²³ Юлдашев М. Ю., Новые данные о хозяйстве джуйберских шейхов. «Общественные науки в Узбекистане», 1963, 5, стр. 37.

avval amakisi, Balx va Badaxshon hukmdori Pirmuhammadni (1557-1561), keyin otasi Iskandarxonni (1561 - 1583) xon deb e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda mamlakat hukmdori Abdullaxon II ning o'zi edi. Abdullaxonning butun hukmronlik davri tinimsiz urushlarda kechdi. Chunonchi, 1574-yili Balxni, 1578-yili Samarqandni, 1583-yili Toshkent va Farg'onani, 1584-yili Badaxshonni, 1595-yili Xorazmni zabt etdi va o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Shundan keyin uning davlati sarhadlari janubda Hirot dan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha yetdi. Butun Movarounnahr, Xorazm va Xuroson yana yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi. XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi. Shunday qilib, XVI asrdagi davlatchiligimiz tarixida yetakchi sulola - shayboniylar sulolasi bo'ldi. Bu sulola o'zbek davlatchiligi rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shdi. Sulolaning eng qudratli vakili Abdullaxon II davrida esa o'zbek davlatchiligi o'z tarixida yana bir bor yuksak darajaga ko'tarila oldi.

Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish yo'lida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga ham shafqat qilmadi. Abdullaxon II garchand davlatni markazlashtira olgan bo'lsa-da, davlatdagi ichki nizolarga to'la barham bera olmadi. Shunday qilib, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach, bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Shayboniy Abdullaxon II 1598- yil fevral oyida vafot etgach, taxtga uning o'g'li Abdulmo'min o'tqazildi. Biroq o'sha yili - 1598-yil iyul oyida Abdulmo'min fitnachilar tomonidan O'ratepa va Zomin oralig'ida o'ldirildi. Undan qolgan ikki yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Taxt uchun kurash boshlandi. Buxoroning bir guruh amirlari Ibodulla Sultonning o'g'li Abdulaminni xon qilib ko'tardilar.²⁴ Boshqa guruh amirlar esa Balx hokimi Abdullaxon II ning jiyani, Sulaymon Sultonning o'g'li Pirmuhammadni shayboniylarning oliy xoqoni deb e'lon qiladilar va Balxdan chaqirib olib, taxtga o'tqazadilar. Ichki nizolar

tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori shoh Abbos bostirib kirib, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni egallaydi. Xorazm esa xonlik tasarrufidan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi. Ayni paytda qozoq xoni Tavakkal Movarounnahrqa qo'shin tortib, Axsi, Andijon, Toshkent, Samarqandni egallab, Buxoro tomon yurdi. Xurosondan Buxoroga yetib kelgan Pirmuhammadxon Buxoro himoyasiga kirishdi. Xonlikning ko'pgina amirlari o'z qo'shinlari bilan Pirmuhammadxonga qo'shildi. Tavakkal Buxoroni ikki oy davomida qamal qilsa-da, uni ololmay Samarqand tomon chekindi. Pirmuhammadxon qo'shinlari uni ta'qib etib, 1599-yil avgust oyi oxirlarida Miyonqolning Uchqora mavzeyiga yetib oldilar va shu yerda bo'lgan jangda Tavakkal qo'shinlari tor-mor keltirildi. Movarounnahr hududi ozod etildi, qozoq lashkarlari Dashti Qipchoqqa chekindi. Pirmuhammadxon Samarqand hokimi etib Boqi Muhammadni, Toshkent hokimi etib Jahongir Sultonni tayinlaydi. Pirmuhammad Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. Tez orada Jaloir, Do'rmon qabila boshliqlarining ig'vosi bilan Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Oxir-oqibatda Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasida 1601- yilda Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeyida jang bo'ladi. Jangda Pirmuhammadxon yengiladi va 80 yoshida qatl etiladi.²⁵

Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Birinchidan, u davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimini joriy etdi. Ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga topshirdi. Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o'tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan. Lekin suyurg'ol mulklar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilar edilar. Ikkinchidan, mamlakatda yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan

²⁴ Бартолд В.В. Узбекские ханства. Соч. Т. II. С. 268-292

²⁵ История Узбекистана (XVI - Первая половина XIX века), т.3, Т., 1993.

mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar. Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazildi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi. To'rtinchidan, 1507- yilda pul islohoti o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil - 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi. Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi. Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol, o'z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada, oliy hukmdor Ko'chkinchixon 1515- yilda navbatdagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. 1527- yilga kelgandagina ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo'ldi. U oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda to'la namoyon bo'lgan. Shayboniylar davrida yer egaligining iqto, suyurg'ol, tanho va jogir turlari bo'lgan. Shayboniyxon davrida davlatni kichik-kichik mulklarga (suyurg'olga) bo'lib idora qilinardi. Bu hol hokimiyatdan ajralib chiqishga sharoit yaratar edi. Shayboniyxon bu xatoni

tuzatishga urinib, bo'ysunishni istamagan mahalliy hukmdorlar mustaqilligini tugatishga, ayrim hukmdorlarni almashtirishga harakat qildi. Bu esa mahalliy hukmdor va zamindorlarning keskin noroziliklariga sabab bo'ldi. Shayboniylar davrida mehnatkashlarning iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi. Aholidan 20 turdan ortiq soliq va to'lovlar olinardi. Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan xiroj bo'lib, daromadning 30 - 40 foizini tashkil qilardi. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq ixrojat deb atalardi. Davlat pulga muhtoj bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan. Aholi soliq va jarimalar to'lashdan tashqari, mehnat majburiyatini ham o'tashi kerak edi. Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo'l va ko'priklar qurishga, yem-xashak yig'ishga jalb etishni nazarda tutardi.

Ashtarxoniylardan Imomqulixon (1611 - 1642), Abdulazizxon (1645 - 1680), Subhonqulixonlar (1680 - 1702) Buxoroning siyosiy birligini saqlab qolish uchun ko'p harakat qiladilar. Ammo xalq qo'zg'olonlari va feodal ichki kurashlar zarbasi ostida xonlik, ayniqsa, Ubaydullaxon (1702 - 1711) va Abdulfayzxonlar (1711 - 1747) hukmronligi davrida zaiflashib qolgan edi. Bu hol Buxoroni Eron shohi Nodirshoh tomonidan osongina istilo qilinishiga qulaylik tug'diradi (1740).

Balx va unga tobe bo'lgan Qunduz, Juzgun (Fayzobod), Shibirg'on va hozirgi Afg'onistonning shimoliy viloyatlari Ashtarxoniylar qo'li ostida bo'lib, Balx odatda valiahd tomonidan idora qilinardi. Chunki Balx viloyati bir tomondan, Boburiylar imperiyasi va ikkinchi tomondan, Eron bilan chegaradosh bo'lib, katta harbiy va strategik ahamiyatga ega edi. Amudaryoning o'ng tomonidan Termiz, Ko'lob va Qobadiyon viloyatlari ham ma'muriy jihatdan Balxga tobe edi.²⁶ Tarixchi A.A.Semenovning fikricha, Pomir Buxoroga bo'ysunmagan, Badaxshon esa garchi Buxoro xonligiga tobe deyilsa ham, lekin ko'p vaqtlargacha yarim mustaqilligini saqlab qolgan.

²⁶ Материалы по истории Средней и Центральной Азии XVI - XIX вв., Т., 1988.

katta daromad olardilar. Diniy mahkamalarga mulki sultoniylar hisobidan berilgan u yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi. Ko'chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerlarni egallab, o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan bo'ldilar. Natijada Qo'ng'iro't, Mang'it, Nayman, Do'rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi. Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Buxoro xonligidagi yerga egalik qilishning bunday tartibi oqibatda: qishloq xo'jaligidan tushadigan daromadlarning alohida shaxslar qo'lida to'planib borishiga; xon xazinasiga tushadigan daromadlarning kamayib, davlatning kuchsizlanishiga; - yerda ter to'kib ishlovchi, mahsulot yetishtiruvchi mehnatkash aholi moddiy ahvolidan og'irlashuviga olib keldi. Tinimsiz urushlar, qabila boshliqlari va amirlar o'rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirdi. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, savzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog'oldi lalmi yerlarda ham boshoqli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan. Dehqonchilik mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, 1614-1615- yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazilgan. 1633-1634- yillarda Qo'shqo'rg'onda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq ashtarxoniylar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi.²⁷ Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan. Mehnatkash aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Ammo katta yaylovlar xon, saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilardi. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirilar, ichki va tashqi bozorda sotilar edi. Ho'kizlardan yer haydashda, omoch va mola tortishda keng foydalanilar edi.

²⁷ Alimova R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi./ TDSHI qo'llanma T. 2009.

Hunarmandchilik va savdo. Hunarmandchilik mahsulotlari asosan shaharlarda, qisman yirik qishloqlarda yetishtirilardi. Hunarmandchilikning to'qimachilik tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish, gilam to'qish, kashtachilik ancha rivojlandi. Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topadi. O'lkada sog' tuproq manbalarining ko'pligi sopol va chinni idishlar, ko'za, kosa va boshqa tayyor kulolchilik mahsulotlari tayyorlashga imkoniyat berardi. Metall va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida yog'och va ganch o'ymakorligi kabi hunarmandchilik tarmog'i ham ancha o'sdi. Buxoro va Samarqandda yuqori sifatli yozuv qog'ozi ishlab chiqarish, tog'li hududlardan nodir metallar, kaliy qazib olish ham yo'lga qo'yilgan. Buxorolik hunarmandlar 200 ga yaqin kasb turlari bilan shug'ullangan. XVI - XVIII asrlarda Buxoro xonligida hunarmandchilikning turli sohalari, ayniqsa, to'qimachilik, qurol-yarog' ishlab chiqarish, ko'ncilik, bo'yoqchilik, qog'oz tayyorlash va boshqalar rivojlangan edi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi ichki va tashqi savdoning o'sishiga sabab bo'ldi. Davlatga qarashli yerlar (xolisa)ning juda ko'p qismi suyurg'ol va tanho yo'li bilan feodal va ruhoniylarga in'om qilinishi natijasida yer solig'idan davlat xazinasiga tushadigan daromad kamayib ketadi. Bu og'ir iqtisodiy ahvoldan qutulish uchun hunarmandlar va savdogarlardan olinadigan soliqlarni oshirishga harakat qilingan. Shuning uchun hunarmandchilik hamda ichki va tashqi savdoni rivojlantirishdan markaziy davlat manfaatdor edi. Yirik yer egalari - feodal va ruhoniylar ham savdo bilan shug'ullanardilar. Chet ellardan keladigan savdogarlar podsholikka va shuningdek, Xo'ja Sa'dga qarashli Gavkushon karvonsaroyida to'xtashlari ham mumkin edi.²⁸

XVII-XVIII asrlarning birinchi yarmida savdo-sotiq ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Savdo-sotiq ishlarida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarning mavqeyi baland edi. Ichki savdoda dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlariga, hunarmandchilik buyumlariga ehtiyoj kattaligi sababli bozorlar

gavjum bo'lardi. Tashqi savdo ham to'xtab qolmadi. Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Qashg'ar, Turkiya mamlakatlariga paxta, teri, jun, turli matolar va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqarilar edi. Buxorolik savdogarlarning Sibir shaharlarida o'z savdo rastalari bo'lgan. Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, dori-darmon, choy, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan. Ashtarxoniylar davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli soliq deb hisoblangan. Shu boisdan soliqlar turi va miqdori ko'paytirilgan. Asosiy soliq to'lovchi raiyat - dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar bo'lib, ulardan xiroj, zakot, ixrojt, boj va boshqa soliqlar undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarga majburan jalb etilardi.

Urush yillarida soliq miqdori haddan tashqari oshirilardi. Subhonqulixon davrida raiyatdan 7 yillik soliqlarni birdaniga yig'ib olish hollari bo'lgan. Ubaydullaxon esa aholidan yig'iladigan soliqlar miqdorini 4 baravarga ko'paytirgan. Ubaydullaxon 1708- yilda pul islohoti o'tkazib, tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tangalar o'rniga, tarkibida 9 foiz kumush bo'lgan tangalarni zarb ettiradi va uning qimmatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi. Natijada pulning qadri 4 baravar kamayadi, norozilik kuchayib, do'kondor va hunarmandlar o'z mahsulotlarini sotmay qo'yadi, do'konlar yopiladi, savdo-sotiq ishlariga katta zarar yetadi. Muhammad Amin Buxoriyning „Ubaydullanoma“ asarida „Oddiy xalq va kambag'allar mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar“, deb yozilgan edi. Bunday ahvolga chiday olmagan xalq 1708- yilda Buxoroda qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilar xon saroyiga yaqinlashib, saroyni o'rab oladilar. Ark darvozasiga tosh yog'dirib, xonni haqoratli so'zlar bilan badnom qiladilar. Qo'zg'olon bostiriladi, yangi tangalar qimmatini ikki baravarga tushirilib, do'konlar qayta ochiladi. 1712- yilda Samarqandda qo'zg'olon ko'tarilib, xalqqa zulm va zo'ravonlik qilayotgan kenagas qabilasidan qo'yilgan

²⁸ O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti, 1qism, T., 2000. B-245

Sulton To'qsabo shahardan haydaladi. XVIII asrda Balx, Karmana, Miyonqol, Shahrisabz va boshqa viloyatlarda ham xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. Biroq qo'zg'olon tartibsiz, tarqoq holda bo'lganligi uchun tezda bostiriladi. Xalq qo'zg'olonlari Buxoro xonligi siyosiy tartiblarining istiqboli yo'qligini yaqqol ko'rsatdi va uni yanada zaiflashtirdi.

1.2. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Boburiylar imperiyasi va Buxoro xonligida ilm-fan va madaniyat

Ta'lim sohasidagi islohotlar. Shayboniylar ta'lim sohasida ham islohot o'tkazdilar. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmi, diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolaga olti yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. XVI asrda Samarqandda Shayboniixon madrasasi, Buxoroda Abdullaxon, Toshkentda Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari va boshqa ta'lim muassasalari quriladi va faoliyat yuritadi. Madrasada uch bosqichli ta'lim joriy etilgan bo'lib, uning har bir bosqichida yetti yildan o'qilardi. Shunday qilib, o'qish 21 yil davom etardi. O'quvchilar ilohiyot ilmidan, hisob-kitobdan, handasa, fiqh, mantiq, musiqa, she'r san'atidan ilm olardilar. Albatta, ta'lim olishga hammaning ham imkoni bo'lmas edi. Savodxonlikning Movarounnahrda XVI asrdagi ana shunday rivojlanishi o'zbek tili rivojlanib, keng tarqalishiga, adabiy aloqalar rivoj topishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsata oldi.

Ilm-fan. Shayboniylar davrida fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga - ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniixon, Ko'chkunchixon va Ubaydullaxonlar o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar. Shuningdek, Muhammad Shayboniixon, Abdulazizxon va

Abdullaxonlar kutubxonalarida o'z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo'lgan. Bundan tashqari, Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'alarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Masalan, Samarqand va Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan mavlono Kamoliddin Ibrohim, Abdullaxonning muallimi Xoja Muhammad, yulduzshunos Qiyomiddin Shaydo, iftixor ul-atibbo (tabiblar iftixori) unvonini olishga sazovor bo'lgan Muhammad Mazid, Hakim Shahrisabziy, jarroh mavlono Baqo, mavlono Rafe, 1541-yilda ilmi tibb va dori-darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Husayn ibn Shiroq Samarqandiy, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shohali ibn Sulaymon, Xoja Hakim (vafoti 1585), natijat-ul-atibbo unvonini olgan Abdulhakim ibn Sulton Mahmud kabilar shular jumlasidandir. Xoja Hasan Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida matematika va astronomiya ilmida shuhrat topgan mavlono Kavkabiyni alohida qayd etadi.²⁹ Matematika va astronomiya sohasida yozilgan kitoblardan Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiyning „Hisobi amali shabaka“, (Shabaka jadvali amali hisobi; 1550), Bobokalon muftiy Samarqandiyning „Risola dar ilmi hisob“, „Vaziyat bar chahor qism“, Tursun Zominiyning „Tuhfayi amir“, Muhammad Husayn munajjim Buxoriyning „Ma'rifat samti qibla“ (Qibla tomonni topish ma'rifati), Mahmud ibn Ahmad Foriziyning „Risola dar muaddili qamar“ (Oy fazolarining tengligi haqida risola; 1517), Tojis-Saidiyning „Hoshiy li shahri ashkoli ta'sis“ (Asoslash shakllari sharhiga izohlar; 1568), Said Muhammad Tohir ibn Abulqosimning „Ajoyib ut-tabaqot“ (1545-1550) asarlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy 1526- yili „Dastur al-iloj“, „Muqaddimoti dastur al-iloj“ (Davolash bo'yicha dastur) asarlarini yozgan. Ubaydulloh Qahhol ibn Muhammad Yusuf ham o'z davrining yetuk tabibi, tibb olimi, Baroqxonning o'rtancha o'g'li Toshkand hokimi Darvishxonning buyrug'iga binoan 1598-yilda „Shifo ul-ilal“ (Kasalliklar shifosi) asarini yozadi. Asar 500 varaqdan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tibb ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan. Bir necha bitik nusxasi bizgacha yetib kelgan. Uning

²⁹ Ҳасанхожа Нисорий. Музақкири аҳбоб, Т., 1993. Б.37

yana “Umdat ul-kuhliya fil-amrodul-basariya” (Ko’z kasalligiga doir asosiy kitob) asari ham bo’lgan.

Shayboniylar davrida tarix fani ham rivojlandi, ko’plab tarixiy asarlar yozilgan. Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro’zbexon Isfaxoniylar Shayboniyxon topshirig’i bilan har qaysisi Shayboniyxonga atab alohida tarixiy asarlar yozganlar. Bundan tashqari, Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiyning „Zubdat ul-ozor“, Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma“ („Sharafnomayi shohiy“), noma’lum muallifning „Tavorixi guzidayi nusratnoma“ asarlari shayboniylar davri ijtimoiy, siyosiy tarixiga doirdir. Zayniddin Vosifiyning „Badoye ul-vaqoye“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarlari ham shu davr ijtimoiy va madaniy hayotidan bahs yuritadi. Ko’chkinchixon topshirig’i bilan Sharofiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“si o’zbek tiliga o’girildi. Yetuk tarixchi olim Mirza Muhammad Haydar (1500-1556) 1541-1546- yillarda Yunusxonning nabirasi, tog’avachchasi Abdurashidxonga bag’ishlab „Tarixi Rashidiy“ asarini yozadi.³⁰ Mirza Haydar Toshkentda dunyoga kelgan; uning onasi Toshkent hokimi Yunusxonning qizi Xo’bnigorxonim bo’lib, Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi bo’lgan. Hofiz Ko’hakiy (Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy) Ulug’bek Mirzoning shogirdi Ali Qushchining nabirasi bo’lib, shayboniylar davrining yetuk tarixchisi, mantiq, fiqh, kalom ilmlari olimi bo’lgan. Davr taqozosi bilan o’z vatani Toshkentda turg’un yashay olmaydi. 1528-yili Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga, Hindistonga boradi. Hajga borib, Usmonlilar Turkiyasi sultoni bilan uchrashadi. Vazirlikka qilingan taklifni rad etib, 1563-yili Toshkentga qaytadi va shu yerda 1584-yili vafot etadi. U „Tarixi Toshkand“, „Tarixi oliy Chingiz“ (Chingiz sulolasi tarixi), „Risola fi fannit-tavsir val-usul val-firu val-mantiq val-kalom“ (Tafsir, fiqh asoslari va tarmoqlari, mantiq va kalom ilmi haqida risola) kabi asarlar muallifidir.

Adabiyot. Shayboniyxonning o’zi ham umri jangu jadallarda o’tishiga qaramay, she’riyat va tarix fani bilan shug’ullanishga vaqt topgan. Uning she’riy

devon tuzgani ma'lum. U hatto xattotlik bilan ham shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida (tartib raqami 844) Kamoliddin Binoniy qalamiga mansub „Shayboniynoma" asarining Shayboniyxon ko'chirgan nusxasi saqlanadi. Ubaydullaxon ham ilmi va ma'rifatli hukmdor edi. U fors va turk she'riyatini yaxshi bilardi. Ayni paytda, o'zi „Ubaydiy" taxallusi bilan o'zbek, fors, arab tillarida ijod qilgan, she'rlar bitgan. Uning uch tilda bitgan she'rlaridan iborat uch devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning o'zbek tilidagi devoni 306 g'azal, 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuqdan iborat.

Me'morchilik. Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga harakat qildilar. 1535-1536- yillarda qurilgan Mir Arab madrasasi, 1540-1541- yillarda bino qilingan Masjidi Kalon, 1549- yili Abdulazizxon qurdirgan koshinli xonaqoh, Mag'oki Attori masjidi (qayta ta'mirlangan), 1559- yili qurilgan Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Kitobfurushon, Karmanadagi hazrati Qosimshayx xonaqohi, 1582- yili qurilgan uch darvozali Timi Kalon, 1581- yili bino qilingan Modarixon madrasasi, Oyposhsha oyim madrasasi, 1580- yili bino qilingan Govkushon madrasasi, 1586- yili qurilgan Fathulla qo'shbegi madrasasi, 1585-yili qurilgan Fayzobod xonaqohi, Do'stum madrasasi, 1577-1578-yillari qurilgan Abdullaxon madrasasi, Tim, Chorsu fikrimizning dalilidir. Samarqandda ham shayboniylar nomi bilan bog'liq binolar anchagina. Chunonchi, Shayboniyxon tomonidan qurila boshlab, 1515-1516 - yillarda bitkazilgan Shayboniyxon madrasasi va Abdurahim Sadr madrasasi, Toshkentda bino qilingan Baroqxon madrasasi, Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga qurilgan ko'prik (1582) mashhurdir. Buxoroga kelgan ingliz elchisi Antoniy Jenkinson: „Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir", - deb yozadi. Ayniqsa, Abdullaxonning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan. Uning davrida markaziy hokimiyat kuchayishi tufayli katta

³⁰ Mirza Muhammad Haydar. Tarixiy Rashidiy. / V.Rahmonov, Y.Egamova tarjimasi. "Sharq". T. 2010.

qurilish ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, Abdullaxon 1000 dan ortiq rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'prik, suv omborlari qurdirgan. Buxoroda juda katta savdo markazi bunyod etilgan. Hukmdorlardan Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II lar ilm, fan, ma'rifat homiylari edi. Shayboniylar davrida, ayniqsa, ilm-fanning tarix, tibbiyot sohalari, shuningdek, me'morchilik boshqa sohalarga qaraganda ilgarilab ketdi.

Ashtarxoniylar davrida avj olgan ichki ziddiyatlar, tinimsiz urushlar, siyosiy parokandalik ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotga salbiy ta'sir etdi. Biroq bunday murakkab siyosiy vaziyat maorif, ilm-fan, madaniyat rivojini to'xtatib qololmadi. Maktab va madrasa ta'limi. XVII-XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktab (maktabxona)lar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari masjidlar, madrasalar, korxonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida tashkil etilgan bo'lib, masjid imomi yoki madrasani tugatgan ziyoli kishilar o'qituvchilik qilgan. Ularni domla deyishgan. Qiz bolalar maktablari badavlat kishilar yoki o'qituvchi ayollar uylarida tashkil etilgan, qizlarni otinoyi, otinbibi, bibixalifa, bibiotin deb atalgan ayol o'qituvchilar o'qitishgan. Maktablar xarajati va domlalarning maoshi vaqf mulkidan tushgan daromadlar hamda o'quvchilarning ota-onalari tomonidan o'qish uchun to'langan mablag'lar hisobidan qoplangan. Yetim-yesirlar bepul o'qitilgan. Bolalar maktabga 6-7 yoshdan berilgan va 5-8 yil davomida ularga boshlang'ich ta'lim berilgan. O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, „Haftiyak“ („Qur'oni Karimning yettidan biri“) kitobini o'qish o'rgatilgan. Hisob darsida sonlar, ularni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish amallari o'rgatilgan. O'quvchilar Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor asarlarini, „Chor kitob“ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktablarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob-axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq o'rin berilgan. Bolalar o'qishni to'liq o'zlashtirib olganlaridan keyingina yozishga o'tganlar. Bolalarga kitoblardan ko'chirib yozish, mustaqil ravishda duoyi salom xati, ish yuzasidan turli ma'lumotlar yozish malakalari

o'rgatilgan. Maktablarda imtihonlar bo'lmagan, o'quvchilarga maktabni bitirgani to'g'risida hujjat ham berilmagan. Bolaning ravon o'qishi, to'g'ri yoza olishi, hisob-kitobni bilishi maktabni bitirganligiga guvoh bo'lgan. Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti hisoblangan. Madrasaga maktabxonalarni tugatganlar qabul qilingan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab 7-12 yil davom etgan. Buxoro xonligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa bo'lgan. Madrasada arab, fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. O'qish „Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan. Fiqh (huquq) kursi majburiy kurs hisoblangan. Madrasalarda umumta'lim kurslaridan falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, tarix, jug'rofiya, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar o'qitilgan. Talabalardan Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy asarlarini, jami 137 darslik va o'quv qo'llanmalarini o'zlashtirish talab etilgan.

Ilm-fan. Diniy mutaassiblik, xalq ommasidan diniy aqidalarga so'zsiz itoat etish talablarining kuchayishi ilm-fan ravnaqiga salbiy ta'sir etdi. Shunga qaramasdan ilm-ahllari ijodi batamom to'xtab qolmadi. XVII asrning taniqli olimi, Mir Arab madrasasi mudarrisi Muhammad Sharif Buxoriy (1609-1697) falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik, astronomiya sohasida 20 dan ortiq asarlar yozgan. Uning „Davriylik haqida risola" asari makon va zamon masalalariga bag'ishlangan. Uning „Xoqonga foydali maslahatlar" kitobi 25 bob 32 fasldan iborat bo'lib, unda shariat qonun-qoidolari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar o'z ifodasini topgan. Matematika, handasa, kimyo, astronomiya sohasida Mulla Tursun Fariziyni, falsafa va mantiq sohasida Mulla Yusuf Qorabog'iyning asarlari bizgacha yetib kelgan. Boboxoja ibn Xoja Orif Samarqandiy tomonidan 1678-yilda falakiyot, ilmi hay'at haqida risola yozilgan. Mahmud ibn Valining 1636- yilda yozilgan „Baxr ul-asror" („Sirlar dengizi") asarida samarqandlik va buxorolik 20 nafar olim haqida ma'lumotlar berilgan. Subhonqulixon davrida tibbiyot ilmi

rivojlandi. Uning tashabbusi bilan Buxoroda „Dor ush-shifo qurilib, bemorlarni davolash ishi yo'lga qo'yilgan, tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa qurilib, shifokorlar tayyorlangan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U „Subhoniyy tibbiyoti bo'yicha davolash“, „Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati“ nomli ilmi nujumga oid kitoblar yozgan.

Tarixnavislik. XVII-XVIII asr birinchi yarmida Buxoro tarixiga doir qator asarlar yaratiladi. Tarixchi va geograf olim Mahmud ibn Valining „Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi“ asarida Movarounnahr va Xuroson tarixi, mamlakatlar, shaharlar, okean va dengizlar, hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilinadi. U „Muhabbatnoma“, „Axloq husnlari“ risolalari hamda 50 ming baytdan iborat katta devon muallifidir. Tarixnavislikda Muhammad Yusuf Munshiyning „Tarixi Muqimxoniy“, Muhammad Amin Buxoriyning „Ubaydullanoma“, Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning „Muhit ut-tavorix“ („Tarixlar dengizi“), Abdurahmon Tolening „Abulfayzxon tarixi“, Xojamqulixon Balxiyning „Qipchoqxon tarixi“ asarlari muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san'at. XVII-XVIII asr birinchi yarmida adabiyot ancha rivoj topdi. Adabiy muhitda Bedil (asli ismi Mirzo Abdulqodir, 1644-1721) ning o'rni katta. U Kesh (Shahrisabz)lik, turkiy barlos urug'idan, Hindistonga ko'p marta safar qilgan, Dehlida vafot etgan. Bedil inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy, axloqiy qarashlarini she'riy va nasriy asarlarida bayon etgan. Bedil 120 ming misradan ortiq she'riy va nasriy asarlar yozgan. Uning yirik asari „To'rt unsur“ nasrda yozilgan bo'lib, havo, suv, yer, olov haqida, shuningdek, o'simliklar, hayvonlar va odamning kelib chiqishi haqida o'z qarashlarini bayon etadi. Bedilning „Irfon“ dostonida falsafa, tarix va ilohiyotning xilma-xil masalalari bayon etilgan. Bedilning fikricha, dunyo abadiy bo'lib, to'xtovsiz harakat qiladi va o'zgarib turadi. U she'rlarida jamiyatdagi jabr-zulm, adolatsizlik kabi illatlarni qoralaydi. Bedil asarlarining ko'pchiligi 16 jildli „Kulliyoti“ga kirgan (Bombey,

1882). Bedil Turkistonda „Abulma'oniyy" („Ma'nolar otasi") degan nom olgan. Sayido Nasafiy (asl ismi Mirobid 1637-1710) to'quvchilik bilan shug'ullangan, ko'pgina she'rlarida ijtimoiy tengsizlikka, jabr-u zulmga qarshi norozilik bayon etilgan. U 212 xil kasb hunar egalari haqida fikr bildirib, hunar ahlini ulug'lagan. Uning „Bahoriyat" („Hayvonotnoma") majoziy-munozara asarida, g'azallarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti qalamga olingan. Turdi (XVII asr) hajviy she'rlari bilan tanilgan shoir. Turdining merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 tasi g'azal, 5 tasi muxammas janriga oid. 434 misra hajmdagi bu merosning 165 misrasi Subhonqulixon haqidagi hajviyalardir („Subhonqulixon to'g'risida hajviya", 1691). Uning tasavvufiy she'rlari g'oyat go'zal va teran falsafiy mazmunga boy bo'lgan.

Sofi Olloyor (1644-1724) tariqat arbobi va shoir. U shayxlik martabasiga ko'tarilgan, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan. U forsiy tilda „Taqvodorlar maslagi", „Oriflar murodi", turkiy tilda „Ojizlar saboti", „Najot tantanasi" kabi masnaviy asarlarini yaratgan. Uning „Taqvodorlar maslagi" („Maslakul-muttaqin") asari 12 ming bayt, 135 ta bobdan iborat bo'lib, ilohiy ma'rifat badiiy talqinda bayon etilgan o'zbek falsafiy adabiyotining yetuk namunasidir. Bu asar maktab va madrasalarda darslik qatorida o'qitilgan. Buxoro xonligi adabiy muhitini Mashrab (Boborahim Mulla Vali o'g'li), Xoja Samandar Termiziy, Mutribiy, Samarqandiy, Mulla Sodiq Samarqandiy kabi yetuk namoyandalar ham o'z asarlari bilan boyitdilar. Xattotlik, miniatura rassomlik san'ati, kitob ko'chirish, ularni naqsh va tasvirlar bilan bezatish san'ati davom ettirildi. 1624-yilda Samarqandda ko'chirilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma" kitobi o'sha davr kitobat san'atining yorqin namunasidir. Xalq ommasining o'ziga xos ijodiyoti qo'shiqlar, ertaklar, masxaraboz-qiziqchilarning shahar maydonlarida namoyish qiluvchi san'atida, askiyalarida namoyon bo'ldi. Musiqa san'atida turli sozandalar xalq yoqtirgan kuylar va ashulalarni ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lardilar. Me'morchilik. Buxoro xonligi tasarrufidagi hududlarda me'morchilik ishlari ham ancha rivoj topdi. Ko'plab

masjidlar, madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, hammomlar, sardobalar barpo etildi. XVII asrda Samarqand Registoni ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir 1619-1635-yillarda vayrona holatga tushib qolgan Registon maydonida Ulug'bek madrasasi qarshisida Sherdor madrasasini, uning yonida 1646-1659 - yillarda Tillakori madrasa-masjidini o'z mablag'lari hisobidan bunyod ettirgan. Samarqand Registon ansambli o'zining rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O'rta Osiyo me'morchiligining noyob tarixiy yodgorligi bo'lib, bugungi kunda jahon jamoatchiligi, sayyohlari e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Buxoroda yirik me'moriy majmua - Labihovuz ansambli bunyod etildi. Buxoroning eng badavlat kishilaridan biri bo'lgan Nodirdevonbegi 1620-yilda bozor maydoni o'rtasida bo'yi 45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan katta hovuz qurdirib, atrofini shag'al, marmar va toshlar bilan mustahkamlattiradi. Hovuz atrofida Nodirdevonbegi madrasasi va xonaqohi, Ko'kaldosh madrasasi, Ernazar elchi madrasasi bunyod etiladi. 1652-yilda Buxoro shahrida Abdulazizxon qurdirgan qo'sh imoratli madrasa mustahkamligi, nafis naqshli koshinlarga boyligi bilan ajralib turadigan, o'z zamonasi me'morchiligining yetuk namunasi hisoblanadi. Imomqulixon Madina shahrida Chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdiradi. XVIII asr boshlarida Qarshida Shermuhammadbiy, Xo'ja Qurbonbiy madrasalari, savdo yo'llarida hashamatli rabotlar barpo etiladi. Xulosa qilib aytganda, XVII-XVIII asr birinchi yarmida og'ir siyosiy vaziyatga qaramasdan xalqimiz o'zining ijodkorlik, bunyodkorlik xislatlarini namoyon qila olgan va ilm-fan to'xtab qolmagan.

II bob. O'rta Osiyo xonliklari va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar

2.1. Elchilik aloqalarining yo'lga qo'yilishi va dastlabki savdo munosabatlari

O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Moziyga nazar tashlar ekanmiz, har qanday mamlakatning biror bir davlat bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishda avvalo savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlardan manfaatdor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ana shu jumladan Buxoro va Hindiston xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ham ko'p asrlik tarixni o'z ichiga oladi. Bu aloqalar bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li paydo bo'lgan davrlardayoq ikki o'rtada savdo aloqalari mavjud edi.

Tarixiy ma'lumotlar bu munosabatlarning temuriylar davridan boshlab rasmiy va muntazam tus olganligidan dalolat beradi. XV asr tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davlatining markazi Hirotga Hindistondan bir necha bor (814 - 1411; 819 - 1416 va 824 - 1421 yillari) elchilar kelgan. O'z navbatida Shohrux davlatining Abdurazzoq Samarqandiy boshliq elchilari 1442-yili Hindistonning janubida joylashgan Kalikut port shahri va Bijonagar (Vidjayanagar) davlatiga yuborilgan; elchilar o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarib, ikki yildan so'ng Hirotga qaytib keladilar. Abdurazzoq Samarqandiy elchiligiga yuklangan asosiy vazifalardan biri temuriylar davlati bilan Hindiston o'rtasida olib borilayotgan savdoni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish edi.³¹

XIV - XV asrlarda Hindistonning Eron va O'rta Osiyo bilan bo'lgan savdo munosabatlarida Xo'rmuz port shahrining ahamiyati katta bo'lgan. Arab sayyohi

³¹ Н и з о м и д д и н о в Н., Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари, Тошкент, Уздавнашр, 1961, 5—43, 100—108-бетлар.

Ibn Battuta Xo'rmuzga Arabiston, Fors va Dashti Qipchoqdan minglab otlar haydab kelinishini va bu otlarning Hindistonda katta foydaga sotilishini xabar qiladi. «Savdogarlar bu tatar otlarining har birini ularning o'z yurtlarida 60 dirham (8 - 10 dinor; 1 dinor 13 gramm kumushdan iborat bo'lgan) ga sotib olib, - deb yozadi Ibn Battuta, - Hindistonda 100 dinor (600 dirham)ga sotganlar; eng yaxshi otlarning narxi 500 dinor va hatto undan ham ortiq turgan».

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta Osiyo mevalarining Hindistonda noyob va qimmatligi haqida aytib o'tadi. Jumladan, Kandibodomning (Konibodom) bodomini nihoyatda a'lo navli ekanligini aytib, "Xurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomini borur...", deb ko'rsatadi.³²

Bundan tashqari Buxoro va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda Kobul va Qandahor shaharlarining ahamiyati ham katta. Zahiriddin Muhammad Bobur bu masalada quyidagilarni yozadi: "Hindistoniy g'ayri Hindistonni Xuroson der. Nechukkim arab g'ayri arabni Ajam der. Hindiston bilan Xuroson orasida xushki yo'ldin ikki bandardur, biri Kobul va yana biri Qandahor. Qoshg'ar va Farg'ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondin karvon Kobulg'a kelurlar. Xurosondin karvon Qandahorga kelur. Bisyor yaxshi savdoxonadur. Savdogarlar Xitoy yo Rumga borsalar, ushmuncha – o'q savdo qilg'aylar. Har yili yetti-sakkiz-o'n ming ot Kobulg'a kelur. Quyi Hindistondan o'n, o'n besh-yigirma ming uyluk karvon Kobulg'a kelur. Hindistondin oq raxt va qand va nabot va shakar va aqoqir keltirurlar... Xuroson va Iroq va Rum va Chin matoi Kobulda topilur. Hindistonning xud bandaridur."³³

XVI asrning 2-yarmidan boshlab Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda Kobulning ahamiyati yanada oshadi. Buning sababi Xo'rmuz va boshqa bir qator hind portlarining yevropaliklar tomonidan egallanishidir. Buning oqibatida Boburiylar imperiyasining dengiz orqali savdo qilish imkoniyatlari cheklanib qoladi va Buxoro xonligi bilan karvon yo'llarida iqtisodiy

³² Захириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990. Б-7

³³ Захириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990. Б-117, 118

munosabatlar hajmi yanada oshadi. "Ost-Indiya" kompaniyasi agenti Stillning aniqlashicha, XVI asr davomida quruqlikdagi karvon yo'li orqali yiliga avvallari yuborilgan 3 ming tuya mol o'rniga 14 ming tuya mol jo'natib turilgan.³⁴

Buxoro va Hindiston o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida Qozon (1553) va Astraxanning (1557) Rossiya tomonidan bosib olinishi ham muhim rol o'ynaydi. Chunki O'rta Osiyo, jumladan buxorolik savdogarlar hind mollarini Rossiya bozorlariga yetkazib berishda va O'rta Osiyoga kelgan hind va afg'on savdogarlarini rus mollari bilan ta'minlash ishlarida vositachi rolini egallab oladilar. Natijada Buxoro xonligi ham Hindiston, ham Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarni anchagina rivojlantirib oladi.

Mamlakatda e'tiborli savdogar hisoblanuvchi Buxoro va Xiva xonlarining sotish yoki almashish uchun rus bozorlariga chiqaradigan hamda rus podsholariga hadya va tortiq sifatida yuboradigan mol va buyumlari orasida Hindistondan keltiriladigan mollar ham salmoqli o'rin tutar edi.

Masalan, Abdullaxon II tomonidan 1585-yili Astraxanga sotish uchun yuborilgan mollar orasida (bu mollarning qiymati o'sha davrdagi 2- 2,5 ming so'mni tashkil qilar edi) 40 puddan ortiq bo'yoq bo'lgan. Ma'lumki, bo'yoq Buxoroga, asosan, Hindistondan keltirilar edi. Shuningdek, shu yili Abdullaxon II o'z elchisi Muhammad Alini tortiq va hadyalar bilan rus podshosi Fyodor Ivanovich (1584 - 1598) huzuriga jo'natadi. Uning tortiq va hadyalari orasida qimmatbaho hind chodiri ham bor edi.

Ayni vaqtda, O'rta Osiyo xonlari, xususan Buxoro xonlari Rossiyadan sotib olgan va rus podsholaridan yuborishni iltimos qilgan mollar orasida hind podsholari uchun yuborishga mo'ljallangan mollarning nomi ham ko'plab uchrab turadi. Bu xil mollar - suvsar, qunduz, oqsichqon terisi, oyna, ov qushlari (qirg'iy, lochin, shunqor), baliq tishi (morj tishi), zotli itlar va boshqalar.

³⁴ Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан" 1966. Б-15

Ilyos Nizomiddinovning ma'lumoticha, XVI—XVII asrlarda O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasida olib borilgan savdoning uch asosiy shakli mavjud edi:

- a) Xususiy savdo ;
- b) xonlik va podshohlikning maxsus vakillari vositachiligida olib boriladigan savdo;
- c) podshohlar o'rtasida o'zaro tuhfa va hadyalar yuborish yo'li bilan amalga oshiriladigan mol ayirboshlash.

Savdoning bu shakllari Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi iqtisodiy (savdo) munosabatlarda ham o'z ifodasini topgan edi.

Savdoning ikkinchi va uchinchi shakli uning birinchi shakliga nisbatan katta imtiyozlarga egaligi va bu xil savdo yo'li bilan chetga chiqariladigan mollarning turlari bo'yicha qam farq qilardi.

Xususiy savdogarlar sotadigan va sotib oladigan mollari uchun boj to'lashga majbur edilar. Bundan tashqari, xususiy savdogar o'z shaxsiy hayoti va mulkining xavfsizligi ta'minlangan deb his qilolmas edi, chunki mamlakatlardagi har bir siyosiy voqealar ularga katta zarar yetkazardi; ular ko'pincha qaroqchilar hujumiga uchrar, mollari talon-toroj qilinardi.

Xususiy savdogarlar, asosan, xalq ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mollar bilan savdo qilardilar. Ular XVI—XVIII asrlarda Hindistondan Buxoro bozorlariga turli hind matolari (jomavar, chire, gujorat «fo'ta»si), kashmir sholi, sukurlat - jun, nil va boshqa xil bo'yoqlar, lak, dorivorlar, choy, doka keltirar va O'rta Osiyodan Hindistonga ho'l va quruq mevalar (Abulfazlning ko'rsatishicha, Samarqand tarvuzi, nashvoti, olmalar, mayiz, bodom, mag'iz va boshqalar), ot, tuyay, ipak matolar, sukno, qunduz terisi, suvsar, har xil chinnilar, zig'irpoyadan to'qilgan rus matosi va boshqalar olib borar edilar.³⁵

³⁵ Расул-Заде П., Из истории индо - среднеазиатских политических взаимоотношений во второй половине XIX в., в сб. «Взаимоотношения народов Средней Азии с сопредельными странами Востока», Ташкент, Изд-во АН УЗССР, 1963, стр. 173—194.

XVI - XVII asrlarda Buxoro va O'rta Osiyoning ayrim shaharlarida ko'plab hind savdogarlari turg'un bo'lib qoladi. Buxoroda maxsus hind mahallalari paydo bo'lib, ularni hindlarning o'zlari boshqarardilar.

XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan Antoni Jenkinson Buxoro, Balx shahrida har yili Hindiston, Rossiya va boshqa davlatlardan katta-katta karvonlar bilan keluvchi savdogarlarning qurultoyi tez-tez bo'lib turadi, deb yozadi. Buxoroning dunyodagi savdo markazlaridan biri ekanligini tan olgan ingliz sayyohi bu shahardagi chet el savdogarlari, shu jumladan, hind savdogarlari tomonidan olib boriladigan savdoning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiradi. U bu savdogarlarning faqirlarcha kiyinganliklarini, ularning juda kam mol keltirishlariga qaramay, bu mollarning 2-3 yillab sotilmay yotishini alohida eslatib o'tadi. Jenkinson yana hind savdogarlari Buxoroga na oltin, kumush, na qimmatbaho toshlar va na ziravor dorivorlar keltirib sotmasliklarini qayd etgan.³⁶

Ammo bir qator olimlar uning bu ma'lumotlarini rad etadilar. Ularning fikricha, Buxorodagi chet el, ayniqsa hind savdogarlarining faoliyatini va hind mollari bilan savdo qilishni ataylab kamsitgan, Angliyaning ko'plab chiqarishi mumkin bo'lgan, suknosiga O'rta Osiyo bozorlarida talabning yo'qligini yaxshi bilgan ingliz sayyohi, Buxoro va umuman O'rta Osiyo bozorlaridagi savdoning boshqa chet el davlati uchun ahamiyatli bo'lib ko'rinishini yoqtirmagan.

Jenkinsonning hind savdogarlarining qimmatbaho toshlar va ziravor - dorivorlar keltirmasliklari haqidagi fikri ham noto'g'ri fikr edi. Ziravor - dorivorlar Hindistondan Buxoroga chiqariladigan asosiy mollardan hisoblanardi. Qimmatbaho toshlar va boshqa oltin-kumushdan ishlangan buyumlar ko'proq savdoning yuqorida aytib o'tilgan ikkinchi va uchinchi shakllari yo'li bilan keltirililar va bu savdo haqida ehtimolki, Jenkinson yaxshi tushunchaga ega, emas edi.

2.2. Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar

Hujjatlar XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida xususiy savdogarlar orasida ham boj to'lamay savdo qilish huquqiga ega bo'lganlar borligidan dalolat beradi. Bu xil savdogarlarga, hatto maxsus farmon bilan muayyan o'lkalar o'rtasidagi mavjud savdoda ayrim mollarni xarid qilish va sotish huquqi ham berilgan. Balxlik Oxunxo'ja Avaz va uning sheriklari boburiy Avrangzeb tomonidan berilgan tarxonnomaga ko'ra, Hindistonga saroy ehtiyojlari uchun turli quruq va ho'l mevalar, otlar va tuyalarni olib kelish hamda Balxga Hindiston matolari va buyumlaridan keltirib sotish huquqiga ega bo'lgan. Imperator o'z farmonida Qobuldan to Shohjahonobod (Dehli)ga qadar o'lka va viloyatlardagi hokimlar, jogirdorlar va shohlikning boshqa mutasaddilariga Oxunxo'ja Avaz va uning sheriklaridan chihilyak (qirqdan bir), zakot va rohdori (yo'l uchun olinadigan mablag'), tamg'a va boshqa ishlar yuzasidan zahmat yetkazmaslikni va ushlab qolmaslikni ta'kidlaydi.³⁷

Oxunxo'ja Avaz va uning sheriklari misolidagi ma'lumotlar XVII—XVIII asrlarda Boburiylar imperiyasida va umuman Hindistonda savdo burjuaziyasining shakllanish jarayoni boshlanganidan darak beradi.

Buxoro xonligida boj to'lamasdan savdo qilish huquqiga asosan, xon, shayxlar va Balx hokimi ega edi.

Boburiy imperatorlar ham savdodan keladigan foydani boylik orttirish manbalaridan biri deb bilib, mamlakatlararo qilinadigan tashqi savdoda faol qatnashganlar.

Xonlar, jo'ybariy shayxlar va Boburiy imperatorlari mamlakatlararo boj to'lamaslik asosida olib borgan savdo ishlarini o'zaro «tuhfa va hadyalar» yuborish shaklida ham amalga oshirganlar.

«Matlabut-tolibin» asarida jo'ybariy shayxlar va hind podsholarining o'zaro bir-birlariga «tuhfa va hadyalar» yuborib turganliklari haqida misollar keltiriladi.

³⁶ Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

Asarda ko'rsatilishicha, Jahongirshoh Shayxulislom Tojiddinga ikki marta «hadyalar» yuborgan va shayx ham bu qilingan «marhamat va iltifotlarga» o'z navbatida javob qaytargan. Hind podshosining har galgisi 50 ming xoniy qimmatiga ega bo'lgan matolari (kimxob, zarbop) va nodir buyumlari evaziga Shayxulislom ham Hindistonga umumiy qimmati 40 ming xoniydan ortiq qimmatga ega bo'lgan qunduz po'stinlar, morj tishi, chinni asboblar, qipchoq otlari, tezyurar tuyalar, ov qushlari (tuyg'un, qarchig'ay, shunqor) va behla (charmdan yasalgan, ov qushlarini tutuvchi qo'lga kiygiziladigan qo'lqop)lardan 9 sidradan ikki martaba tuhfa qilib yuborgan.³⁸

Shu narsa diqqatga sazovorki, har ikki tomonning «hadyalari garchi turli xil mato va buyumlardan iborat bo'lsa ham, ularning umumiy qimmatlari qariyb barobar kelardi. Bu esa tuhfa va hadyalarning haqiqatda mol almashish asosida olib boriladigan savdo tovarlaridan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Tortiq va hadyalar qilish shaklida olib boriladigan savdo boj to'lamay savdo qilish imtiyozidan tashqari foydali imkoniyatlarga ham ega edi.

Mamlakatning hokim sinfi - xon va ruhoniylarga qarashli «tuhfa va hadyalar» karvonlari chegaradan o'tishi bilanoq, shu davlat hokimining buyrug'i bilan darhol qurolli guruhlar himoyasi ostiga olinar, qaroqchi va o'lka hokimlari tomonidan talon-taroj qilinish xavfidan xoli bo'lar edilar.

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr mobaynida tuhfa hamda hadyalar yuborish yo'li bilan olib borilgan savdo Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi iqtisodiy (savdo) munosabatlarida muhim rol o'ynagan. Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasining bir-birlariga yuborgan elchiliklari va ular zimmasiga yuklatilgan siyosiy vazifalardan tashqari, ular har ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy (savdo) munosabatlarda vositachi rolini ham bajarganlar.

Masalan, Hindistonga kelgan Imomqulixon elchisi Abdurahimxo'ja turli sovg'a-salomlar bilan birga Jahongirshohga bir yirik la'l «tuhfa» qiladi.

³⁸ Р у с т а м о в У. А., К истории изучения экономических, политических и культурных связей между народами Индии и Средней Азии. Труды Института Востоковедения АН УзССР, вып. 4, Ташкент, 1956.

Jahongirshoh ham Abdurahimxo'jaga 40 ming rupiya pul va biri 1500, 1000 va 500 misqol og'irlikdagi uchta oltin "kavkabi tole" hadya etgan.

Shohjahon elchisi Hakim Hoziq o'zi bilan birga Imomqulixonga «tortiq» sifatida turli qimmatbaho toshlar bilan ziynatlanib, oltin suvi yugurtirilgan idishlar, sukurlat - jundan tikilgan, olmos va yoqut toshlar qadalgan shohona chodir, baliq tishi, oltin va nuqralar qadalgan ko'ylaklar va boshqa buyumlar olib kelgan.

Hind manbalarida aytilishicha, Hakim Hoziq elchiligining keltirgan «hadya va tuhfalari»ning qimmati bir yarim lak rupiyani yoki 3700 iroq (Eron) tumaniga teng bo'lgan.³⁹

Balx hokimi Nadr Muhammadxon Shoh Xo'ja elchiligi orqali Jahongirshohga 50 ming rupiyalik ot, turk qullari, va boshqa buyumlar yuborgan. Bularning evaziga boburiy hukmdor mazkur elchi orqali Nadr Muhammadxonga 40 ming rupiya pul va hind nafis mollaridan «hadya» qaytargan.

Subhonqulixon ham Balx hokimi bo'lib turgan vaqtida Hindistonga bir qancha elchilar yuborib, ular orqali hind imperatoriga «tuhfa — hadyalar» tortiq qilgan. Hind podshohi ham o'z navbatida bularga lozim bo'lgan tarzda javob qaytargan. Masalan, u Subhonqulixonga uning elchisi Shodmonxo'ja orqali (hijriy 1080 – 1669-yili) 25 ming rupiya pul, bir fil (nuqradan yasalgan egari bilan), 150 to'p shol, «jomavar», «chire», gujorat «fo'tasi» matolaridan berib yuboradi.

Yana Abdulazizxon tomonidan «tuhfa» qilib yuborilgan, qimmati 40 ming rupiyalik la'l evaziga Avrangzeb Buxoro xoniga har birining bahosi 20 ming rupiyalik ikkita xanjar «tortiq» qiladi.

Shuningdek, hind elchisi Mustafoxon Abdulazizxon saroyiga bir lakx va ellik ming rupiya qimmatiga barobar - oltin suvi yuritilgan egar-jabduq, jamdar quroli, qimmatbaho qilich, qalqon, o'qdon, bir fil va turli matolar keltiradi.

Biz «hadya va tuhfalar» yuborish yo'li bilan savdo-sotiq qilishga oid bir qancha xarakterli misollar keltirish bilan chegaralandik. Bu haqda qo'shimcha ma'lumotlar

³⁸ Низомиддинов И.Ф - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

³⁹ Шарма Р. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). -Т., 1999.

mazkur ishning Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasining siyosiy – diplomatik munosabatlariga bag'ishlangan qismida ham kelti riladi.

Savdoning bu shakli asosan qimmatbaho (la'l, olmos) va shuningdek, taqiqlangan mollar (qurol, fil) bilan «savdo» qilishdan iborat bo'lgan. Lekin shu bilan birga, bu xil savdo mollari ichida xususiy savdo mollari (ot, turli matolar, idishlar, asboblar) ham bor edi.

Yuqorida keltirilgan faktlar shundan dalolat beradi-ki, XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr mobaynida Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi elchilik munosabatlarining rivojlanishida shu mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy (savdo) munosabatlari ham muhim o'rin tutgan.

III bob. O'rta Osiyo xonliklari bilan Hindiston o'rtasidagi siyosiy aloqalar

3.1. O'zaro siyosiy-diplomatik munosabatlarning yo'lga qo'yilishi

Buxoro xonligi bilan Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi siyosiy aloqalar XVI asrning 70-yillaridan boshlab muntazam ravishda davom etadi.

1572-yili Hindistonga Abdullaxon II ning birinchi elchisi Xo'ja Oltamish keladi. Bu vaqtda Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand Abdullaxon II hukmronligi ostida bo'lib, Toshkent, Hisor uchun janglar olib borilmoqda edi. Boburiylar imperiyasi esa Malva (1561), Jaypur (1562), Gondvan (1564), Chitor (1568) rojaliklarini bo'ysundirgan va katta viloyatlardan biri Gujoratni tobe qilish harakatida edi.

Xo'ja Oltamish elchiligi haqida K.A.Antonova shunday deydi: Badaxshon hokimi Mirza Sulaymon Buxoroga yarim qaram bo'lgan Balxga hujum qilib, bu kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. So'ng u Akbarshohdan o'zbeklarga qarshi kurashda yordam so'raydi, Akbarshoh rozilik beradi. Bundan xabardor bo'lgan Abdullaxon II bu masala yuzasidan Akbarshoh fikrini aniqroq bilish va imkoniyati boricha Hindiston bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish maqsadida Hindistonga elchi yuboradi.

Xo'ja Oltamish elchiligi bilan birga sovg'a-salomlar va Abdullaxon II ning Akbarshoh nomiga yozilgan maktubi berib yuboriladi. Abulfazlning naqlicha, maktubda Abdullaxon II o'tmishda Hindiston bilan Buxoro o'rtasida do'stona aloqalar mavjud bo'lganligini bayon etib, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlikda bo'lishlikni taklif qilgan. Hind olimi R.Ch.Varmaning fikricha, Abdullaxon II o'z elchisi orqali Eron hududlarini Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasida bo'lish rejasini ilgari surgan va bu rejani har ikki tomon ham sir saqlagan.⁴⁰

⁴⁰ Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdullakhan, «Islamic culture», vol. XXI, № 4, October, 1937, p. 381

Haqiqatan ham Buxoro xoni Akbarshoh bilan Mirza Sulaymonning hamjihatlik bilan harakat qilib, Balxni Buxorodan tortib olishi xavfidan cho'chigan edi. Chunki bu vaqtda Balx hali Buxoro xonligiga to'la bo'ysundirilmagan edi. Shuning uchun Abdullaxon II Hindiston bilan yaxshi munosabatda bo'lishga intilgan. Lekin, Buxoro elchiligining zimmasiga ikkinchi bir vazifa - Akbarshoh davlatining Eronga nisbatan bo'lgan munosabatini aniqlash ham yuklatilgan edi.

Abdullaxon II ning Akbarga yozgan maktubi hozircha qo'limizda yo'qligi sababli, Buxoro xonining Eronga nisbatan aytgan fikrlari ochiq ma'lum bo'lmasa hamki, o'sha davrdagi siyosiy vaziyat Abdullaxon II ning Eronga nisbatan bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

Buxoro elchisidan avval Hindistonga ikki marta — hijriy 967 – 1559 -1560 va hijriy 972 – 1564 - 1565 yillari Erondan elchilar kelgan edi. Birinchi Eron elchiligiga shoh Tahmaspning (1524 - 1576) qarindoshi Sayyidbek binni Ma'sumbek boshchilik qilib, u Hindistonga Humoyun podshoning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirish va Akbarning taxtga o'tirganini tabriklash uchun yuborilgan edi. Elchi o'zi bilan birga arab, iroq va turk otlari, turli matolar hamda Eronning nozik buyumlaridan tuhfa va hadyalar keltiradi.

Eron davlati o'zining ikkinchi elchisi orqali Eron bilan Hindiston o'rtasida birlik va hamjihatlik o'rnatishga da'vat etgan.

Lekin bunga javoban Akbarshoh davlatidan Eronga uzoq vaqtgacha elchilik yuborilmaydi. Chunki bunga Qandahor masalasi to'sqinlik qilar edi.

O'zaro ichki kurashlarda Sherxon Surdan yengilgan Humoyun Hindistondan Eronga qochib borgan, Eron shohi Tahmasp Hindistonni qaytadan bosib olishda unga yordam ko'rsatgan edi. Buning evaziga Humoyun Qandahor o'lkasiga bo'lgan da'vodan voz kechgan va uni Eronga qaram deb bilgan edi. Demak, Akbarshoh Eron bilan do'stona munosabatlarni davom ettirsa, Qandahorni qo'ldan chiqarar edi. Akbarshoh esa Qandahordan voz kechishni, shu bilan birga, Eron bilan aloqaning keskinlashishini ham istamasdi; chunki Eron shoh Tahmasp davrida ancha kuchli davlatga aylangan edi. Shuning uchun Akbarshoh Eronga

nisbatan vaqtincha «indamaslik» siyosatini qo'llaydi. Ayni vaqtda bu siyosat Buxoro xonligiga nisbatan ham qo'llandi.

Abulfazlning aytishicha, bu davrda Akbarshoh davlati ichki urushlar, ya'ni imperiyaga bo'ysunmagan o'lkalarga qarshi kurash bilan band edi, shuning uchun tashqi siyosatga u qadar e'tibor bera olmagan.

Oltamish elchiligiga kelsak, bu haqda Akbarshoh davriga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan nemis olimi Noer Buxoro elchisiga Hindistonda yetarli darajada hurmat va ehtirom ko'rsatilmaganligini eslatib o'tadi. Hind tarixchisi Varma ham Akbarshoh saroyidagi mavjud qonun-qoidaga ko'ra yaqin o'rtada dushmanlik ruhida bo'lish mumkin bo'lgan tomonga iltifot ko'rsatilmas edi va shu sababli Buxoroga javob elchiligi yuborilmadi, deb uqtiradi. Lekin Noer va Varmaning Akbarshoh davlatining Buxoroga nisbatan tajovuzona siyosat tutish niyatida ekanligi haqidagi talqinlari noto'g'ri bo'lib, Abulfazlning yuqoridagi fikrlari haqiqatga yaqinroqdir. Chunki bu davrda Hindistonda zabt etilmagan ko'p o'lka va viloyatlar bor edi; ikkinchidan, Akbarshoh davlatining Buxoro xonligi bilan chegaradosh Qobul viloyatining hokimi (Akbarning o'gay ukasi) Muhammad Hakim Mirzo Akbarshoh hokimiyatini nomigagina tan olar edi.

Abulfazlning aytishicha, Abdullaxon II nomiga maktub yozilib, Buxoro elchisi orqali yuborilgan. Bu dalil ham Boburiylar imperiyasining Buxoro xonligiga nisbatan dushmanlik ruhida bo'lgan, degan mulohazani rad etadi.

Endi, Eronni bo'lib olish masalasiga kelganda - ehtimol, bu yerda Varmaning mulohazasi to'g'ridir. Chunki, Abdullaxon II o'z maktubida Buxoro xonligi bilan Turkiya o'rtasida do'stlik o'rnatilganligini xabar qiladi. Bu do'stlik, albatta, shia mazhabidagi «kofir» Eronliklarga qarshi kurash asosida tashkil topganini ta'kidlab, Abdullaxon II, ehtimol, Akbarshohni ham diniy asosda bir ittifoqqa birlashishga chaqiradi. Akbarshoh davlatining Eronga nisbatan tutgan siyosati hali ravshan bo'lmagani uchun bu taklifga ham ochiq javob berilmagan va bu masala qattiq sir tutilgan.

Navbatdagi ikkinchi elchilik ham Abdullaxon II tomonidan yuboriladi. Bu safar Abdurahim boshchiligidagi Buxoro elchiligi Hindistonga to'g'ridan-to'g'ri «Eronni bo'lish» taklifi bilan keladi (1577). Abdullaxon II Boburiylar imperiyasi bilan Buxoro xonligi bir xil sunniy mazhabdagi davlatlar ekan, shunga asosan, ular bir ittifoqda bo'lib Eronlik shialarga qarshi kurashishlari - Eronning Iroq, Xuroson va Fors viloyatlarini Buxoro va Hindiston o'rtasida bo'lib olishlari lozim, deb uqtiradi.

Abdurahim elchiligi Hindistonda hurmat va ehtirom bilan yaxshi qabul qilinadi va Buxoroga qaytishida u bilan birga Abdullaxon II saroyiga sunniy mazhabidagi Mirza Po'lat boshchiligida hind elchiligi yuboriladi. Hind elchiligi Movarounnahrda hijriy 986 - 1579 yili keladi. Bu vaqtda Samarqand hokimi Abulxayr Abdullaxon II ga bo'ysunishdan bosh tortib, unga qarshi kurashish uchun atrof viloyatlardan kuch to'plamoqda va shuning uchun Abdullaxon II shoshilinch ravishda Samarqand tomon otlangan edi. Abdullaxon II hind elchisini urush harakatlari davom etib turgan Zominda qabul qiladi va unga katta iltifot ko'rsatiladi. Abdullaxon II hind elchisini o'zi bilan birga olib yuradi va natijada, uning Hindistonga qaytishi kechiktiriladi. Bu bilan Buxoro xoni Samarqandda olib borilayotgan janglarni hind elchisiga ko'rsatib, unga o'z kuchini namoyish qilmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak.

Hind elchisi Akbarning Abdullaxon II nomiga yozilgan maktubini olib kelgan edi. Hofiz Tanish Buxoriyning aytishicha, maktubda birlik va hamjihatlik to'g'risida so'zlangan va (go'yoki) Akbarshoh Abdullaxon II amriga bo'ysunishga tayyor ekanligini bildirgan. Akbarshoh Abdullaxon II ga katta sovg'alar yuborgan. Akbarshohning tarixchisi Abulfazl Allomiy esa maktubda Akbarning «Eronni bo'lish»ga rozi bo'lmaganligini va Eron ham Muhammad payg'ambar xonadoniga mansub davlatlardan bo'lgani uchun unga yaxshi munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlanganini bayon qiladi.

Akbarshoh Eronni bo'lib olishga rozi emasligini bildirgan bo'lsa ham, Abdullaxon II ning Eronga yurish qilish niyatini qat'iy ravishda qoralamadi. Bu

bilan birinchidan, Akbarshoh Buxoro xonligi bilan aloqani bo'shashtirishni istamagan. Chunki bu vaqtda Buxoro xoni Balxni butkul bo'ysundirib, Badaxshonga ham xavf solmoqda edi. Boburiylar imperiyasiga, garchi Gujarot (1573), Bangol (1574—1576) kabi viloyatlar va Rajputandagi bir qancha rojaliklar qo'shib olingan bo'lsa ham, hali Tata, Mekron, Siston va boshqa ko'pgina o'lkalar Akbarshoh hokimiyatiga bo'ysunmagan bo'lib, Qobulga ham ishonch kam edi.⁴¹

Ikkinchidan, Eron shohi Tahmaspning vafotidan so'ng (1576) Eronda ichki feodal tartibsizliklar kuchayib ketadi. Natijada Abdullaxon II uchun Xurosonni, Akbarshoh uchun Qandahorni Erondan tortib olishga qulay sharoit vujudga kelgan edi. Lekin Akbarshoh ichki kurashlar bilan band bo'lib, Eronga qarshi kurashga tayyor emas edi. Shuning uchun Akbarshoh Abdullaxonning Eronga nisbatan tajovuzkor harakatini kuchsizlantirishga urinsa ham (chunki Akbarshoh Eron yerlarining Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishini istamas edi, albatta), uning Eronga qarshi urush qilishiga qat'iy qarshi chiqmaydi. Elchilik vazifasining sunniy mazhabi tarafdori Mirza Po'lat zimmasiga yuklatilishi ham bejiz emas edi.

Mirza Po'lat elchiligiga ikkinchi bir muhim vazifa — Buxoro xonining Badaxshonga bo'lgan munosabatini aniqlash va iloji bo'lsa, Badaxshonga nisbatan tug'ilgan xavfning oldini olish vazifasi ham topshirilgan edi.

Badaxshon masalasiga keladigan bo'lsak, Saltanat Akbarshoh qo'liga o'tganda Badaxshonda Mirza Sulaymon hokim edi. Mirza Sulaymon Akbarshoh davlatini kuchsiz fahmlab hijriy 974 - 1567 yili Qobulga hujum qiladi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. So'ng to'satdan Balxga hujum qiladi. Balx hokimi Pirmuhammad Buxoro xonligining yordami bilan Mirza Sulaymonni Balxdan quvib chiqaradi, bu kurashda Mirza Sulaymonning o'g'li Ibrohim Mirza halok bo'ladi⁴².

Abdullaxon II ning askarlari Hisorni qamal qilgan vaqtda (982 - 1574) hisorliklarning iltimosiga ko'ra, Mirza Sulaymon ularga yordamga keladi. Ammo

⁴¹ Азимджанова С, Государство Бабура в Кабуле и в Индии, М., 1977.

⁴² Ҳофиз Таниш Бухорий, Абдуллонома, Т., Шарқ, 2000. Б.207

shu vaqtda Badaxshonda Mirza Sulaymonga qarshi uning amaldorlaridan biri - Muhammadquli isyon ko'taradi. Marhum Ibrohim Mirzaning beva xotini Badaxshon hokimiyatini o'g'li Shohrux Mirza qo'lga olib berish maqsadida bu qo'zg'olonga qo'shiladi. Jangda Shohrux Mirza g'olib chiqadi, Mirza Sulaymon esa yordam so'rab avval Qobulga, so'ng Akbarshoh huzuriga boradi⁴³.

Abdullaxon II Hisorni qo'lga kiritib (1578) Badaxshonni zabt etishga tayyorgarlik ko'radi. Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, bundan xabar topgan Shohrux Mirza Abdullaxon II saroyiga elchi yuborib, Buxoro xoniga bo'ysunganini ma'lum qiladi. Shundan so'ng Abdullaxon II Badaxshon tomon yuborilgan askarlarga qaytish uchun buyruq bergan⁴⁴.

Akbar o'z huzuriga kelgan Mirza Sulaymonni yaxshi qabul qilib, unga Badaxshonni qaytarib berishni va'da qiladi. Ko'p o'tmay, Akbarshoh saroyiga Mirza Shohruxning vakillari ham keladi. Shunisi qiziqki, Akbarshoh Shohrux Mirza vakillarini ham tantanali ravishda qabul qilib, Shohrux Mirzani Badaxshon hokimi deb taniydi va unga yordam berajagini aytadi⁴⁵. Akbarshoh shunday qilishga majbur edi. Chunki Badaxshon Shohrux Mirza qo'lida bo'lib, agar Akbarshoh uni qo'llab-quvvatlamasa, u Abdullaxon II tomoniga o'tib ketishi mumkin edi. Bu voqeadan so'ng aldanganini sezgan Mirza Sulaymon Makka tomon yo'l oladi va u yerda besh yil turib, qaytishda Eron shohi Ismoil II huzurida bo'ladi. Eron shohi Badaxshonni qaytarib olishda Mirza Sulaymonga yordam qilishga va'da beradi. Ammo tez orada, ya'ni Mirza Sulaymon Badaxshonga yetib kelganga qadar Ismoil II vafot etadi. Endi Mirza Sulaymon faqat Abdullaxondan yordam olishi mumkin edi. Hind tarixchisi R. Ch. Varma yozadiki, bunday ahvolning oldini olish uchun Shohrux Mirza bobosi bilan yarashgan va ular o'rtasida shartnoma tuzilgan⁴⁶. Hofiz Tanishning bergan ma'lumotiga ko'ra, Shohrux Mirza va Mirza Sulaymon o'rtasida to'qnashuv bo'lib, bunda Qobul

⁴³ Р. Ч. Варма, Акбар ва Абдуллахон, 382-бет.

⁴⁴ Хофиз Таниш Бухорий, Абдулланом, Б.207-208

⁴⁵ Р. Ч. Варма, Акбар ва Абдуллахон, 382-бет.

⁴⁶ Р. Ч. Варма, Акбар ва Абдуллахон, 383-бет.

hokimi Muhammad Mirza Hakim (Mirza Sulaymonning kuyovi) yordami bilan Mirza Sulaymon g'olib chiqqan. So'ngra har ikki hokim — Mirza Hakim va Mirza Sulaymonlar Abdullaxon II huzuriga elchi yuborganlar. Mirza Sulaymon elchi qilib Mehr Ali Ko'kaldoshni va Mirza Hakim esa Mavlono Nuriddin Muhammad qozini yuborganlar. Elchilar sovg'a-salomlar bilan birga maktub ham keltirganlar va bu maktublarda, Hofiz Tanishning yozishicha, har ikki hokim o'zlarining Buxoro xoniga bo'ysunganliklarini bildirganlar. Elchilarga Abdullaxon II hurmat ko'rsatib, ularni «faxriy to'n»lar bilan mukofotlagan va Mirza Sulaymon nomiga yozilgan nomada uni Buxoroga kelishga taklif ham qilgan.⁴⁷

Hijriy 989 – 1581 - yili ham Mirza Sulaymon Abdullaxon II ga sovg'a-salomlar hamda do'stlik va tobelik haqidagi maktubini yuborgan.

«Mirotul olam» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, 992 – 1584 - yili Shohrux Mirza o'z bobosidan mag'lubiyatga uchrab, Akbarshoh saroyiga keladi, Mirza Sulaymon bu kurashda Abdullaxon II dan yordam olgan⁴⁸.

Keltirilgan ma'lumotlar shundan darak beradiki, Badaxshonda ikki hokimiyatchilik hukm surgan va ular o'rtasida to'xtovsiz kurash davom etgan. Bu kurashda Shohrux Mirza Akbardan yordam olgan, Mirza Sulaymon esa Abdullaxon II ga tayangan.

Ichki feodal kurashlarining kuchayishi Abdullaxon II tomonidan Badaxshonni bosib olish uchun zamin hozirlagan.

1584-yili Abdullaxon II Balx hokimligini o'g'li Abdulmo'minga topshirish bahonasida shu shaharga keladi. Abdullaxon II ning rejasini sezgan Shohrux Mirza Balxga o'z elchisi Shoh Hasanni yuboradi. Lekin Abdullaxon II elchini qabul qilmaydi va elchiga kinoya bilan tez kunda Badaxshonda so'zlashuvini aytadi. Shundan so'ng, ko'p vaqt o'tmay Badaxshon Buxoro xonligiga qo'shib olinadi. Bobo va nevaralar oldinma-keyin Akbarshoh huzuriga qarab yo'l oladilar.

⁴⁷ Хофиз Таниш Бухорий, Абдуллонома, Б.208

⁴⁸ Бахтовархон, Миротул олам, Б.187

Badaxshondagi janglarda Shohrux Mirzaning o'g'li Muhammad Zamon Mirza buxoroliklarga asir tushadi.

Badaxshonning zabt qilinishi Qobul hokimi Mirza Hakimni ham cho'chitib qo'yadi va u Akbardan yordam so'rab, o'z vakilini uning huzuriga yuboradi. Lekin, oradan ko'p vaqt o'tmay, Mirza Hakim vafot etadi (1585), shundan so'ng Qobul, Zobulistonda tartibsizliklar kuchayadi. Bu voqealarda Abdullaxon II ham qisman ishtirok etgan edi. Feridun nomli shaxs marhum Mirza Hakimning o'g'illari Afrosiyob Mirza (14 yashar) va Kaykabod (11 yashar)larni o'zbeklar tomoniga qochib ketishga da'vat qiladi. Agar Feridunning bu rejasi amalga oshsa, Abulfazl Allomiyning yozishicha, Abdullaxon II Qobulga ham da'vogar bo'lishi mumkin edi⁴⁹.

Akbarshoh Qobuldagi tartibsizliklarning oldini olish uchun jadal harakat qilib, lashkarboshi Man Singxga tezlik bilan Qobulni ishg'ol qilishga farmon beradi va Qobul qaytadan imperiyaga qo'shib olinadi.

Bu davrda Akbarshoh davlatini qattiq tashvishga solgan voqea - tarixda «ravshaniylar xarakati» nomi bilan shuhrat topgan afg'on qabilalarining ozodlik uchun olib borayotgan qo'zg'olonlari bo'lgan edi. Afg'on qabilalariga qarshi kurashni yaxshi uyushtirish maqsadida Akbarshoh o'z saroy ahllari bilan birga 1586-yil 4-yanvarda Attekka (Atokka) keladi.

Ravshaniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda Svad tomon yuborilgan Zaynxon boshliq lashkarlar va Bujirda harakat qilayotgan Bir Bal qo'shinlari tor-mor keltiriladi⁵⁰. Jangda Bir Bal halok bo'ladi. Shu vaqtda Buxorodan elchilar kelayotganligi haqida xabar keladi. elchilar xafsizligini ta'minlash uchun Farid Baxshi boshchiligida ahadiy (shoh huzuridagi va uning maxsus nazorati ostidagi saralangan harbiy otryad) harbiy qismlari safarbar qilinadi va Man Singx ham o'z qo'shini bilan Qobuldan elchilar himoyasiga yetib keladi.

⁴⁹ Абулфазл Алломий, Тарихи Акбаршоҳий, Т., 1997, “Шарқ”. 6.26

⁵⁰ Абулфазл Алломий, Тарихи Акбаршоҳий, 6.28

Boburiylar imperiyasining qo'shinlari Qobulni ishg'ol qilgach, Feridun qo'lga tushadi va Man Singx Feridunni Akbarshoh huzuriga keltiradi. Taftish natijasida Feridunning sotqinligi aniqlangach, «gunohlarini yuvib kelishi uchun» u Makkaga surgun qilinadi.

Buxoro elchiligiga Abdullaxon II saroyidagi e'tiborli kishilardan Mir Quraysh boshchilik qiladi. Elchilar o'zlari bilan zotli ot va tuyalar, ov qushlari, a'lo navli mo'yna va boshqa nafis matolardan iborat «tuhfa va hadyalar» olib keladilar hamda Jayyib ismli kabutarboz orqali esa Movarounnahrning turli nav kabutarlaridan jo'natilgan edi.

Abulfazlning aytishicha, Xaybar yo'lagining kengaytirilishi, Hind daryosiga ko'priklar solinishi, Man Singxning Qobuldagi g'alabasi va Akbarning o'z qarorgohini Attekka ko'chirgani Abdullaxon II ni cho'chitgan va Abdullaxon II Akbarshoh Balxga hujum qilishi mumkin, degan xayolda bu xavfning oldini olish uchun Hindistonga elchilar yuborgan.

R. Ch. Varmaning fikricha, Akbarshoh hokimiyatining Qobulda mustahkam o'rnatilishi Abdullaxon II ni Eronga nisbatan tutgan siyosatida Akbarshoh xohishi bilan hisoblashishga majbur qilgan⁵¹.

«Abdullanoma»da Abdullaxon II ning Akbarshoh nomiga yozgan va Mir Quraysh orqali yuborgan maktubining qisqacha mazmuni keltiriladi. Maktubda Abdullaxon II «Haj» (Makka va Madina)ga boradigan yo'lda joylashgan Badaxshon o'lkasi kofir qizilboshlar qo'lida ekanligi va shu tufayli bu o'lkada doimiy g'alayonlar bo'layotganligi haqida gapirib, kelgusi yil bahorda katta qo'shin bilan bu viloyatni «kofirlar» qo'lidan tortib olish niyatida ekanini bayon qiladi. Shuningdek, Abdullaxon II Akbarga «kofir»larga hech qanday yordam ko'rsatmaslikni va agar «kofir»lar o'zbeklar bilan bo'lgan kurashda tor-mor keltirilib, uning huzuriga borsalar, ularga boshpana berishgina emas, balki Hindistondan haydab chiqarishlari lozim deb, uqtiradi⁵².

⁵¹ Р. Ч. Варма, Акбар ва Абдуллахон, 384—385-бетлар

⁵² Ҳофиз Таниш Бухорий, Абдулланом, б.157

Akbarshoh Buxoro elchilarini uzoq vaqt qabul qilmaydi. «Tarixi Akbarshohiy» asarining ma'lumotiga ko'ra, bunga Akbarning sevimli lashkarboshisi Bir Balning afg'onlar bilan bo'lgan kurashda o'ldirilganligi va shu munosabat bilan shohning uzoq vaqt ta'ziya tutishi sabab bo'lgan. Aslida Akbarning o'zbek elchilarini qabul qilmaslik sababi shunda ediki, bu vaqtda Kashmir hokimi Yusufxonning o'g'li Yoqub isyon ko'targan va uni bostirish uchun Akbarshoh Kashmirda katta qo'shin yuborgan edi. Buxoro elchiligiga o'zining jangovar kuchlarini namoyish qilish maqsadida Akbarshoh ataylab qabul marosimini kechiktiradi.

Nihoyat, Akbarshoh elchilarni o'z saltanatining 32 yillik tantanasi kuni - 25 rabbial avval 994/1586-yilining 14-martida qabul qiladi.

Mir Quraysh elchiligi qabul qilingandan bir oy o'tgach, Akbarshoh Attokdan (bu yerda shoh 3 oydan ko'proq turadi) Lohurga keladi. Abulfazlning yozishiga ko'ra, Akbarshoh o'z qarorgohini o'zbek elchisining iltimosi bilan Buxoro chegarasidan uzoqda joylashgan Lohurga ko'chirgan. Ammo shoh yana Panjob viloyatida qolgan edi. Sababi shuki, agar Turon hokimi do'stlikka xiyonat qilgudek bo'lsa, zafarli qo'shin tezda Lohurdan Turon tomon harakat qilishi kerak edi⁵³.

Abulfazlning mulohazalariga tanqidiy qaramoq kerak, chunki u ko'p masalalarni Akbarni ulug'lash yo'lida noto'g'ri talqin etgan.

Bu vaqtda Akbarning Movarounnahrda hujum qilishi uchun asos ham, imkoniyat ham yo'q edi va u o'z qarorgohini o'zbek elchisining iltimosi bilan Attokdan Lohurga ko'chirmagan, albatta. Zaynixon va Bir Bal qo'shinlarini tor-mor qilgan ravshaniylar Attokka, ya'ni Akbarshoh qarorgohiga xavf solmoqda edilar. Shunga ko'ra, Attok mudofaasini mashhur Todar Malga topshirilishi ham bejiz emas edi.

Shunday qilib, Akbarshoh vaziyat taqozosi bilan Lohurga ketadi va u yerda afg'onlar va belujlarga qarshi hamda Tata va Seiston viloyatlarini imperiyaga qo'shib olish uchun bo'lgan kurashga rahbarlik qiladi.

Badaxshonni bosib olgan Abdullaxon II endi Hirotga yurish qilish niyatida edi. Ammo uning rejasini qozoqlar qo'zg'oloni buzib yuboradi. Qozoqlar qo'zg'olonini tezda bostirish maqsadida Termizda Abdullaxon II va jo'ybariy shayxlar boshlig'i Xo'ja Kalon (Xo'ja Islomning o'g'li) boshchiligida kengash o'tkaziladi⁵⁴. Abdullaxon II Eron tomon hujum qilib, uning yerlarining bir qismini bosib olishga oshiqar edi, chunki Erondagi siyosiy vaziyat Abdullaxon II maqsadlarining amalga oshishi uchun qulaylik tug'dirar edi. Ammo, Badaxshonning bosib olinishi Buxoroning Akbarshoh davlati bilan bo'lgan munosabatlarining keskinlashishiga olib kelishi mumkin edi. Demak, Eronga yurish qilishdan avval Akbarshoh davlatining Buxoroga bo'lgan munosabatini aniqlash lozim edi. Shuning uchun qozoqlar qo'zg'oloni bostirilishi bilanoq Abdullaxon II Samarqanddan Hindistonga elchi jo'natadi va Buxoroga qaytadi. Mir Quraysh elchiligi oldida mas'uliyatli vazifalar turar edi. Bu elchilik Badaxshonning Buxoroga qo'shib olinishi sabablarini tushuntirishi, sodir bo'lgan voqeaga Akbarshoh davlatini ko'ndirgan holda, Buxoro — Hindiston munosabatlarini yaxshilashga va Buxoro xonligining Eronga nisbatan harakatlarida Hindistonning betaraf bo'lishiga erishishi kerak edi. R.Ch.Varmaning yozishicha, Mir Quraysh elchiligi «Eronni bo'lish» masalasi yuzasidan ham muzokaralar olib borgan va bu haqda tomonlar umumiy bir fikrga kelgan⁵⁵. R. Ch. Varma o'z mulohazasining isboti sifatida quyidagi uchta ma'lumotni keltiradi:

a) Akbarning Badaxshonning o'zbeklar tomonidan bosib olinganligiga sukut alomati bilan rozi bo'lgani;

b) Abdulmo'minning Turkiya sultoni Murod III ga maktubi; maktubda "Hindiston podshohi ham bu oliy dargohga (Buxoroga va Balxga - I. N.) o'zining eng buyuk kishilaridan biri Hakim Humomni tortiqlar, hadyalar va do'stona maktub bilan yubordi va ittifoq tuzdi" deb ko'rsatiladi;

⁵³ Абулфазл Алломий, Тарихи Акбаршоҳий, Б.279

⁵⁴ Хофиз Таниш Бухорий, Абдулланом, Б.178

⁵⁵ Р. Ч. Варма, Акбар ва Абдуллахон, 385—386-бетлар.

d) Imomqulixonning (1611-1680) Jahongirshohga (1605-1627) yozgan maktubi, maktubda marhum Abdullaxon va Akbar zamonida Buxoro bilan Hindiston o'rtasida Eronga qarshi ittifoq tuzilgan, deb aytiladi.

Bu yerda shuni qayd qilib o'tish lozimki, Mir Quraysh elchiligi bilan birga Buxorodan Akbarshoh saroyiga Nazarbiy elchiligi ham yuboriladi.

Mir Quraysh Boburiylar imperiyasi bilan muzokaralar olib borish huquqiga ega bo'lgan Buxoro davlatining rasmiy elchisi bo'lsa, Nazarbiy otasi Iskandarxon vafotidan so'ng (1583) xonlik taxtiga o'tirgan Abdullaxon II ning saltanat egasi bo'lgani haqida xabar qiluvchi va uning nomidan Akbarni tabriklovchi maxsus vakili edi.

«Tarixi Akbarshohiy»dagi ma'lumotga ko'ra, Akbarshoh Nazarbiyni (va uning o'g'illari — Shodibiy, Boqibiy va Qurbonbiylarni) Mir Qurayshdan ancha avval qabul qilgan va ularga iltifotlar ko'rsatgan.

Akbarshoh nomiga bitilib, Mir Quraysh elchiligi orqali yuborilgan nomaning qisqacha mazmuni «Abdullanoma»da hikoya qilingani haqida yuqorida so'zlagan edik. Bu maktubning asl nusxasini topa olmaganligimiz sababli, bu haqda mufassal fikr yuritilmaymiz. Ammo, tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 289-raqamli qo'lyozmadagi maktublarning biri Abdullaxon II ning Akbarshoh nomiga bitilgan va Nazarbiy orqali berib yuborilgan maktubi bo'lib chiqdi. Bu hujjat «Hazrat xalafatpanoh (Abdullaxon II) ning Muhammad Nazarbiy dodxoh elchiligi yuzasidan Hindiston podshohiga yozgan maktubi» deb nomlangan. Maktub Buxoro xonligining Akbarshoh davlatiga nisbatan tutgan siyosatini va Mir Quraysh elchiligining maqsad va vazifalarini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Chunki fikrimizcha, Mir Quraysh orqali ham shu xil mazmunda bitilgan maktub berib yuborilgan bo'lishi ehtimol.

Nazarbiy keltirgan maktubda Buxoro xoni Akbarshoh shaxsiyatini uzundan-uzoq ta'rif qilgach, Buxoro «xalqi oldida orom va osoyish eshigi kushoyish» bo'lgani, «to'qson ikki o'zbekiya firqasining bir qancha ming el va ulusi... itoat va

farmonbardorlik halqasini jon quloqlariga osib tamoman tobe» bo'lganliklari, qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz qabilalari yordami bilan qalmoqlarning bo'ysundirilgani haqida, Buxoro va Hindistonda hokimlik qilgan sobiq hoqonlar o'rtasidagi birlik va hamjihatlik to'g'risida bayon qilinib, so'ng Eron masalasiga o'tiladi. Maktubda ko'rsatilishicha, bu voqealardan avval hajga boruvchilarga hujum qilib, ularni o'ldirgan va mollarini talon-toroj qilayotgan shia-Eronliklarga Nazarbiy dodxoh boshchiligida elchi yuborilgan, ularga nasihatimiz so'zlar aytilgan, lekin Eronliklar bu nasihatlariga ham quloq solmay, o'z bosqinchilik ishlarini davom ettiraverganlar. Shundan so'ng Buxoro xoni (Abdullaxon II) Xorazm viloyatining volisiga, Mashhad, Astrobod va Nishopurga borib, ketma-ket hujum va talon-torojlar qilib, u tabiatan yomon xulqlilar fig'onini (ko'kka) chiqarsin» deb, ham mang'itiya va turkmanlarga Eronliklarga qarshi Marv tomondan hujum qilishga buyruq bergan.

So'ng maktubda yozilishicha, saroy ahllaridan bir qanchasi Abdullaxon II ga Boburiylar imperiyasiga elchi yuborishni maslahat berganlar. Bundan kuzatilgan maqsad shuki, boburiylar imperatori ham «porloq shariatni mustahkamlash va baxtiyor millatning kuchayishi uchun barcha tog'dek basavlat mujohidlari va jangovar, muzaffar muborizlari bilan u tarafdin (Hindistondan) yo'ldan ozgan toifa ustiga otlansalar, toki shon-shuhrat konining har ikki gavhari (Abdullaxon II va Akbarshoh) o'zaro bir-birlariga yordam va madad berib, u toifani oyog'idan qulatsalar va ular diyorini (shunday) islomobod qilsalarki... «Nazarbiy elchiligi shu maqsad yuzasidan hamda osmondek baland taxtga baxtiyorlik bilan o'tirishlarini tabriklash uchun...» tayin etilgan. Maktub oxirida Hindistondan ham elchilar yuborilishi va shu asosda do'stlikni mustahkamlash zarurligi uqtirib o'tiladi.⁵⁶

Demak, maktub mazmuniga ko'ra, Buxoro xoni Akbarshohga Eronga qarshi kurashda bir ittifoqda bo'lib harakat qilishini taklif etgan.

Mir Quraysh elchiligi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ravishda bajarib, 1586-yil 2-dekabrda (12-ramazon 994-yili) Akbarshoh davlatining

Buxoroga tayin qilgan elchilari bilan birgalikda yo'lga chiqadi. Hind elchilariga Hakim Humom boshchilik qilar edi. Hakim Humom Boburiylar imperiyasining Buxoro xonligiga yuborgan rasmiy elchisi va Mir Sadr Jahon Mufti esa Abdullaxon II ning otasi Iskandarxonning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirish uchun Akbar tomonidan yuborilgan, uning shaxsiy vakili edi. Hind elchilari o'zlari bilan birga Akbarning Abdullaxon II nomiga bitilgan maktubini keltiradilar. Elchi Mir Qurayshga berilgan turli nafis mollar va buyumlardan tashqari, hind shohi Abdullaxon II va uning o'g'li Abdulmo'min sultonlar uchun xazinachi Muhammad Ali orqali maxsus sovg'a va hadyalar berib yuboradi. Bu «sovg'a - hadyalar»ning qimmatini bir yarim lakni yoki uch ming yetti yuz iroq tumanini tashkil qilgan.

Abdullaxon II Mir Quraysh elchiligidan qaytayotganini va u bilan birga hind elchilari kelayotgani haqidagi xushxabarni eshitgach, darhol Qobul hokimiga odamlar yuborib undan hind elchilarini uzoq tutib turmaslikni iltimos qiladi va maxsus kishi orqali Mir Qurayshning tez yetib kelishi tayinlanadi.

Demak, Abdullaxon II Akbarshoh davlatining Buxoroga nisbatan bo'lgan munosabatini bilishni oshiqib kutgan, chunki Hindistonning Buxoro bilan yaxshi munosabatda bo'lib qolishi ayni holda Akbarshoh davlatining Abdullaxon II ning Eronga nisbatan tutgan siyosatiga rozi ekanligidan darak berardi.

1587-yilning may oyida Chahorbog'da (Andxoy) Hirot masalasi bo'yicha Abdullaxon II katta kengash o'tkazadi; Shahrisabz, Samarqand, Balx, Dehnov, Hisor va boshqa viloyatlardan minglab qo'shin keltiriladi. Hirot hokimi Aliqulixonning Buxoroga vassal bo'lish haqidagi iltimosi ham rad etiladi. Oradan ko'p o'tmay, Hirot qal'asi qo'lga kiritiladi va Abdullaxon II o'z qarorgohini Sulton Husayn Mirza madrasasiga ko'chiradi.

1587-yilning avgustida Mir Quraysh Abdullaxon II huzuriga keladi va u hind elchilari ot va tuyalar yetishmasligi sababli orqada qolib ketdilar, deb xabar qiladi; Abdullaxon darhol hind elchilarini ot va tuyalar bilan ta'minlashga buyruq beradi.

⁵⁶ Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

Mir Qurayshni esa hind elchilariga hamroh bo'lib kelish uchun Andxoyga qaytarib yuboradi.

Elchilar Hirotga yaqinlashganda ularni Qozi Hoji Muhammad, Mirza Haydar Muhammad Munshi va ko'p a'yon hamda shig'ovullar tantanali ravishda kutib oladilar. Ertasi kuni Sulton Husayn Mirza madrasasida katta bazm uyushtiriladi. Hofiz Tanish Buxoriy bu haqda shunday hikoya qiladi: «Abdullaxon II uchun taxt o'rnatilib, uning atrofiga amallariga qarab noiblar, amir va lashkarboshilar joylashdilar. Tillado'z to'nlar kiygan va marvaridlar qadalib ziynatlangan xanjarlar taqqan maxsus kishilar xizmatda edilar. Saroy hojiblarining quloqlari xon farmoyishiga qaratilgan edi. Majlis boshlanishi bilan Hakim Humom, Sadr Jahon va elchilikning boshqa kishilari bazmga taklif etiladilar, hind elchilariga ularning shohlari elchilarni qay tartibda qabul qilsa, shu qonun-qoidaga asosan murojaat qilishlariga ruxsat berildi. Hind elchisi Hakim Humom hayajonga to'lgan holda 27 marotaba salom berdi. Salom shundan iborat ediki, qo'l kaftlarini yerga tekkizib, so'ng balandga ko'taradi va oldinga qadam tashlab boshini quyi soladi. Oliy joy (taxt) ga yaqinlashganda elchi tizzasida turib xon qo'lini o'padi va o'zi bilan keltirgan nomani uzatadi. Nomaning mazmuni shundan iborat edi-ki, deb ko'rsatadi Hofiz Tanish Buxoriy, - muhabbat va do'stlik haqida so'zlanib, umumiy dushman (Eron)dan saqlanish uchun birgalikda harakat qilish taklif etiladi».

So'ng elchilar Qulbobo (Ko'kaldosh) vositachiligida Hindistondan keltirilgan sovg'a va hadyalarni birma-bir ko'rsatadilar. Abdullaxon II bu sovg'a va hadyalarni shu yerning o'zida o'z a'yonlari va amaldorlariga ulashib beradi.

Ertasi kun elchilar Sulton Abdulmo'min huzurida bo'lib, unga ham hadya — tortiqlar beradilar. Shundan keyin, Abdullaxonning farmoniga ko'ra, hind elchilari har kuni amaldor - a'yonlar bazmlariga taklif etiladilar, ularga sovg'a-salomlar in'om qiladilar. Nihoyat, zulqa'da (noyabr) oyining oxirlarida hind elchilari (Hirot butunlay zabt etilganga qadar) Mir Quraysh hamrohligida Buxoroga yuboriladi va

bosh qozi Nuriddin Muhammadga elchilarni yaxshi joylashtirish va ular haqida g'amxo'rlik qilish topshiriladi.⁵⁷

«Makotiboti Allomiy» («Allomiy maktublari»)da Hakim Humom elchiligining yuborilishiga oid Akbarshoh nomidan Abdullaxonga bitilgan ikkita maktub keltirilgan. Maktublar mazmuni, asosan, bir xil bo'lib, ular yozilishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Maktublarning qisqacha mazmuni quyidagicha: Abdullaxon II shaxsiyatining maqtovidan so'ng, Akbarshoh o'zining 30 yildan ortiq Hindistonda shoh bo'lib turgani va bu vaqt ichida ko'pdan-ko'p o'lka va viloyatlarni zabt etganini aytadi. So'ng, uzoq vaqt Movarounnahrda elchilar kelmaganini eslatib o'tgach, Akbarni dinsizlikda ayblagan va bu haqda Abdullaxon II ga turli-tuman bo'hton so'zlar yetkazgan shaxslarni qoralaydi. (Akbarshoh xudo va payg'ambarlar ham bo'htondan holi emasliklarini uqtirib, o'zini haqiqiy musulmon qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Maktub mazmuniga ko'ra, Akbarshoh farang (portugaliyalik)larga qarshi kurashga otlangan vaqtda Eronda ahvol keskinlashib qolganligi to'g'risida xabar kelgan. Eron shohiga qarshi amir va o'lka hokimlari bosh ko'targanlar. Erondagi bu ichki ziddiyatlardan Rum (Turkiya) sultoni foydalanib, Eronning bir qancha joylarini bosib olgan. Maktubda aytilishicha, Eron shohi Akbardan yordam so'rab Aliquli Hamadoniyni Hindistonga yuborgan. Shu sababli Akbarshoh o'g'illaridan biri (Shahzoda Murod)ni katt qo'shin bilan Eron Iroqi tomon jo'natish, o'zi esa Xuroson tomon yo'l olmoqchi bo'lgani, agar Abdullaxon II ham Xurosonga yetib kelsa, Akbarshoh Abdullaxon II bilan uchrashib ko'p masalalarni, shu jumladan, Eronga yordam ko'rsatish masalasini ham hal qilib olishlari mumkinligi maktubda qayd qilinadi. Shuningdek, Akbarshoh Abdullaxon II dan Shohrux Mirzaning gunohidan o'tishni so'raydi. Rasmiy elchi sifatida Hakim Humom va Iskandarxon vafoti yuzasidan ta'ziya bildirish uchun Sadr Jahon yuborildi, deb yoziladi. Hakim Humom Akbarshoh

⁵⁷ Р у с т а м о в У. А., К истории изучения экономических, политических и культурных связей между народами Индии и Средней Азии. Труды Института Востоковедения АН УзССР, вып. 4, Ташкент, 1956.

davlatining eng ishonchli kishilaridan ekanligi alohida ta'kidlangan; tuhfa va hadyalar Muhammad Ali orqali jo'natildi, deb maktubga xotima berilgan.

Maktublarning bir-biridan farqi faqat shundaki, birinchisida Xurosonda uchrashib, Eron masalasi muhokama qilinganda, bu masala yuzasidan har ikki tomonning fikri nazarga olinishi kerak bo'lsa, ikkinchisida Eronga yordam ko'rsatish Abdullaxon II ning xohishi va uning ko'rsatmasiga muvofiq amalga oshishi mumkinligi ta'kidlangan. Demak, ikkinchi maktub birinchisiga nisbatan masalaning qo'yilishi nuqtai nazaridan kelishuvchilik ruhida bitilgan.

I.Nizomiddinov Hakim Humom elchiligi va Akbarning Abdullaxon II nomiga yozilgan maktubi to'g'risida fikr yuritib, Akbarshoh Abdullaxon II ga o'zini qudratli shoh qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan, deydi. Shia mazhabidagi Hakim Humomni elchilikka boshliq qilib tayinlash bilan, Akbarshoh Abdullaxon II ustidan kulgan. Akbarning maktubi haqiqatan ham ko'p ma'noli bo'lib, undagi qarama-qarshi fikrlar Boburiylar imperiyasidagi ichki ziddiyatlar va Abdullaxon II siyosatining tajovuzkor ruhidan kelib chiqadi.

Bu davrda Akbarshoh davlati kuchli, markazlashgan bo'lib, ancha kengaygan edi. Bu esa Abdullaxon II ni cho'chitardi. Lekin ulkan imperiyadagi ichki ziddiyatlarning kuchayishi va shu bilan birga mamlakat janubidagi yangi viloyatlarni bo'ysundirish kabi muhim vazifalarning mavjudligi (Badaxshon qo'ldan ketsa hamki) imperiyaning Buxoro xonligiga nisbatan siyosatini o'zgartirmadi; garchi Akbarshoh Xurosonga borishi haqida so'zlab, Abdullaxon II ni qo'rqitmoqchi bo'lsa ham, Abdullaxon II bilan uchrashishni taklif qilib, Eron masalasini hamjihatlikda hal qilish kerakligini aytib, mamlakatlar o'rtasida ittifoq mavjud va shunday bo'lib qolajak, deb ishontirishga urindi. Akbarshoh o'z xatida Abdullaxonning Eronga qarshi tajovuzkor siyosatini qattiq qoralamaydi. Chunki Eronning zaiflashishi Akbarshoh davlati uchun ham foydali edi. Lekin Eronning zaiflashishi hisobiga Buxoro xonligining kuchayishi Akbarga yoqmas edi. Shunga ko'ra, Akbarshoh o'z maktubida, garchi Eronliklar sunnat va jamoat yo'lidan toygan bo'lsalar ham, ular payg'ambar xonadonidan ekanliklarini eslatib, ularga

bunday og'ir vaqtda yordam qo'lini cho'zish har ikki podsholikning vazifasidir, deb uqtiradi. Umuman, maktub mazmuni Abdullaxon II ning siyosatiga, ya'ni Xurosonni zabt etishga zid emas edi; Abdullaxon II Hirotni butunlay bosib olishga astoydil kirishadi va to'qqiz oy qamaldan so'ng Hirot zabt etiladi va Hirot hokimligi Amir Qulbobo (Ko'kaldosh)ga topshiriladi; Abdulmo'min boshliq qo'shinlar esa Mashhad ustiga yurishga tayyorlanadilar.

Kashmir bo'ysundirilgandan so'ng, Akbarshoh o'z a'yonlari bilan bu o'lkaga sayohat qiladi va 12-zulqa'da (13-sentyabr') 997 (1589) yili Qobulga keladi. Bu yerda Buxorodan qaytayotgan Hakim Humom elchiligini qabul qiladi. Hakim Humom Akbarga Hirot va Xurosonni tasarruf etgani uchun Abdullaxon II undan minnatdor ekanini hamda Akbarshoh huzuriga yaqin orada Sadr Jahon bilan birgalikda Buxoro elchisi Ahmad Ali Otaliq kelajagini bildiradi. Ko'p vaqt o'tmay, Ahmad Ali Otaliq ham Qobulga yetib keladi va Akbarshoh iltifotiga sazovor bo'ladi. So'ng Akbarshoh Qobul hokimligini Qosimxonga topshirib, Lohurga qaytib keladi.⁵⁸

Hindiston – Buxoro munosabatlari haqida fikr yuritganda Muhammad Zamon nomi bilan bog'langan voqeani ham eslab o'tmoq zarur. Muhammad Zamon Shohrux Mirzaning o'g'illaridan bo'lib, u Badaxshon uchun bo'lgan kurashda o'zbeklar qo'lga asir tushgan va Abulfazlning yozishicha, 12 yoshida qamoqda vafot etgan.

Oradan ko'p yil o'tgach, Qorateginda Shohrux Mirzaning farzandi Muhammad Zamon nomi bilan bir shaxs paydo bo'ladi. Uning atrofiga turli qishloqlardan qurolli guruhlar yig'ila boshlaydi va «Muhammad Zamon» tez orada Ko'lob va boshqa yerlarni qo'lga kiritadi, janglarning birida hatto Abdulmo'minni asir olish ehtimoli ham yuz bergan edi. Lekin o'z xohishi bilan kelib qo'shilgan qurolli kuchlar o'z boshliqlariniig qalbaki shaxs ekanligini sezgach, tarqalib ketadilar. So'ng Muhammad Zamon o'zbeklardan yengilib, Qobulga qochadi va payt poylab

⁵⁸ Н и з о м и д д и н о в Н., Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари, Тошкент, Уздавнашр, 1961. Б.38

Qobul hokimi Qosimxonni o'ldiradi. Qosimxonning o'g'li esa Muhammad Zamonni o'ldiradi. Shunday qilib, Abulfazl Muhammad Zamonni Akbarshoh davlati bilan aloqasiz shaxs deb hisoblaydi.

R. Ch. Varmaning ma'lumotiga ko'ra, Muhammad Zamon o'z vakilini yuborib Akbardan yordam so'ragan; Akbarshoh esa o'zbeklar bilan yaxshi munosabatda ekanligini aytib, bu iltimosni rad qilgan va uning kim ekanligini bilish niyatida uni saroyga taklif qilgan. F.A.Noer Akbarshoh «Muhammad Zamon»ga yordam berishdan voz kechgan bo'lsa-da, uning harakatlarini ma'qullagan, deydi. Badavoniy ham «Muhammad Zamon» Shohrux Mirzaning o'g'li emasligini aytadi. Ammo u Ko'histonni qo'lga kiritgan «Muhammad Zamon»ga Lohurdan ahadiylar orqali 200 ashrafiy mablag', ko'p miqdorda o'q yoy va to'plar yuborganini xabar qiladi. Faqat «Mirotul olam» asarining muallifi Muhammad Zamonni Shohruxning o'g'li deb ataydi.

«Muhammad Zamon» Shohrux Mirzaning o'g'li yoki o'g'li emasligi va shuningdek, uning Akbarshoh tomonidan yuborilgani haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz. Lekin shunisi aniq-ki, Akbarshoh «Muhammad Zamon»ga yordam ko'rsatgan, ammo bu yordam yetarli darajada bo'lmagan; chunki Akbar, birinchidan, Abdullaxonning Badaxshondagi hokimiyatini kuchsizlantirishga uringan; ikkinchidan, Abdullaxon II davlati bilan yaxshi munosabatda bo'lgani uchun bu ishda ochiq - oydin va astoydil harakat qilolmagan. Buning ustiga Ahmad Ali Otaliq elchiligining qaytishiga uzoq vaqtgacha ruxsat etilmaydi. Hali Ahmad Ali Otaliq elchiligi Hindistonda turgan vaqtda Buxorodan Abdullaxon II ning Mavlono Husayniy boshchiligidagi yangi elchiligi keladi va u 9-noyabr (1590)da Akbarshoh huzurida bo'ladi. Abulfazl Mavlono Husayniy elchiligi haqida so'zlab, Buxoro xoni bu elchilikni Ahmad Ali Otaliqning uzoq vaqt Buxoroga qaytmaganligidan tashvishlanib va o'g'li Abdulmo'minning qilmishlari uchun uzr so'rab yuborgan, deb yozadi.

Muhammad Zamon voqeasi va janglarning birida mag'lubiyatga uchrash Abdulmo'minni g'azablantiradi va u o'z nomidan Akbarshoh saroyiga elchilar

yuborib, ular orqali Hindistonga qochib borgan badaxshonliklarni tutib berishni talab qiladi. Ba'zi mualliflar (masalan, «Akbarнома»ga sharh yozgan Sayyid Muhammad Sodiq Ali) Abdulmo'min Akbarning qizini o'ziga xotinlikka so'ratgan, shuningdek, Hindistonga qarashli bir qancha yerlarga ham da'vo qilgan, deb ko'rsatadilar. Abulfazl Allomiy daftar (maktublar)iga sharh yozgan Mavlaviy Muhammad G'iyosiddin Abdulmo'min otasining roziligi bilan Akbarshoh oldiga shunday talablarni qo'ygan, Akbarshoh esa bu haqda o'z kishisi (josusi) orqali eshitib, Abdulmo'min elchisini Hind daryosiga cho'ktirib yuborishga buyurgan, deb izohlaydi.

Fikrimizcha, Mavlaviy Muhammad G'iyosiddinning fikri, haqiqatga yaqinroq bo'lishi mumkin. Akbarning Buxoro xonligidagi voqealardan xabardor qilib turuvchi «o'z kishisi»ga ega ekanligi «Makotiboti Allomiy»da keltirilgan maktublardan birining mazmunidan ham ma'lum bo'ladi. Bu maktub Abdullaxon II amirlaridan birining nomiga yozilgan bo'lib, bunda Hakim Humomning vafot etganligi tufayli Akbarshoh mazkur amir bilan xat yozishib turishni ushbu maktub muallifiga (Abulfazlga) buyurgan va mazkur amirning imperator saroyida katta e'tiborga ega ekanligi va boshqalar haqida maxsus sirli iboralar bilan bayon qilingan.

Abulfazl Allomiy asarida Abdulmo'min yuborgan elchi Hind daryosidan o'tayotgan (28-farvardin 999)da, 17-aprel 1591-yilda suvga cho'kib ketadi, deb ko'rsatiladi.

Akbarning Buxoroga yaqin Panjob viloyatida uzoq vaqt turib qolishi Abdullaxonni xavfga solgan va Buxoro xoni Mavlono Husayniy elchiligini yuborib Akbarshoh davlati bilan yaxshi munosabatda bo'lishga intilgan, deb yozadi bu elchilik haqida R. Ch. Varma.

Aslida esa Abdullaxon II ni boshqa bir narsa tashvishlantirmoqda edi. Yosh va g'ayratli Eron shohi Abbas (1587— 1629) mamlakatdagi feodal kurashlarni shafqatsiz ravishda bostirib, kuchli markazlashgan davlatga asos solmoqda edi. Abbas o'zbeklar tomonidan zabt etilgan Hirot va Xurosonni qayta bosib olish

harakatida edi. Bu ishda u hatto Hindistondan yordam so'rab, o'z elchisi Yodgor Sulton Rumluni Akbarshoh huzuriga yuborgan edi.

Ammo Akbarshoh Eronga nisbatan «kuzatish», «payt poylash» siyosatini tutishda davom etardi. Bunga asosiy sababi hali Qandahor masalasining uzil-kesil hal bo'lmaganligi edi. Shu sababli Eron elchisi Yodgor Sulton Rumlu Hindistonda uzoq vaqt tutib turildi.

Oradan bir qancha yil o'tgach, ya'ni 1595-yilda Qandahor Hindistonga qo'shib olinadi, bu quyidagicha amalga oshadi: Qandahor hokimi Sulton Husayn Mirza vafotidan so'ng undan 4 o'g'il (Muzaffar Husayn Mirza, Rustam Mirza, Abusaid Mirza va Sanjar Mirza) qolgan edi. Sulton Husayn Mirza davlati Qandahordan tashqari, Zomindovar, Garmsardan Sirxindgacha kengaygan edi. Shoh Abbos bu yerlarni uning o'g'illariga bo'lib beradi: Muzaffar Husayn Mirzani Qandahor hokimi, Rustam Mirzani Garmsar va Zomindovar hokimi qilib tayinlaydi. Davlat vakili qilib Hamzabek (ko'r Hamza)ni belgilaydi. Hamzabekning ig'vosi bilan Muzaffar Husayn Mirza Seistonni egallaydi. Rustam Mirza esa bu yerni qo'shib olish niyatida edi. Natijada, aka-ukalar orasida nizo chiqib, u katta to'qnashuvlarga olib keladi. Bu davrda o'zbeklar Farrohga tahdid solmoqda edilar. Farroh hokimi Rustam Mirzadan yordam so'raydi, Rustam Mirza esa paytni qulay hisoblab, Farrohni egallab oladi va Seistonga hujum qiladi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Rustam Mirza Seistondan qochib Zomindovarga kelsa, bu yer o'zbeklar qo'liga o'tgan bo'ladi. Endi Rustam Mirzaga Hindistonga borishdan bo'lak iloj qolmaydi. Akbarshoh Rustam Mirzani tantanali ravishda qarshilaydi. Unga Mo'lton viloyatini «jogir» qilib beradi.⁵⁹ Rustam Mirzaga bu qadar katta iltifot ko'rsatishdan maqsad, - deyiladi «Tarixi olamoroyi Abbosiy»da — Muzaffar Husayn Mirzani ham Hindistonga jalb qilish edi. Shu yo'l bilan Akbarshoh Qandahorni urushsiz o'z territoriyasiga qo'shib olish niyatida edi.

O'zbek qo'shinlari Zomindovarni egallagach, Seiston va Qandahorga hujum qilishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Qandahorni tezroq qo'lga kiritish maqsadida

Abdullaxon II o'z elchisini Muzaffar Husayn Mirza huzuriga yuborib, uni Hindistonga borishni xayoliga ham keltirmaslikka, Qandahorda xotirjam hokimlik qilib, o'z ota yerini Boburiylar imperiyasi tasarrufiga bermaslikka da'vat qiladi.

Ammo, Muzaffar Husayn Mirza Abdullaxon II ning so'zlariga ishonmaydi. Ayni vaqtda Akbarning vakili Qandahorga kelib, Qandahorni unga topshirishni va Muzaffar Husayn Mirzaga esa Hindistonga borishni taklif etadi. Avval onasi, o'g'li, so'ngra Muzaffar Husayn Mirzaning o'zi Hindistonga jo'nab ketadi. Hind qo'shinlari Qandahorga kirib kelishi bilanoq Qandahor qal'asidagi ikki mingga yaqin qizilbosh (Eronlik)lar qochib ketadilar va natijada, Qandahor urushsiz Akbarshoh davlatiga qo'shib olinadi.

Qandahor Hindistonga qo'shib olingach, Akbarshoh darhol Eron bilan aloqalarni tiklashga kirishadi. Eron elchisi Yodgor Sulton Rumlu bilan birgalikda Eronga Ziyaulmulk boshchiligida elchilar yuboriladi.

Abulfazl Allomiy yozadiki, Yodgor Sulton elchiligi kelganidan so'ng saroyda kengash o'tkazilib, Eronga yordam berish va shahzodalardan biri rahbarligida hind qo'shinlarini Xurosonga yuborishga qaror qilingan edi. Lekin Buxorodan elchilarning ketma-ket kelishi va do'stona aloqalarning o'rnatilishi natijasida bu qaror amalga oshmadi.⁶⁰

Akbarshoh nomidan Shoh Abbosga yozilgan maktubda Eronga hind qo'shinlarini yuborishning kechiktirilganiga sabab Akbar davlatining ichki kurashlar bilan bandligi, Erondagi siyosiy vaziyatning noaniqligi hamda Qandahor masalasi va boshqalar deb ko'rsatiladi. So'ng maktubda Akbarshoh Movarounnahrda yurish qilib, uni bosib olmoqchi bo'lganini va u yerdan Eronga yordam ko'rsatishga ahd qilganligini, ammo Turon hokimining ketma-ket elchilar yuborib, do'stona aloqa bog'lagani sababli bu fikridan qaytganini bayon qiladi.

⁵⁹ Эрскин У. Ҳиндистонда Бобур давлати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). - Т., 1997

⁶⁰ Абулфазл Алломий, Тарихи Акбаршоҳий, Т., "Шарк", 1997. 6.29

Shunday qilib, Akbarshoh davlati Ziyaulmulk elchiligi va Eronga yuborilgan boshqa elchiliklar orqali Buxoro xonligiga qarshi kurashda Eron shohiga aniq bir yordam va'da qilmaydi.

3.2. Hukmdorlarning yozishmalarida ko'zlangan siyosiy maqsadlar

Bir qancha yillar davomida Hindistondan Buxoroga elchilar yuborilmadi. Buxoro elchisi Mavlono Husayniy 1592-yili Lohurda vafot etadi. Oradan ikki yil o'tgach, R.CH.Varmaning yozishicha, yana Buxorodan elchi Mulk Saloh Buxoriy kelgan.⁶¹

Buxorodan Akbarshoh saroyiga ketma-ket elchilarning kelishi, fikrimizcha, Buxoro xonining bu davrda Akbarshoh davlati bilan yaxshi munosabatlarda bo'lishga harakat qilganligidan darak beradi, chunki bu Buxoro xonligi manfaatiga mos kelardi. Buxoro xoni Eronga qarashli yerlarni, shu jumladan, Qandahor o'lkasini bosib olishda Hindistonning betarafligini ta'minlashga intilardi. Ammo, Akbarshoh davlati ham o'z navbatida Qandahor o'lkasini (shuningdek, bu o'lkaga qarashli Zomindovar, Garmsar va boshqa yerlarni ham) Boburiylar imperiyasiga tegishli joylar deb bilib, uni Erondan tortib olish fikrida edi. Demak, bu yerda Buxoro xonligi bilan Akbarshoh davlatining manfaatlari bir-birlariga zid keladi. Shunga ko'ra, har ikki mamlakat o'rtasida yaxshi qo'shnichilik aloqalari o'rnatish mumkin bo'lmadi, chunki bu xildagi munosabatdan Akbarshoh davlati manfaatdor emas edi. Uzoq vaqt davomida Hindistondan Buxoroga elchilar yuborilmasligining sababi ham ana shunda edi.

Qandahor urushsiz Hindistonga qo'shib olingach, Qandahorga safarbar qilingan hind harbiy qismlariga Zomindovar, Garmsar va boshqa joylarni Buxoro xonligidan qaytarib olish haqida buyruq beriladi va bir necha kichik-kichik to'qnashuvlar natijasida u yerlar Akbarshoh davlatiga qo'shib olinadi.

⁶¹ R a m e s h C h a n d r a V a r m a . Akbar and Abdullakhan, «Islamic culture», vol. XXI, № 4, October, 1937, p.378

Shundan so'ng Akbarshoh Buxoroga elchi yuborishga qaror qiladi. Bundan maqsad, birinchidan, Zomindovar va Garmsardagi to'qnashuvni xaspo'shlash bo'lsa, ikkinchidan, Buxoro bilan do'stona munosabatlar o'rnatib, bu xil munosabatdan Eron—Hindiston aloqalarini o'z manfaatlariga bo'ysundirishda dastak sifatida foydalanish edi.

24 – urdu-bihesht (1004 hijriy—17-may 1597) yili Hindistondan Buxoroga Xo'ja Ashraf Naqshbandiy boshliq elchilik yo'lga chiqadi. Shohona sovg'a — hadyalar esa Shayx Husayniy Laknoviy orqali maxsus jo'natiladi. Hind elchisi Akbarning Abdullaxon II nomiga yozilgan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan maktubini keltiradi.

Maktubda Akbarshoh o'z davlatining Buxoro xonligiga nisbatan doimo do'stona munosabatda bo'lganini uqtirib, buning isboti o'laroq quyidagi dalillarni keltiradi:

a) Abdullaxon II Hinduqush mamlakatlar o'rtasida chegara bo'lib hisoblansin, deb taklif qilgan ekan, uning bu taklifi ma'qul topildi;

b) Eron hokimi o'z elchisi Yodgor Sulton Rumlni yuborib Buxoroga qarshi kurashda yordam so'ratgan ekan, bu iltimos qabul qilinmadi;

v) Shohrux Mirzaga Buxoroga yaqin bo'lgan Qobul yoki Kashmirdan emas, balki Malva o'lkasidan jogir berildi;

g) O'zbeklar Qandahorni Eronga qarashli joy deb bilib, unga hujum qilmasinlar, degan andisha bilan bu viloyat Hindistonga qo'shib olindi;

d) Shohrux Mirzaning o'g'li nomi bilan Badaxshonda qo'zg'olon ko'targan Muhammad Zamonga yordam ko'rsatilmadi;

e) Buxoro xonini xavfdan qutqarish uchun Panjobni tashlab Agraga kelindi;

j) Abdulmo'min qilgan beadabgarchiliklarga o'g'ilning otaga qilgan erkaliqi deb qaralib, uning gunohidan o'tildi va boshqalar.⁶²

Maktubda Akbarshoh o'zining Panjob viloyatida uzoq vaqt turib qolishiga afg'onlar va belujlarni bo'ysundirish, Kashmir, Tata va Seistonni imperiyaga

qo'shib olish sabab bo'lganini aytib, so'ng Gujarotdagi qo'zg'olonning bostirilishi va Dekanda olib borilayotgan janglar haqida birma-bir hikoya qiladi.

Maktub mazmuniga qaraganda Ahmad Ali Otaliqqa Xo'ja Ashraf Naqshbandiy elchiligi bilan birgalikda qaytishga ruxsat etilgan. Maktubda faqat bir joyda, ya'ni Abdulmo'minning hatti-harakatlari haqida suz borganda, bu noo'rin harakatlar Abdullaxonning roziligi bilan qilingan bo'lishi kerak, deb kinoya qilinadi. Boshqa barcha masalalar do'stona ruhda naql etilgan.

Akbar davlatining ichki ishlari ham Buxoro xonligi bilan do'stlikni mustahkamlashni taqozo qilar edi. Chunki bu davrda imperiya oldida katta bir vazifa — Dekanni bo'ysundirish vazifasi turardi. Bu masalani muvaffaqiyatli hal qilishda Boburiylar imperiyasining g'arbiy rayoni — Qobul viloyatida tinchlik va osoyishtalik hukm surishi muhim rol o'ynardi, bu esa Buxoro xonligi bilan bo'lgan aloqalarga bog'liq edi.

Hind elchilari Xo'ja Ashraf Naqshbandiy va Sulton Husayn Laknoviylar 1597-yilning sentyabrida Abdullaxon huzurida bo'ladilar, hind elchilarining Hindistonga qaytishlarida kuzatib borish vazifasi Mir Qurayshga topshiriladi. Elchilar Hirotga kirib kelganlarida Abdullaxon vafoti haqida xabar tarqaladi.

Keltirilgan dalillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasida qizg'in siyosiy (diplomatik) munosabatlar o'rnatilgan va bundan har ikki tomon manfaatdor bo'lgan.

XVI asrning ikkinchi yarmidagi Buxoro — Hindiston munosabatlarini uch davrga bo'lish mumkin:

a) Buxoro xoni tomonidan Badaxshon bosib olingunga qadar bo'lgan davr. Bu vaqtda Buxoro — Hindiston munosabatlari u qadar do'stona ruhda bo'lmadi. Badaxshonning zabt qilinishi esa mamlakatlar o'rtasidagi munosabatni keskinlashtirib yuborishi ham mumkin edi. Lekin, har ikki mamlakatning manfaatlari o'zaro munosabatlarni keskinlashtirishga yo'l qo'ymadi. Buxoro xoni

⁶² Н и з о м и д д и н о в Н., Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари, Тошкент, Уздавнашр, 1961

Akbar saroyiga ketma-ket do'stlik elchilarini yuborib, Badaxshon voqeasini esdan chiqarishga uringan bo'lsa, Akbar o'z imperiyasining g'arbiy chegaralari xavfsizligini ta'minlash uchun Buxoro bilan yaxshi qo'shnichilik siyosatini davom ettirishga majbur bo'ldi;

b) Abdullaxonning Eronga nisbatan tutgan tajovuzkorlik siyosatining kuchaygan davri. Bu davrda Buxoro xoni Hindistonni Eronga qarshi kurashga undadi. Eronning zaiflashishidan manfaatdor bo'lgan Akbar davlati (Qandahorni osongina Hindistonga qo'shib olish maqsadida) Abdullaxonning Eronga nisbatan bo'lgan agressiv niyatlarini qat'iy qoralamadi;

d) Qandahq masalasining hal bulish davri. Ma'lumki, bu masala ustida Buxoro va hind qo'shinlari o'rtasida to'qnashuvlar ham bo'ldi. Ammo shundan keyin ham mamlakatlar o'rtasidagi munosabat keskin o'zgarmadi. Chunki janubiy hind yerlarini bosib olish uchun Akbar davlatiga Buxoro xonligi bilan yaxshi munosabatda bo'lish zarur edi. O'zaro yaxshi qo'shnichilik munosabatlaridan Buxoro xonligi manfaatdor edi, chunki bu vaqtda davlatni o'z qo'lga olgan Eron shohi Abbas I Buxoroga karshi kurashni kuchaytirish fikrida edi.

Ashtarxoniylar hukmronlik qilgan davrda xam Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasida qizg'in diplomatik aloqalar mavjud bo'lgan.

Imomqulixon taxtga o'tirgach, o'g'li Iskandarni Toshkent hokimi qilib tayinlaydi. Tez orada Iskandar zulmiga qarshi toshkentliklar qo'zg'olon ko'taradilar va Iskandar o'ldiriladi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Balx hokimi — ukasi Nadr Muhammadxon bilan birgalikda Toshkentga yurish qilib, qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi (1613), so'ng Buxoroga qaytib kelib, Hindiston shohi Jahongir (1605—1627) huzuriga elchilar yuboradi. Elchilar Hindistonga qimmatbaqo sovg'a va tuhfarlar bilan boradilar. Jahongirshoh ular bilan yaxshi munosabatda bo'lgan.⁶³

⁶³ Уринбоев А., Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси, Тошкент, УзССР ФА нашриёти, 1960, Б.22

R.Ch.Varmaning yozishicha, Buxoro elchilari Imomqulixonning Jahongirshoh nomiga yozgan maktubini keltirganlar va bu maktubda Buxoro xoni marhum Abdullaxon II va Akbarshoh davrlarida Buxoro hamda Hindiston o'rtasida bir diniy mazhabda bo'lish asosida o'zaro ittifoq tuzilganligi va bu ittifoq natijasida Xuroson hamda Eronning ko'p joylari Buxoro va Hindiston tomonidan bosib olinganligi qayd qilib o'tilgan.

«Tarixi Muqimxoniy» muallifining ko'rsatishicha, «oraan bir necha vaqt o'tgach, Jahongir podshoh Hakim Hoziqni elchilik rasmi bilan oliy maqom xon (Imomqulixon) huzuriga yuboradi». Asarda ko'rsatilishicha, Hakim Hoziq elchiligi Buxorodan jo'nab ketganidan bir yil keyin Jahongir vafot etgan. Agar biz Hakim Hoziq elchiligini Buxoroda bir yil turgan deb faraz qilsak, (Jahongirshoh 1627-yili vafot etgan) u holda hind elchilari Buxoroga 1624—1625 yillari, demak, Imomqulixon elchisidan o'n yil keyin kelgan bo'ladi. «Tarixi Muqimxoniy» kitobida keltirilgan ma'lumotlar asosida shu asar muallifining Hakim Hoziq elchiligining kelishi to'g'risidagi ma'lumotlari ham chalkash.

Lekin, Hindiston bilan Buxoro o'rtasidagi siyosiy munosabatlar bunday uzoq vaqt uzilib qolmagan. Manbalarning ko'rsatishicha, Hakim Hoziq elchiligidan avval Hindistondan Buxoroga Birka elchiligi kelgan va ular Buxoroda bir necha yil turganlaridan so'ng, vatanlariga qaytganlar.

Shundan keyin Buxorodan Hindistonga Xo'ja Abdurahim boshchiligida elchilar yuboriladi.

Xo'ja Abdurahim Xo'ja Islom Jo'yboriyning nabiralaridan bo'lib, Xo'ja Sa'dning o'rtancha o'g'li edi. Xo'ja Sa'd o'z vafoti oldidan (23-oktyabr 1589-yil) vasiyat qilib, o'zining barcha asosiy boyligi — yer-mulki va 18 ming oltin ashrafiy mablag'ini katta o'g'li Xo'ja Tojiddinga meros qilib beradi. Xo'ja Abdurahimga esa 4 ming ashrafiy tegadi, xolos.⁶⁴

⁶⁴ Юлдашев М. Ю., Новые данные о хозяйстве джуйберских шейхов. «Общественные науки в Узбекистане», 1963, 5, стр. 37.

Imomqulixon taxtga o'tirishi bilan Xo'ja Abdurahimning e'tibori tobora kuchsizlana boradi va hatto bizga noma'lum sabablarga ko'ra, Xo'ja Abdurahim haj qilish niqobi ostida Buxoroni tashlab ketishga majbur bo'lgan.

Xo'ja Abdurahim Isfaxonga yetganda yo'lda betob bo'lib qolib yana Buxoroga qaytib keladi. Lekin u oradan ko'p vaqt o'tmay Hindiston safariga o'tlanadi.

«Matlabut-tolibin» asardagi ma'lumotlarga ko'ra, Xo'ja Abdurahimning Hindistonga borishiga quyidagi voqea sabab bo'lgan. Hindistonda Shox Salim (Jahongirshoh) bilan uning o'g'li Shoh Xurram o'rtasida kuchli kelishmovchiliklar paydo bo'lgani to'g'risidagi xabar Buxoroga ham yetib keladi. Kunlarning birida Xo'ja Abdurahim Imomqulixonga shu haqda gap ochib, ota-bolani yarashtirib qo'yish kerakligini aytganda, Imomqulixon Xo'jaga qarab: bu - sizlar (ya'ni jo'ybariy shayxlar) ning ishingiz, ota-bobolaringizdan tortib shu xil yumush bilan shug'ullanib kelmoqdasizlar, deb javob qaytargan. Bu voqeadan so'ng Xo'ja Abdurahim Hindiston safariga taraddud ko'rgan. Xo'ja Abdurahim qimmatbaho buyumlar — tulki va qunduz terisidan tikilgan po'stinlar, baliq tishi, bir qancha tezyurar ot va tuyalar, yaxshi ziynat berib yozilgan kitob va riq'alar hamda boshqa sovg'a-salomlar bilan yo'lga tushadi. Xo'ja Abdurahimga bir qancha mulozimlar bilan birga katta o'g'li Muhammad Siddiqxo'ja hamrohlik qiladi.⁶⁵

Chegaradan o'tishi bilanoq hind podshosining buyrug'i bilan Xo'ja Abdurahim va uning mulozimlari uchun kuniga ming rupiya qo'nalg'alik ajratiladi. Viloyat hokimlari ularga tuhfa va sovg'alar in'om qiladilar, Qobul viloyatining hokimi Zafarxon Xo'ja Abdurahimni Lohur shahrigacha kuzatib boradi. Xo'ja Abdurahim Lohur shahriga yaqinlashganda uning istiqboliga Abdullaxon II davrida - Mashhad hokimi bo'lgan va Hindistonda esa «panchhazori» («besh mingchi») lavozimida xizmat qilgan Bahodirxon o'zbek, Xo'ja Abdul Hasan devon, Ibodatxon baxshi va boshqalar chiqadilar. Xo'ja Abdurahim kelgan kuniyoq Jahongirshoh tomonidan tantanali ravishda qabul qilinadi va katta hurmat sifatida unga taxtga yaqin o'tirishga ruxsat etiladi. Qabul marosimida Jahongirshoh Abdurahimga 50 ming

rupiya in'om etadi, Xo'ja Abdurahim bir qancha kun davomida tilla va nuqra idishlarga solingan xilma-xil taom-lar bilan mehmon qilinadi.

Hind tarixchisi Banarsi Prasad Saksenaning fikricha, Hindistonga elchilik vazifasi bilan kelgan Xo'ja Abdurahim Buxoro xonining Xurosonni Hindiston va Buxoro o'rtasida bo'lib olish haqidagi taklifini ham bayon qilgan va Jahongirshohning vafoti munosabati bilan bu taklif amalga oshmay qolgan.

Demak, B. P. Saksenaning ma'lumotlariga ko'ra, Xo'ja Abdurahim Buxoro xonining Hindistonga yuborgan rasmiy elchisi bo'lgan. Shunday bo'lishi ham mumkin. Chunki Jahongirshohning o'g'li Shohjahon (Shoh Xurram) va boshqalarning tinimsiz qo'zg'olonlari orqasida Hindistonning kuchsizlanib borayotganini sezgan Imomqulixon bu qulay vaziyatdan foydalanib, o'zini Hindistonning ichki ishlariga ham aralasha oladigan ulug' hoqon qilib ko'rsatishga harakat qilgan bo'lishi mumkin. Xo'ja Abdurahim uchun ham hind shohi huzuriga oddiy shayx emas, balki davlat elchisi sifatida kelish qulay va foydali edi.

Shuningdek, «Tuzuki Jahongiriy» muallifi o'z asarida Xo'ja Abdurahim Imomqulixonning Jahongirshoh nomiga yozilgan maktubini keltirgan, deb yozadi⁶⁶. Ammo, «Tuzuki Jahongiriy»da hamda Xo'ja Abdurahimning Hindistonga qilgan sayohatini batafsil hikoya qiluvchi «Matlabut-tolibin»da (shuningdek, boshqa asarlarda) ham bu maktub yoki uning qisqacha mazmuni haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi.

Fikrimizcha, Xo'ja Abdurahimning Hindistonga borishi to'g'risida berilgan va ushbu ishda tarjimasi ilova qilinayotgan hujjat Buxoro xonining hind podshohi nomiga yozgan nomasi bo'lmasa kerak. Chunki bu hujjat «Hindiston voqeanavisining nishoni (buyrug'i)» deb atalib, unda shohlarga yoziladigan rasmiy xatlardagi kabi Jahongirshoh shaxsi ulug'lanib ta'rif etilmaydi, aksincha, Imomqulixon ko'proq o'zining adolatlik xon ekanligi haqida maqtanib yozadi va nihoyat, hujjatda Xo'ja Abdurahimning ko'ngliga sayr qilish fikri tushgani va

⁶⁵ Абулфазл Аллюмий, Тарихи Акбаршоҳий, Т., “Шарк”, 1997.

⁶⁶ Мирза Мухаммад Ҳоди, Тузуки Жаҳонгирий, 428-бет

shuning uchun uni Hindiston safarining voqeanavislik xizmatiga tayin etilgani aytiladi:

«...pok zotli Xo'ja Abdurahimga ko'pdan-ko'p iltifotlar qilinib... uni Hindiston safarining voqeanavislik xizmatiga sarafroz qildikki, u (chegaradan) o'tishdan va ishga tushishdan boshlab to bu xizmatning anjomiga va oxiriga qadar har mulk va har yerda ro'y bergan turli voqealarning hammasini oqqa tushirib va bayon qilib har kuni oliy taxt poyasining arziga yetkazadi». Noma oxirida ham Jahongirshoh davlatining abadiy bo'lishi va boshqalar haqida istak bildirish o'rniga «Shubhasizki, (buni) to'xtatish va (unga) xiloflik qilish oliy ostonaga bosh qo'yuvchilarga dog' tushirishdan xabar beradi» deyiladi. Agar Xo'ja Abdurahim o'ziga yuklatilgan vazifani ado etmasa, uning Imomqulixon oldida e'tiborsiz bo'lib qolajagi kinoya qilinadi. Hujjatdan ko'rinib turibdiki, Xo'ja Abdurahimga voqeanavislik vazifasi ham yuklatilgan.

Demak, birinchidan, Xo'ja Abdurahim Hindistonga o'z xohishi bilan ketmagan, aksincha, unga nisbatan Imomqulixon munosabatining sovuq bo'lganligi orqasida chet o'lkalarga chiqib ketishga majbur bo'lgan (ehtimol, shu vaqtlarda jo'ybariy shayxlarning kattasi, asosiy merosxo'r Tojiddin o'ziga raqiblik qilishi mumkin bo'lgan ukalari — Xo'ja Abdurahim va Abdixo'jalardan qutulish maqsadida o'z ta'siridagi xon Imomqulini shunday qilishga da'vat etgandir) va ikkinchidan, Imomqulixon Xo'ja Abdurahimning Hindiston safaridan podsholik ishlarida ham foydalangan.

Tarixiy asarlarda Imomqulixonning onasi va Jahongirshohning xotini Nurjahonbegim ham (o'z vakillari orqali) bir-birlariga do'stona maktublar va qimmatbaho tuhfa hamda hadyalar yuborib turganliklari haqida ma'lumotlar bor.⁶⁷

Shunday qilib, Hakim Hoziq elchiligiga qadar Hindistondan Buxoroga Birka va Nurjahonbegimning Xo'ja Nasriddin Qobuliy boshchiligidagi elchilari kelgan

⁶⁷ Байкова Н. Б., Роль Средней Азии в русско - индийских торговых связях (первая половина XVI — вторая половина XVIII в.), Ташкент, Изд-во «Наука» УзССР, 1964.

bo'lsa, Buxorodan Hindistonga Xo'ja Abdurahim va Imomqulixon onasining elchilari borgan.

Endi «Tarixi Muqimxoniy»da yo'l qo'yilgan xronologik chalkashlik haqida to'xtab o'tamiz. Ma'lumki, bu asarda Hakim Hoziq elchiligi Jahongirshoh tomonidan yuborilgan elchilikdir, deb yozilgan. Ammo «Matlabut-tolibin» asaridagi voqealarning tavsifi Hakim Hoziq Shohjahon tomonidan yuborilgan elchi ekanligini aniqlab beradi. Asarda hikoya qilinishicha, Xo'ja Abdurahim Hindistonga borgandan so'ng bir qancha vaqt o'tgach, Jahongirshoh Kashmir viloyatiga sayr qilish uchun jo'naydi va Xo'ja Abdurahimni ham o'zi bilan birga olib ketadi. Kashmirda avval Jahongirshoh va so'ng ko'p vaqt o'tmay Xo'ja Abdurahim (1037—1627) vafot etadilar. Xo'ja Abdurahimni Chahorbog'da (Kashmir) dafn etadilar. Keyinchalik Xo'ja Abdurahimning o'g'li Muhammad Siddiqxo'ja otasining jasadini Hakim Hoziq boshliq elchilik hamrohligida Buxoroga olib kelib dafn ettiradi, dafn marosimida Imomqulixon ham qatnashadi⁶⁸. Hakim Hoziq elchiligi Jahongirshoh davrida emas, balki uning vafotidan so'ng Shohjahon tomonidan (saltanat egasi bo'lgandan keyingi birinchi yili) yuborilgan elchilik ekani Shohjahon davriga bag'ishlangan maxsus tarixiy asar «Mirotul olam»da ham aniq aytilgan va bu asarda Shohjahonning Imomqulixon nomiga yozilgan maktubining do'stlik haqida zikr etuvchi va Imomqulixon shaxsiyatini ulug'lovchi debochasi ham keltirilgan.

Hakim Hoziq boshchiligidagi hind elchilari Buxoroga 1628 - yilda kelgan, chunki «Mirotul olam»da Hakim Hoziq elchiligi Hindistondan jo'nab ketgandan so'ng (12-rajab 1037 – 14-mart 1628) navro'z bayrami nishonlangani qayd qilingan.

Imomqulixon olti oy davomida hind elchisini qabul qilmaydi. Hakim Hoziq norozilik bayon qilib, bu haqda Buxoro amirlariga shikoyat qiladi.

So'ng Nodir Devonbegi Imomqulixonga hind elchisini qabul qilish haqida so'zlaganda, xon, agar elchini qabul qilsak, u holda elchi keltirgan tortiqlarni ham

olishga to'g'ri keladi, biz esa iltifotlarga muhtoj emasmiz, deb javob beradi. Nihoyat, Imomqulixon ovdan qaytib kelayotgan vaqtida hind elchisining yo'l ustida xonga ko'rinishi mumkinligini aytadi.

Xonga ko'rinish shu tariqa o'tadi: Hakim Hoziq o'zi keltirgan buyumlarni yo'l ustida ko'zga ko'rinarli joyga yasatib qo'yadi, ammo Imomqulixon go'yo ularga zor emasdek, bu tortiqlarni nazar-pisand qilmagandek, tuhfalarga bir qiyo boqib, so'ngra Rahim parvonachiga qarab: «Bularni senga berdim», deydi.

Bu voqeadan hayratda qolgan elchi darhol bir qilichni yashirib qolishga ulguradi. Ertasi kuni Imomqulixon hind elchisini rasmiy suratda qabul qiladi. Hakim Hoziq taxt yoniga yaqinlashib, Imomqulixonga hind podshohining xatini beradi va elchilarga xos odob bilan xonga qarab: «Marhum Akbarshoh podshohdan uning ikki xususiy qilichi qolgan edi. Birini hokim Shohjahonning o'zi oldi, ikkinchisini marhum hokim Akbarga nisbatan o'g'illarcha munosabatda bo'lsin degan so'zlar bilan bizlardan o'z tug'ishgani Imomqulixonga berib yubordi», deb qilichni uzatadi.

Imomqulixon qilichni olib tortsa, u ha deganda qinidan chiqavermaydi. Shunda Imomqulixon — «negadir sizning qilichingiz qinidan chiqmaydi» deb, Shohjahon Badaxshonni olish niyatida Qobulga kelibdi, degan mazmundagi Buxoroda tarqalgan gapga ishora qiladi. Elchi esa «Hokim bu qilich tinchlik ifodasidir, shuning uchun darhol o'z qinidan chiqavermaydi, agar u urush qilichi bo'lganda edi, u vaqtda ishontirib aytamanki, shu ondayoq o'z qinidan chiqarib olingan bo'lar edi», deb javob qaytaradi. Imomqulixon bu javobdan mamnun bo'lib, hind elchisiga ishonchi ortib, u bilan tez-tez uchrashib turadigan bo'ladi. Ba'zan davlatga tegishli ishlar yuzasidan ham maslahatlashadi.

Hakim Hoziq o'z zamonasining buyuk kishisi — yorqin aql egasi, olim, shoir va tabibi edi.

Kunlarning birida, saroy shoirlaridan Mavloni Turobiy va Nahliy o'zlarining yangi yozgan she'rlarini Imomqulixonga o'qib beradilar. Hakim Hoziq ham bu

⁶⁸ Муҳаммад Толиб бин Тожибдин Ҳасанхўжа, Матлаб-толибин, Б.214

yig'ilishga taklif qilingan edi. Shoirlar o'z she'rlarini o'qib bo'lgach, Imomqulixon Hakim Hoziqqa qarab — «Bu ajoyib chuqur ma'noli va go'zal, latofatli she'rlardan qaysi biri ustun turadi»,— deb so'raydi. Hakim Hoziq esa so'z o'yini vositasi bilan, «hoqon, xurmo daraxti yerdan o'sib chiqadi», deb lo'nda javob beradi («Nahli» so'zi arab tilida xurmo daraxtini, «Turob» so'zi esa tuproq — yer ma'nosini anglatadi). Hakim Hoziq Turobiy she'rini Nahliy she'riga qaraganda mazmunan kuchli va shaklan go'zal demoqchi bo'ladi. Bu hozirjavoblik va aqllilik Hakim Hoziqqa bo'lgan ehtiromni yanada kuchaytiradi.

Shohjahon saltanat egasi bo'lganda, imperiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchsizlanib qolgan edi. Shohjahon oldida tarqalib ketish xavfi tug'ilayotgan imperiyani saqlab qolish, Dekanni bo'ysundirish va Qandahorni qayta Hindistonga qo'shib olish masalasi turar edi. Balx hokimi Nadr Muhammadxon Hindistondagi ichki ziddiyatlardan foydalanishga harakat qiladi. U Jahongirshoh vafotini eshitgach, Qobulga hujum boshlab, shaharni bir qancha vaqt qamal qilib turadi; faqat Muhabbatxon boshchiligidagi hind qo'shinlari Qobulda Boburiylar davlatini tiklashga muvaffaq bo'ladi. Shohjahon o'z hokimiyatini mustahkamlash yo'lida urushda talafot ko'rgan Qobulliklarga xazinadan bir lak rupiy mablag' ham ajratadi.

Boburiylar imperiyasidagi ichki ahvolning nihoyatda mushkullashganligi, Eron bilan munosabatning keskinlashishi va Qobuldagi voqealar Shohjahonga Imomqulixon davlati bilan do'stona munosabatda bo'lishni taqozo qilardi. Shunga ko'ra, hind elchiligining katta sovg'alar olib kelishi va elchilikka boshchilik qilish vazifasi o'z davrining donishmandi Hakim Hoziq zimmasiga yuklatilishi bejiz emas edi.

Yuqoridagi sabablarga binoan Shohjahon davlati ko'p yillar davomida Buxoro xonligi bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatida bo'ladi. Qobul viloyati va umuman imperiyaning g'arbiy rayonlarida o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Shohjahon Balx hokimi bilan ham aloqani uzmedi, Nadr Muhammadxonning Qobulga qilgan yurishlariga go'yo ahamiyat bermagan bo'lib,

1632-yili Hindistonga kelgan Balx elchisi Vaqqos Hojiga katta iltifotlar qildi, elchiga keltirgan 15 ming rupiyalik sovg'a-salomlari evaziga 40 ming rupiyalik tuhfarlar beriladi. Kelasi yili Vaqqos Hoji elchiligiga javoban Balxga Tarbiyatxon boshliq hind elchiligi yuboriladi. Shu tariqa to 1639-yilgacha Balx bilan Agra orasida elchilar qatnab turadi.

1636-yili Shohjahon 50 ming armiya bilan Dekanga yurish qiladi. Katta viloyatlardan Golkonda va Bijopurni imperiyaga bo'ysundirib, Ahmadnagargacha bo'lgan territoriyaning ishg'ol qiladi. Uchinchi o'g'li Avrangzebni Dekanga noib qilib tayinlab, o'zi markazga qaytib keladi.

1629-yilda Shoh Abbos vafot etadi, Eron taxtiga Shoh Safi o'tiradi (1629—1642). Shoh Safi davrida Eron ichki feodal kurashlar va ayniqsa, Turkiyaning Eronga qarshi to'xtovsiz hujumlari natijasida o'z qudratini yo'qotgan edi. Turkiya bilan janglar davom etib turgan vaqtda Shohjahon Qandahor hokimiga Boburiylar saroyida katta lavozim va'da qilib, 1638-yili Qandahorni Hindistonga qo'shib oladi va Eron — Turkiya sulhi tuzilguniga qadar hindlar Qandahorda o'z mavqelarini mustahkamlab oladilar.

1639-yili Shohjahon Qobulga keladi. Bu vaqtda 50 ming kishilik hind qo'shinlari Navshahrda tayyor turardi. Bu voqea Balx hokimi Nadr Muhammadxonni qattiq cho'chitadi. Chunki Shohjahon Nadr Muhammadxonning Qobulga qilgan yurishlari uchun qasos olgani kelgan, deb o'ylash mumkin edi. Nadr Muhammadxon Shohjahonning Qobulga kelgani va uning rejalari haqida Imomqulixonga xabar qilib, Buxoro xonini tezda Balxga yordamga yetib kelishini so'raydi. Vaziyatning haqiqatan ham mushkulligini bilgan Imomqulixon zudlik bilan Balxga keladi va bu yerda Shohjahonga Imomqulixon va Balx hokimi nomidan maktub yozilib, elchi Mansurxo'ja dodxoh orqali Qobulga yuboriladi. Maktub quyidagi mazmunda yozilgan edi:

«Qadim zamonlardan beri bizning ota-bobolarimiz o'rtasida ahd-u paymon qilinib, hech bir tomon hanuzgacha zarar va bezovtalikka sababchi bo'lmagan edi. Agar avvalgi ahd-u paymonni nazar-pisand qilmay, yaxshi munosabatlarni

dushmanlik ruhi bilan almashtirsalar, u holda biz, ikki aka-uka sizga qarshi chiqa olamiz va ko'ramiz - murod hosil etuvchi (tangri) kimning murodini berarkin».

Mansurxo'ja dodxohga esa agar Shohjahon Qobuldan qaytishga rozilik bildirsa, uni uch manzil masofagacha kuzatib borish, aks holda tezlik bilan kishi yuborib xabar qilish vazifasi topshiriladi.

Buxoro xoni va Balx hokimining hamjihatlikda ko'rgan tadbirlari Shohjahonga o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa kerak, «Tarixi Muqimxoniy» muallifining yozishicha, Shohjahon Buxoro elchisiga, agar uning Qobulga kelishi Buxoro xonini tashvishlantirgan bo'lsa shu kuniyoq Hindistonga qaytib ketishga buyruq berajagini aytgan.

Shu voqeadan so'ng Imomqulixon davrida Buxoro va Hindiston o'rtasida elchilar yuborish to'xtatilgan. Bu yerda faqat shuni eslatib o'tish kerakki, Imomqulixon umrining so'nggi vaqtlarida ko'r bo'lib qolib, taxtni ukasi Nadr Muhammadga topshirib o'zi Makkaga ketadi, «Mirotul olam»da yozilishicha, Shohjahon o'z vakili Mir Ibrohimdan Imomqulixonga bir lak rupiya pul hadya yuboradi. Ammo Mir Ibrohim Makkaga yetib borganga qadar Imomqulixon vafot etganligi tufayli, Mir Ibrohim bu pulga marvarid (40 ming rupiyaga) va zotli otlar sotib olib uni keltirib shohga topshirgan.

Imomqulixon xonligi davrida Buxoro — Hindiston munosabatlari umuman do'stona tarzda bo'lsa ham, bu mamlakatlar feodal davlatlariga xos ziddiyatlardan xoli emas edilar. Shohjahon davlatining kuchsizlangan yillari Nadr Muhammadxonning Qobulga qilgan hujumi va Shohjahonning tahdidi mazkur fikrimizning dalili bo'la oladi.⁶⁹

Nadr Muhammadning (1642-1645) hukmronligi uzoq vaqt davom etmadi. U Qarshi viloyatida bo'lgan vaqtida bir qancha amir va amaldorlar uning katta o'g'li Abdulazizni Xo'jandda xon deb e'lon qiladilar. Vaziyatning nihoyatda mushkulligini tushungan Nadr Muhammadxon Buxoroga bormay, Balxga qochadi. O'g'illari uning buyruq va amrlariga bo'ysunmay qo'yadilar. Shundan so'ng Nadr

Muhammadxon o'g'illariga qarshi kurashda Shohjahondan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Shohjahon esa Nadr Muhammadxonning Qobulga qilgan hujumlari sababli undan qasos olish va shuning bilan birga, Balxni o'z imperiyasiga qo'shib olish uchun qulay fursat keldi deb, darhol «yordam» berishga rozilik bildiradi va o'g'li Sulton Murodbaxsh boshchiligida Guriga katta qo'shin yuboradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay hind qo'shinlari Balxni ham ishg'ol qiladilar. Nadr Muhammadxon esa Eronga qochadi. Eron shohi Abbos II (1642— 1667) Nadr Muhammadxonni yaxshi qabul qiladi. Hatto uni Buxoro taxtini qayta egallashga da'vat qilib, bu ishda katta qo'shin bilan yordam berishga tayyor ekanini aytadi. Ammo Nadr Muhammadxon Eron qo'shinlari bilan Buxoroga bostirib kirishni ma'qul ko'rmay, Abbos II taklifini qabul qilmaydi. Nadr Muhammadxon Eronda uzoq vaqt (ikki yarim yil) turib qoladi, Balx esa hali ham hindlar qo'lida edi. 1645-yili Shohjahon shahzoda Murodbaxshni Balxdan chaqirtirib olib, Balxga yuborilgan hind qo'shinlari ustidan rahbarlikni harbiy ishlarda nom chiqargan kichik o'g'li Avrangzebga topshiradi.

Buxoro xoni Abdulazizxon katta kuch to'plab, Balxni hind qo'shinlaridan ozod qilishga o'tlanadi. Abdulazizxonga qozoq xoni Yangir va Xorazm xoni Abdulg'ozi yordamga keladi. Xorazmliklar uch ming kishilik qo'shin yuboradilar.

To'rt oy davom etgan urush natijasida hind qo'shinlari chekinishga majbur bo'ladi.

Hindlar Balxni tashlab ketgach, Abdulazizxon ham o'z qo'shini bilan Buxoroga qaytadi va ukasi Subhonqulini Balx hokimi qilib tayinlaydi.

Hind qo'shinlarining chekinishidan avval Shohjahon Balx hokimligini Nadr Muhammadga topshirishni afzal ko'rib, uni Balxga chaqirtirgan edi. Subhonquli Balxga qaytib kelgan otasi Nadr Muhammadxon bilan to'qnashib uni yengadi va Nadr Muhammadxon hokimlikdan umidini uzib, Makkaga ketadi.

Hind tarixchi olimlari N.K.Sinxa va A.Ch.Banerdjilarning fikricha, hind qo'shinlarining Balx yurishida muvaffaqiyatsizlikka uchrash sabablari,

⁶⁹ P r a s a d Saks ena. History of Shahjahan of Dehli. Allahabad, 1958.

birinchidan, Boburiy a'yonlari dabdabali va jo'shqin hayotga o'rganib qolgan edilar, ular boy Hindistondan uzoqda ular uchun doimo notinch o'lkalarda turishni yoqtirmas edilar, ikkinchidan, ular yerli xalqlar bilan kelisha olmadilar. Garchi Balx uchun bo'lgan kurashda Shohjahon davlati 40 million rupiya sarf etgan bo'lsa-da, bundan hech bir manfaat bo'lmadi.

Hind askarlarining Balxni tashlab chiqib ketishiga Hindistonda yuz berayotgan ichki voqealar sabab bo'lgan. XVII asrning 40-yillaridan boshlab Shohjahonning o'g'illari va ular atrofidagi turli guruhlar o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketadi, ikkinchi tomondan, ko'pgina rojaliklar o'z mustaqilliklari uchun tinmay kurash olib borardilar. Otasiga qarshi qaratilgan o'zboshimcha harakatlari uchun Avrangzeb Dekan noibligi lavozimidan bo'shatilib, Balxga jo'natilgan edi.

Shohjahon davlati bilan munosabatlar keskinlashgan davrda Buxoro bilan Eron o'rtasida o'zaro yaqinlashish paydo bo'ladi.

Eron hududi orqali Buxoroga kelgan rus elchisi Anisim Gribovning bergan ma'lumotiga qaraganda, 1647-yilning dekabrda (A.Gribov Isfaxonda turgan vaqtida) Buxorodan Eronga Abdulazizxon elchisi Asan qo'shboshi (Hasan Qushbegi) keladi. Buxoro elchisi o'zi bilan birga bir sandiq to'la oltin, 70 tuyada har xil mo'yna va boshqa xil mollardan sovg'alar keltirgan. Bu sovg'alarni ikki mingga yaqin kishi olib kelgan.

Anisim Gribov Eron davlati ahllaridan Buxoro elchisining nima maqsad va vazifalar bilan kelganligi haqida so'raganida, ular bu elchilikning maxfiy xarakterdagi elchilik ekanini, ya'ni elchilar hindlar bilan kurashda Eron shohi Abbos II ning Nadr Muhammadxonga yordam bergani uchun Abdulazizxonning Eron davlati bilan do'stona munosabatda bo'lishga ahd qilgani va hindlar bosib olgan Qandahor shahrining eronliklar tomonidan qaytarib olinishida Eron shohiga yordam berishga tayyor ekanini bayon qilganlar. Bu orada Erondan ham Buxoroga elchi yuborilib, unga Eronning Buxoro bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash tarafdori ekani, Shohjahon davlatiga qarshi kurashda Buxoro bilan bir ittifoqda harakat qilishga rozilik bildirish vazifasi topshiriladi. Qandahorni qaytarib olishda

Buxoro yordamiga tayangan Eron davlati bir yil ilgari Hindistondan kelgan elchini Eron hududidan chiqarib yuboradi va Shohjahondan Qandahorni qaytarib berishni talab qiladi.

1648-yilning mart oyida Buxorodan Eronga yana elchi kelib, u Qandahor va hindlar qo'lidagi ba'zi yerlarni bosib olishda Eronga Buxoro amirligining harbiy yordam berishga tayyor ekanligini bildiradi. 1648-yil 13-martda Eron shohi Buxoro elchisi hamrohligida katta qo'shin bilan Qandahor tomon yo'lga chiqadi.

Bu vaqtda A.Gribov va uning hamrohlariga ham Isfaxondan jo'nab ketishga ruxsat berilgan edi, shuning uchun Eron — Buxoro munosabatlariga doir uning ma'lumoti shu yerga kelib tamom bo'ladi.

1649-yil fevralda Qandahor Eron qo'shinlari tomonidan bosib olinadi va Shohjahonning Qandahorni qaytarib olish yo'lidagi bir necha bor (1649-yil may, 1652, 1653-yil aprel) urinishlari muvaffaqiyatsiz chiqadi. 1657-1660 - yillar davomida Shohjahonning o'g'illari Dara va Avrangzeb o'rtasidagi o'zaro taxt uchun bo'lgan ichki kurash Qandahorning uzoq vaqt eronliklar qo'lida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Makka tomon yo'l olgan Nadr Muhammadxon Eronning Simnon shahriga yetganda vafot etadi (1651). Shu munosabat bilan Buxoro va Balxda (Abdulazizxon va Subhonquli tomonidan) motam e'lon qilinadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay aka-ukalar o'rtasida nizo chiqib, Abdulazizxon Subhonqulidan Balx hokimligini tortib olish maqsadida unga qarshi Muhammad Sulton boshchiligida katta qo'shin yuboradi. Lekin Muhammad Sulton va undan keyin yuborilgan qo'shinlar ham Balxni ishg'ol qilishga muvaffaq bo'lolmaydilar. Abdulazizxon Subhonqulini Balx hokimi deb tanishga majbur bo'ladi.

Abdulazizxonning Shohjahon nomiga yozgan maktubi ham mavjud bo'lib, bu maktubning qimmati shundan iboratki, shu davrgacha Abdulazizxon taxtga o'tirgandan to Avrangzeb o'zini podsho deb e'lon qilganga qadar (ya'ni 1645-yildan 1659-yillargacha) Buxoro bilan Hindiston o'rtasida hech qanday diplomatik munosabat bo'lmagan deb taxmin qilar edik. Maktubning topilishi va uning

mazmuni bu fikrning noto'g'ri ekanligidan xabar beradi. Maktubda Abdulazizxon Hindiston bilan bo'lgan munosabatlarning uzilib qolishiga «falonchi» sababchi deb ko'rsatadi va «falonchi»ning nomi zikr qilinmasa ham maktub mazmunidan uning kimligi juda ravshan, chunki «falonchi» maktubda o'z otasiga qarshi kurashgan va Abdulazizxonni o'z otasi o'rnida hurmat qilishi lozim bo'lgan shaxs sifatida ta'riflangan, demak, «falonchi» - bu Subhonqulixon edi.

Maktubning mazmuniga ko'ra, Subhonqulixon Abdulazizxon elchilarini Hindistonga yo'latmagan, ular orqali yuborilgan hadyalarni esa tortib ola bergan. Maktub oxirida, mamlakatlararo do'stlikni mustahkamlash kerakligi uqtirib o'tiladi.

Subhonqulixonga nisbatan ishonchsizlik bilan qarash davom etgan bo'lsa kerak, maktubda elchining nomi va uning kim ekanligi ko'rsatilmaydi.

Fikrimizcha, maktub Subhonquli Balx hokimi deb tan olingandan bir qancha yil o'tgandan so'ng, taxminan 1653— 1655 yillarda yozilgandir. Bu vaqtda Hindistonda ichki ziddiyatlar kuchaygan, qarib qolgan Shohjahon bilan o'g'li Avrangzeb o'rtasida hokimiyat uchun kurash avjiga chiqqan edi. Shuning uchun Shohjahon Buxoroga o'z vaqtida javob elchiligi yuborolmagan bo'lsa kerak.

1658-yili Boburiylar imperiyasi taxtiga Avrangzeb o'tiradi. Shohjahon Avrangzebning odamlari nazorati ostiga olinadi va 1666-yilda vafot etadi.

Avrangzeb akasi Daraga qarama-qarshi o'laroq, taxt uchun kurashda musulmon feodallari va islom ruhoniylariga tayanadi, Dara tarafdorlarining ko'pchiligi hinduizm dinidagi kishilar edilar. Artilleriya qismlarining musulmonlardan tashkil topganligi davlatni Avrangzeb qo'liga o'tishida katta rol o'ynadi. Musulmon harbiy feodallari yordami bilan davlat tepasiga chiqib olgan Avrangzeb musulmon feodal ruhoniylari manfaatlarini ko'zlab, reaksion ichki siyosatni amalga oshiradi. Uning buyrug'i bilan ko'pgina budda ibodatxonalari buzib tashlanadi, hindlar qo'lidagi yerlar tortib olinib, musulmon feodallariga jirg'a - tortiq qilib beriladi, hinduizm dinidagi kishilar kamsitilib, juz'ya — jon solig'i to'lashga majbur qilinadi. Ular davlat, sud va moliya ishlaridan chetlatiladi. Musulmonlar bilan

hindularni bir-biriga yaqinlashtirishdagi Akbarshoh va uning vorislari tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan oqilona siyosat yuzini zulmat qoplaydi.

Avrangzeb o'z tashqi siyosatida Boburiylar imperiyasini kengaytirishga harakat qilib, tinimsiz kurash olib boradi; natijada Boburiylar imperiyasi G'aznadan Chittakongacha, va Kashmirdan Qarnatikkacha bo'lgan yerlarni ishg'ol qiladi. Ammo, bunday katta territoriyani ishg'ol etgan imperiya ichki tomondan mustahkam emas edi, ayniqsa maratxlar va Dekan rojaliklari Avrangzeb davlatiga so'zdagina tobe bo'lib, doimiy ichki kurashlar bilan imperiya tinkasini quritardilar.

Avrangzeb zamonida Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi munosabatlar birmuncha do'stona xarakterga ega bo'ladi. Bu munosabatlar Buxoro xoni Abdulazizxonning Avrangzebni taxtga o'tirganligini qutlovchi maktubi bilan boshlanadi. Maktubni elchi Xo'ja Ahmad al-Husayniy Naqshbandiy olib boradi. Noma Avrangzeb shaxsiyatini uzundan-uzoq ta'riflash bilan boshlanib, so'ng hamjihatlik odati do'stlik uchun bebaho gavhardir, deb uqtirilgach, birdamlikni mustahkamlash lozimligi izhor etiladi. Maktub oxirida Hindistondan ham tez-tez elchi va maktublar kelib turishiga umid qilinadi.

O'sha vaqtlarda Hindiston bo'ylab sayohat qilib, vrachlik kasbi tufayli shoh saroyida xizmat qilgan Fransua Betnye Avrangzebni tabriklash uchun kelgan o'zbek elchilari haqida shunday hikoya qiladi:

Elchilar Avrangzebga hind odatiga muvofiq, uzoqdan uch marta qo'llarini boshlariga ko'tarib, so'ng yerga tekkizib salom beradilar. So'ng elchilar Avrangzebga juda yaqinlashadilar, shoh xatni bevosita elchilar qo'lidan olishi mumkin edi, lekin u bunday qilmaydi. Elchilar keltirgan nomani Avrangzebning amiri olib ochadi va shohga uzatadi. Avrangzeb xatni diqqat bilan o'qib chiqqach, elchilarga baxmal nimcha, salla, ipak bilan gul tikilgan sharf sarp o'ziga berishni buyuradi.

Elchilar Avrangzebga qimmatbaho ko'k tosh (lyapis — lozur)dan yasalgan bir necha quticha, uzun junli tuya, chiroyli otlar, bir necha tuya ho'l meva: nok, olma,

uzum, qovun; bir necha tuya quritilgan meva: buxoro olxo'risi, turshak, oq va qora mayiz olib kelgan edilar.⁷⁰

Avrangzeb elchilar bilan suhbatda Samarqanddagi fan, ayniqsa Ulug'bek rasadxonasining ahvoli, ajoyib mevalar hosili to'g'risida savollar beradi.

Elchilarning yurtlariga qaytishi oldidan Avrangzeb barcha amirlarni yig'ib, elchilarning har biriga ikki sidradan qimmatbaho sarpo sovg'a qilib, ular turgan joyga sakkiz ming rupiya pul eltib berishni buyuradi. So'ng elchilardan Buxoro xoniga bir necha to'p qimmatbaho kimxoblar, yupqa polotno va olachalar, oltin hamda kumush yo'llik ipak matosi, bir necha gilam, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ikkita xanjardan iborat sovg'alar berib yuboradi.

Elchilar Dehlida to'rt oy turib, vatanlariga qaytayotganlarida ba'zilar issiqdan yo'lda halok bo'ladilar.

«Mirotul olam»da ko'rsatilishicha, Buxoro elchilari Avrangzeb saltanatining to'rtinchi yiliga kelib ikki marta – 4 - rabius-soniy oyida (27-noyabr 1661-yil) va 24 - rajab oyida (14-mart 1662-yil) hind shohi qabulida bo'lganlar.

Umuman, elchilarga Hindistonda taxminan bir lak-u yigirma (120) ming rupiya naqd pul va mollar tuhfa etilgan.

Avrangzeb saltanatining beshinchi yili boshlangan kun elchilarga ketishga ruxsat etilgan, ammo elchilik boshlig'i Xo'ja Ahmad (al-Husayniy) Lohurda vafot etgan.

«Olamgirnoma»da elchilik tarkibidagi boshqa shaxslarning ham nomi tilga olingan, masalan, Xushholxon, Javxarxon, Mirzabek Mirshakar, Latifbek, Miraxur va boshqalar; bularga ham bir necha ming rupiya mablag va matolar hadya etilgan.

Avrangzeb saltanatining oltinchi yili Abdulazizxonning mulozimi Kuchakbek Buxorodan hind shohi uchun ot va ov hayvonlari keltiradi; buning evaziga Kuchakbekka faxriy to'n va ikki ming rupiya in'om qilinadi.⁷¹

⁷⁰ Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

⁷¹ Расул-Заде П., Из истории индо - среднеазиатских политических взаимоотношений во второй половине XIX в., в сб. «Взаимоотношения народов Средней Азии с сопредельными странами Востока», Ташкент, Изд-во АН УЗССР, 1963, стр. 173

Keltirilgan tuhfarlar ichida ov qushlari hind shohiga ma'qul tushgan bo'lsa kerak, Avrangzeb Abdulazizxonga xat yozib, yana bir necha ov qushlari va jonivorlar berib yuborishni iltimos qiladi. Maktubda bu xil tortiqlarni do'stlikning ramzidir, deb ta'rif qiladi.

Avrangzeb saltanatining yettinchi yili (1665-yil, iyul) Buxoroga Mustafoxon Xofi boshchiligida elchi yuboradi. Elchilar Abdulazizxon nomiga yozilgan maktub va umumiy qiymati bir lak-u ellik (150) ming rupiyalik tuhfa keltiradilar.

Mustafoxon Xofi elchiligi qanday maqsadlar bilan yuborilganligi, uning Buxorodan qaytgan-qaytmagani haqida aniq ma'lumotlar yo'q bo'lsa ham, ushbu ishda e'lon qilinayotgan Abdulazizxonning Avrangzeb nomiga yozilgan maktubi bu elchilik haqida birmuncha tasavvur hosil qilishga imkon tug'diradi.

Maktubda Avrangzeb shaxsiyati ulug'lanib, unga yaxshi istaklar tilanilgandan so'ng, har ikki tomon o'rtasidagi do'stona munosabatlarning mustahkamlanishiga ishonch bildiriladi. So'ng Ka'ba yo'lida g'ov bo'lib turgan shia mazhabidagi eronliklarga qarshi Iroq va Xurosonga yurishga qaror qilinganligi bayon qilinadi va ayni holda Avrangzeb elchisi Mustafoxon Xofi orqali shu masala yuzasidan muayyan bir fikr aytilmaganligidan taajjublaniladi.

Maktubda yaqin orada Hindistonga Tohirxon va Obidxon boshchiligida elchilik yuborilishi xabar qilinadi.

«Mirotul olam»da 12-zulhijja 1079 (11-may, 1669) yili Hindistonga Buxorodan Rustambiy boshliq elchilik kelganligi va u Abdulazizxonning maktubi bilan birga turli hadyalar keltirganligi xabar qilinadi. Rustambiy Avrangzeb saroyida yaxshi qarshi olingan va birinchi qabulda hind shohi elchiga faxriy xalat, bezatilgan jig'a hamda xanjar, o'ttiz ming rupiya naqd pul, ikkinchi qabulda esa (7-sentyabr, 1669-yil) yana xalat, qimmatbaho chiroyli qilich, qalqon, bitta fil, elchiga 34 ming, uning hamrohlariga esa 16 ming rupiya hadya qilgan.

Fikrimizcha, Abdulazizxonning Avrangzeb nomiga bitilgan maktubi Rustambiy elchiligi tomonidan olib kelingandir.

Rustambiy elchiligiga javoban 1080-yilning zulhijja (1670-yil, may) oyida Hindistondan Yakkatozxon elchiligi yo'lga chiqadi. Elchilar Buxoro xoniga 100 ta podsholik (matnda — muhrlik, deyilgan) oti, 4 ming rupiya turadigan bir fil, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan jamdar quroli, qilich, jig'a va boshqa hadyalar keltiradilar.

«Olamgirnomada»da 1081 (1671) yili ham Buxorodan Muhammad Sharif nomli elchi Hindistonga kelganligi va uni hind shohi qabul qilib, 25 ming rupiya pul, faxriy xalat, tilla egar-jabdug'i bilan bir ot in'om etganligi haqida ma'lumot beriladi.

Balx hokimi Subhonqulixon ham Avrangzeb davlati bilan yaqin munosabatda bo'lgan.

Subhonqulixon akasi Abdulazizxondan ilgariroq Avrangzebni (taxtga o'tirgan yilining uchinchi yili) saltanat egasi bo'lishi bilan elchi Ibrohimbek orqali tabriklagan.

O'z navbatida hind imperatori ham Buxoroga elchi Mustafoxondan Subhonqulixon nomiga bitilgan do'stona maktub va bir lak rupiya hadya berib yuboradi.

Buxorodan Rustambiy elchiligi Hindistonga kelganda Subhonqulixon ham akasi Abdulazizxonga taqlid qilib, o'zining a'yonlaridan Xushbekni maktub va «turon nafis mollaridan iborat armug'on bilan fayzmakon ostonaga (ya'ni Avrangzeb saroyiga) tayin qilgan», hind shohi Balx elchisiga faxriy xalat, bezatilgan xanjar, jig'a va 11 ming rupiya in'om qilgan.⁷²

Fikrimizcha, Balx hokimi Subhonqulixon Hindiston bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda bo'lib, bu munosabatlardan Balxni Buxoroga tobe bo'lmagan, mustaqil hokimlik qilib ko'rsatish maqsadida foydalangan. O'z navbatida Avrangzeb davlati ham Balx hokimligi bilan yaqin qo'shnichilik munosabatida bo'lishdan manfaatdor edi. Afg'on qabilalarining mustaqillik uchun olib borgan

⁷² Рустамов У. А., К истории изучения экономических, политических и культурных связей между народами Индии и Средней Азии. Труды Института Востоковедения АН УзССР, вып. 4, Ташкент, 1956.

kurashlarini bostirishda imperiyaning g'arbiy chegaralari xavfsizligini ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega edi.

Abdulazizxon hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro - Hindiston munosabatlari keskinlashib ketadi. Bunga asosan hind qo'shinlarining Balxni ishg'ol qilishi sabab bo'ldi. Tarixiy dalillarning ko'rsatishicha, bu vaqtda Abdulazizxon davlati, hatto Boburiylar imperiyasiga qarshi Eron bilan ittifoq tuzishga ham harakat qilgan. Lekin Balx hind qo'shinlaridan ozod qilingach va ayniqsa, Balx hokimi Subhonqulixonning o'zboshimchalik bilan qilgan hatti-harakatlarining kuchayishi natijasida Buxoro - Hindiston munosabatlarida o'zgarish paydo bo'ladi. Abdulazizxonning Shohjahon nomiga yozgan maktubida aytilishicha, hind podshohi huzuriga Buxorodan bir qancha elchiliklar yuborilgan, ammo Subhonqulixon ularning ko'pchiligining Hindistonga borishiga monelik qilgan.

Abdulazizxon ham mamlakatlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini kuchaytirish niyatida Avrangzeb saroyiga elchilar yuboradi. Garchi Abdulazizxon Rustambiy elchiligi orqali yuborgan maktubida hind shohiga Eronga qarshi kurashishni taklif qilgan bo'lsa ham, lekin bu davrdagi Buxoro xonligining Boburiylar imperiyasi bilan yaxshi munosabatda bo'lishi Eronga nisbatan dushmanlik vajidan emas edi. Chunki Buxoro xonligi Eron bilan ham tinch-totuv yashamoqda edi.⁷³

Keksayib qolgan Abdulazizxon Subhonqulixonning tazyiqiga bardosh berolmay, 1680-yilning boshlarida taxtdan voz kechib, Makkaga ketishga majbur bo'ladi. Subhonqulixon Buxoro taxtini egallagach, Balxga o'g'li Iskandar Bahodirxonni hokim qilib tayinlaydi. Oradan uch yil o'tar-o'tmas shahzodaga zahar berib o'ldiriladi. Bu ishda Subhonqulixonning ikkinchi o'g'li Abulmansurxon ishtirok etgan edi. Bu voqeadan xabardor bo'lgan Subhonqulixon Balx hokimligini Ibodulla sultonga berishga qaror qiladi. Ammo hokimiyatni

⁷³ Пигулевская Н. В., Якубовский А. Ю., Петрушевский И. П., Строева Л. В., Белиницкий Л. М., История Ирана с Древнейших времен до конца XVIII в., изд. ЛГУ, 1958, стр. 260.

Abulmansurxon qo'lga oladi va ko'p o'tmay u ham o'ldiriladi. Balx Siddiq Muhammad sulton qo'lga o'tadi (1684).

Shu vaqtda Xorazm xoni Anusha Buxoro xonligiga hujum qiladi. Subhonqulixon Balxga odam yuborib, o'g'li Siddiq Muhammadni tezda yordamga yetib kelishga da'vat qiladi. Ammo Anushaning Samarqandni egallaganligini eshitgan Siddiq Muhammad yo'lga chiqqan vaqtida yana Balxga qaytib ketadi. Bu voqeadan qattiq achchig'langan Subhonqulixon Badaxshon hokimi Mahmudbiy Otaliqni yordamga chaqirib, xorazmliklarni Samarqanddan haydab chiqaradi.

So'ng Subhonqulixon Mahmudbiy Otaliq bilan birga Balx tomon yuradi, hiyla bilan Siddiq Muhammadni qo'lga tushirib, qiynab o'ldiradi. Subhonqulixon Balxda uch oy turadi va Balxni Muhammadjon Otaliq ixtiyoriga topshirib (4-aprel, 1685-yili), Buxoroga qaytadi.

«Tarixi Muqimxoniy» asarida 1096 (1685) yili Buxoroga Avrangzeb elchisi Zabardastxonning kelganligi haqida so'z boradi. Ammo hind manbalari va bizning ixtiyorimizdagi hujjatlar Zabardastxon elchiligiga qadar Subhonqulixon davlati bilan Boburiylar imperiyasi o'rtasida elchilik almashinib turilganligidan darak beradi. Masalan, 21-shavval 1092 (13-noyabr, 1681) yilda Buxoro elchisi Rahmonquli hind podshohiga ikkita ot, o'n juft qunduz po'stin va bir tuya sovg'a qilgan. Avrangzeb esa elchiga xalat va besh ming rupiya in'om etgan.

20-jumodil-avval 1093 (27-may, 1682) yilda Buxorodan kelgan elchi Muhammad Sharif hind shohining qabulida bo'lgan va faxriy xalat bilan sharaflangan.

Manbalarning ko'rsatishicha, Subhonqulixon davrida Buxorodan Hindistonga Mir Abdurahmonxo'ja Sadr boshliq elchilar ham kelgan. Elchi orqali yuborilgan maktubda katta bir dushmanning Samarqandga hujumi va ularning tor-mor qilinishi bayon qilingan. Maktubning mazmunidan xatning qay vaqtda yozilganligi va elchilikning Hindistonga qachon yuborilganligini aniqlash qiyin emas. Chunki 1684-yili Xorazm xoni Anusha Samarqandga hujum qilib, shaharni vaqtincha ishg'ol qilishga muvaffaq bo'lgan edi.

Anushaning ketma-ket hujumi va Siddiq Muhammadni otasining buyrug'iga bo'ysunmasligi Subhonqulixonni ancha cho'chigib qo'yadi. U Buxoro xonligida sodir bo'lgan mushkul vaziyatdan Avrangzeb ham foydalanishi mumkin deb o'ylab, bu xavfning oldini olish maqsadida Hindistonga tezlik bilan maktub jo'natadi: maktubda barcha tashvishli ishlarga xotima berilib, Buxoro xonligida osoyishtalik barpo qilinganligi ta'kidlab o'tiladi, ya'ni Buxoro xoni o'z davlatining zaif emasligini tushuntirmoqchi bo'ladi.

Bu maktubda Eron va Eronliklarga qarshi hech bir so'z aytilmaydi, demak, bu bilan Subhonqulixon o'z mavqeini mustahkamlash harakatida bo'lgan.

Avrangzebning farmoniga ko'ra, 1095-yil 25-rabbial avval oyida (12-mart 1683-yil) Saidxon Bahodirning nabirasi Vafodorxonga «Zabardastxon» nomi berilib, so'ng Balx va Buxoroga elchi qilib yuboriladi. Zabardastxon orqali Balx hokimiga ziynatlangan jamdar quroli, qilich, jig'a, qalqon, kamon, ot, fil, o'n ming rupiya pul va Subhonqulixon uchun bahosi o'n bir ming rupiyalik fil va nafis mollardan berib yuboriladi.

«Tarixi Muqimxoniy»da 1096 (1685) - yili Hindistondan Buxoroga Zabardastxon elchiligi kelgani va ular hadya qilgan sovg'a-salomlar ichida fillar ham borligi aytilib, so'ng Avrangzebning Buxoro xoni nomiga yozilgan maktubining to'liq nusxasi keltirilgan.⁷⁴

Maktubda aytilishicha, Avrangzeb Subhonqulixonni podsholik taxtiga o'tirishi bilan ancha ilgari tabriklash niyatida bo'lgan, ammo Muhammad Siddiqning qo'zg'olonlari va chegarada sodir bo'lgan notinchlik bu maqsadni amalga oshirishga monelik qilgan.

So'ng Avrangzeb Hindistondagi voqealarga to'xtab o'tadi. U Ajmir hokimi Ronaning juzya to'lashdan bosh tortgani va unga qarshi o'g'li Muhammad Akbarshoh boshliq katta qo'shin yuborgani, o'g'lining esa otasiga bevafoqlik qilib,

⁷⁴ М у х а м м е д Ю с у ф М у н ш и . Мукимханская история, перевод с тадж. проф. А.А.Семенов а , Ташкент, Изд-во АН УЗССР, 1950, стр. 144

isyon ko'targani va Boburiylar imperiyasi qurolli kuchlarining Singxa (Mevar hokimi)ga qarshi kurash olib borganliklari haqida hikoya qiladi.

Shuningdek, maktubda Qashg'arga yaqin joylarda yashovchi qalmoqlar ustidan to'la g'alaba qozonilgani hamda Dekandagi Janda viloyatining imperiyaga qo'shib olingani xabar qilinadi.

Voqealar bayonidan ma'lumki, Dekan yurishida birmuncha muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgach, Buxoroga Zabardastxon boshliq elchilik yuborilgan. Hind elchilari kelgandan so'ng Balx hokimi Muhammadjon Otaliq qo'zg'oloni haqida xabar keladi va Subhonqulixon bu voqeaning oldini olish uchun tezda Balx tomon o'tlanadi. Hind elchilariga ham o'z vatanlariga qaytishga ruxsat beriladi. Bu voqeadan foydalanib Xorazm xoni Anusha Buxoroning chekka o'lkalariga hujum qiladi. Subhonqulixon bu xabarni eshitishi bilanoq Balx hokimligini Jovimbiy Otaliqqa topshirib, o'zi darhol Buxoroga qaytadi va Anushaga zarba beradi.

Anushaning Buxoroga qilgan hujumining muvaffaqiyatsiz chiqishidan norozi bo'lgan Xorazm a'yonlari, uni ko'r qilib, taxtga o'g'li Ernak (Erengxon)ni o'tkazadilar.

Xorazmdagi ichki ziddiyatlardan voqif bo'lgan Subhonqulixon endi xorazmliklar Buxoroga bostirib kelishlari mumkin emas degan ishonch hosil qilib, Xashikbiy Otaliq boshchiligidagi asosiy kuchini Xurosonni zabt etish uchun safarbar qiladi va Buxoro qo'shinlari Xurosondagi kuchli qal'alardan bo'lmish Boloi Murg'obni ishg'ol qiladilar.

«Tarixi Muqimxoniy» muallifining yozishicha, Avrangzeb o'z elchisi Zabardastxon orqali Buxoro xoniga Eronga qarshi ittifoq tuzishni taklif qilib, hind qo'shinlarining Qandahor tomonidan jang qilishga tayyor ekanliklarini aytgan. Keyinchalik, Subhonqulixon go'yo har ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan bitimga asosan Xurosonga yurish qilgan.

Vengr sayyohi A. Vamberi ham shu haqda fikr yuritib, Avrangzebning Buxoro xonini Eronga qarshi kurashga undaganini ta'kidlab o'tadi. Vamberining ko'rsatishicha, afg'on qabilalari Avrangzeb davlatiga qarshi kurashda maxfiy,

suratda Eronliklar tomonidan qo'llab-quvvatlanganlar. O'zi bevosita Eronga qarshi jang qilishni istamagan Avrangzeb Buxoro xonligini Eronga qarshi qo'yish yo'li bilan Eronliklardan o'ch olish rejasini tuzgan.

Bu masala yuzasidan ikki xil fikr yuritish mumkin. Birinchidan, Avrangzeb, haqiqatda, Buxoro xonini Eronga qarshi hujumga da'vat etgan va o'zi ham bu ishda hamkorlik qilishini bildirgan. Afg'on qabilalarini bo'ysundirish yuzasidan uzoq vaqt (1667—1675 yillar) kurash olib borgan va Dekan masalasi bilan band bo'lgan Avrangzeb g'arbiy chegaralarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan Buxoro xoni bilan yaqinlashgan va o'zining Buxoroga nisbatan do'stligining isboti sifatida Eronga qarshi bir ittifoqda harakat qilishga ham rozi bo'lgan.

Ikkinchidan, Subhonqulixon va uning saroy ahllari Hindiston elchiligidan o'zlarining Eronga qarshi qaratilgan siyosatlarini amalga oshirish yo'lida foydalanish niyatida bo'lgan bo'lishlari ham mumkin.

1100 (1688—1689) - yili Hindistonga Buxoro elchisi Nazarbiy keladi va u Subhonqulixonning hind voliysiga yozgan maktubini keltiradi.⁷⁵

Buxoro xoni o'z maktubida Balxda ro'y bergan tartibsizliklar, Siddiq Muhammadning otasi (Subhonqulixon)ga qarshi chiqishi va shu munosabat bilan Subhonqulixonning Balxga yurishi, shu vaqtda Anushaning Buxoroga hujum qilishi va xorazmliklarga qarshi olib borilgan kurash, qalmoq qabilasining bo'ysundirilishi hamda Subhonqulixonga tobelik bildirib Qashg'ardan ham elchilar kelganligi birma-bir bayon qilib o'tiladi va shulardan keyin «...shu vaqtda u adolat samarasining munavvar ko'ngillariga yomon asarlik shialarga qarshi zo'r jihod va g'azot dag'dag'asi tushibdi. Biz ham birlik va hamjihatlik yuzasidan tamoman xayrlik bo'lmish bu ishga azm qilamiz.

Ammo, to hanuzgacha u shavkat panohga qator kofirlar tufayli xotirjamlik muyassar bo'lmagan ekan, biz mazkur niyat yuzasidan peshqadamlik qilib, guruh-guruh muzaffar asarlik lashkarlarimizni bebosh qizilboshlar ustiga yubordikki, muxlis vafodor elchingiz (Zabardastxon) bu voqealarning suratini ko'rdi (va)

undan so'ng ruxsat olib qaytib ketdi...» deb yoziladi. So'ngra, maktubda Boloi Murg'ob (hozirgi Kushkaning shimoli-sharqida), uning 20 ta qal'asi bilan birga zabt etilgani xabar qilinadi.

Demak, Nazarbiy elchiligi Boloi Murg'obning bosib olinishi bilanoq (1688-yil) Hindistonga jo'natilgan.

Maktub mazmunidan shu narsa anglashiladiki, garchi Buxoro xoni Eronga qarshi kurashda hind podshohining faolsizligini ta'kidlab o'tsa ham, lekin bu sohada aniq bir fikr aytmaydi, ya'ni Eronga qarshi kurashda Hindiston ham ishtirok qilishi lozimligi qayd qilinmaydi.

Subhonqulixon o'zining boshqa bir maktubida hind shohini Eronga qarshi urushga ochiqdan-ochiq da'vat qiladi. Ikkinchi maktubda islom yo'lida «kofir» Eronliklarga qarshi hujum qilib, 1100-ilon yilining rabial avval oyida (1688-1689) Boloi Murg'ob viloyati zabt etilgani, bu voqeadan Iroq va Xuroson aholisining tashvishlangani hikoya qilingandan so'ng, o'rtadagi do'stlik pesh qilinib, Avrangzebga qarata: « (Janoblari) ...taassub yengini astoydil shimarishda hamda... taqvoda ham sa'i-harakat qilishlari lozimdir» deb uqtiriladi. Maktub oxirida «ushbu voqealar xabarini yetkazish va qon-qarindoshlik loyihasi (janobning) muqaddas xotiralari xursandchiligiga sabab bo'lur, deb ixlosmand va e'tiqodatvor bandamiz, mazkur g'azovatda ishtirok qilgan (va) bo'lgan voqealar tafsilotini mufassal biladigan Shohbekbiy elchilik rasmi bilan u viloyatga yuborildi», deb elchining qaytib kelishiga tez ruxsat berilishi iltimos qilinadi.

Fikrimizcha, Shohbekbiy elchiligi Nazarbiy boshliq elchilikdan ancha keyin, taxminan 1700-1701 yillarda yuborilgan bo'lishi kerak. Buxoroning asosiy kuchlari Xuroson tomon safarbar qilinganda Erengxon to'satdan Buxoroga bostirib kiradi. Subhonqulixon yana Badaxshondan Mahmudbiyni yordamga chaqirishga majbur bo'ladi. Demak, Buxoroning ichki ishlari Eron masalasini to'xtatib turishga majbur etgan va bu Nazarbiy elchiligi orqali Hindistonga berib yuborilgan maktubda o'z aksini topgan.

⁷⁵ Хайруллаев М. М. Ўзбек дипломатияси тарихи. Т. "Шарк", Б. 373

Ernakxonning Buxoroga qilgan muvaffaqiyatsiz yurishi uning taqdirini ham hal qilgan edi. Ko'p o'tmay, Ernakxon zaharlab o'ldiriladi va Xorazm Buxoroga bo'ysundiriladi. Subhonqulixon Xorazmga o'zining mulozimlaridan Niyoz eshik og'osini (Shohniyoz) xon qilib tayinlaydi. Xorazm tarixchisi Munisning yozishicha, Shohniyoz xonlik qilgan davrda (1688—1702) Xorazm bilan Buxoro o'rtasida to'qnashuvlar bo'lmagan.

Xorazm masalasini go'yo hal qilgan Subhonqulixon endi Eronga qarashli yerlarni bosib olishga, u yerlardagi aholini talon-toroj qilishga intilgan va bu niyatini amalga oshirishda Avrangzebni ham ishtirok qilishga da'vat etgan. Ammo bu vaqtga kelib Avrangzebning ulkan imperiyasi inqirozga yuz tutgan edi. Bombaydan to Madorasgacha — butun Hindiston yarimoroli bo'ylab Boburiylar imperiyasiga qarshi xalq qo'zg'olonlari avj olmoqda edi. Ayniqsa, ozodlik kurashi maratxlar orasida keng tarqaladi va kuchayadi. Shuning uchun, ichki ishlar bilan band bo'lgan Avrangzeb Buxoroga elchi yubora olmagan.⁷⁶

Demak, Subhonqulixon davrida Buxoro xonligi bilan Boburiylar imperiyasi o'rtasida go'yo «diniy birlik» asosida o'zaro yaqinlik va hamjihatlik paydo bo'lgan. Lekin shunga qaramay, Subhonqulixon va Avrangzebning o'zaro munosabatlarida humdorlarga xos bir-birini mensimaslik, o'zini ulug' hoqon qilib ko'rsatish an'analari mavjud edi. Bu Zabardastxon elchiligi keltirgan maktub mazmuni bilan Subhonqulixonning Avrangzebga yuborgan javob maktubida yaqqol ko'zga tashlanadi. Avrangzeb maktubida Qashg'arning Boburiylar imperiyasiga tobeligi aytilgan bo'lsa, Subhonqulixon nomasida esa Qashg'ar Buxoroga tobe deb uqtiriladi. Bu to'g'rida yana shunday dalil keltirish mumkin: Zabardastxon elchiligi bilan birgalikda Buxoroga Xo'ja Abulmaoniy Balxiy nomli shaxs keladi va u o'zini voqeanavis vazifasida ekanligi va hind podshohi u orqali Sohibqiron (Amir Temur) mozori atrofida joylashgan xo'jaliklar (shayxlar) uchun o'n ming rupiya berib yuborganini Buxoro xoniga aytib, Samarqandga

⁷⁶ Ахмедов Бобур. Историкогеографическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Письменные памятники), Т., 1985. Б.68

borish uchun ruxsat berishni iltimos qiladi. Bu Subhonqulixonga ta'sir qilgan bo'lsa kerak, u hind podshohining bu harakatini Buxoroning ichki ishiga aralashish deb hisoblab norozilik bildirgan va Xo'ja Abulmaoniyning Samarqandga borishi uchun uzoq vaqt ruxsat bermaydi. Nihoyat, hind elchisining qat'iy talabi natijasida Xo'ja Abulmaoniy ruxsat olib, Samarqandga boradi va o'n ming rupiyani shahar qoziyul-quzzotiga bermoqchi bo'lganda, u pulni olmaydi. O'ylaymizki, bu ishda Samarqand qozisi Buxoro xonining amriga muvofiq ish tutgan. Shundan so'ng, Xo'ja Abulmaoniy hind rupiyalarini Madrasa toliblari o'rtasida tarqatib, so'ng Buxoroga qaytgan.

Subhonqulixon vafotidan so'ng Ubaydullaxon (1702— 1711) va Abulfayzxon (1711 — 1747) davrida Buxoro xonligida iqtisodiy va siyosiy tushkunlik yanada kuchayadi. Ayni bir vaqtda xalq qo'zg'olonlarining tobora o'sishi va hind rojaliklari, ayniqsa, maratxlarning mustaqillik uchun olib borgan tinimsiz kurashlari natijasida Avrangzeb davlati ham zaiflashib qolgan edi. Avrangzebning vorislari — Bahodirshoh (1707—1712), Farruh Siyar (1713—1719) va Muhammadshohlar (1719—1748) tadbirsiz bo'lib, ichidan chirib borayotgan Boburiylar imperiyasini saqlab qolishda ojizlik qilar edilar.

Shunga qaramay, bu vaqtlarda ham har ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar davom etdi. Masalan, qo'lyozmalar fondida hind shohi nomiga yozilgan maktublarning biri Abulfayzxon nomidan yozilganligi tekshirishlar natijasida aniqlandi.

Bu noma «Hazrat xalofatpanohning Hindiston hokimiyatiga «tabrik yuzasidan amirlik panohi Sultonbiy Qushbegi elchiligi orqali yozib yuborgan maktubi» deb ataladi. Matnda elchilik boshlig'i Sultonbiy dodxoh Rustambiy otaliq o'g'li deb ko'rsatilgan.

Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxon» asarida Rustam o'g'li Sultonbiy 1716 yil oxirlarida qushbegi unvoniga ega bo'lgani va kenagas qabila boshliqlari tomonidan Abulfayzxonga qarshi uyushtirilgan kurashda ishtirok qilib, uning 1718-yil 25 mayda o'ldirilgani bayon qilinadi.

Elchilikning qachon va qaysi xon tomonidan yuborilganini maktub mazmunidan ham aniqlash mumkin. Maktubda Buxoro xonining saltanat egasi bo'lgan vaqtida qandaydir o'zboshimchalarning qilgan ixtiloflari va hozirda ularning bo'ysundirilgani haqida bayon qilinadi.

Ubaydullaxon o'ldirilib, Abulfayzxon taxtga o'tirgan birinchi oylarda davlatni asosan Jovshan qalmoq boshqargan va u ko'p davlat a'yonlari va hatto xonning ham huquqini cheklashga uringan. Shundan so'ng Abulfayzxonning maxfiy buyrug'i bilan Ma'sumbiy Otaliq va uning kishilari Jovshanni o'ldirganlar. Demak, maktubda bayon qilingan o'zboshimchalar Jovshan va uning tarafdorlaridir.

Yana shu narsa diqqatga sazovorki, maktubda yozilishicha, Hindistondan elchi kelib, u hind podshohining «davlat quyoshining tulu'i va adolat nurlari paydo bo'lgani haqida» xabar bergan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Sultonbiy elchiligi Hindistonga Abulfayzxon tomonidan 1714—1715 yillar mobaynida, ya'ni Sultonbiy “qushbegi” unvoniga ega bo'lishdan avval yuborilgan. Hindistondan kelgan elchi esa Boburiylar imperiyasining shohi Farruh Siyarning (1713—1719) elchisi bo'lgan. Shunga ko'ra, so'nggi vaqtda maktubni ko'chirgan kotiblar Sultonbiyga qushbegi unvoni berilganidan xabardor ekanliklari tufayli maktub sarlavhasiga «Sultonbiy qushbegi elchiligi» deb yozganlar.

Sultonbiy elchiligi qadimiy do'stona munosabatlarga amal qilgan holda Farruh Siyarni saltanat egasi bo'lishi bilan tabriklashdan tashqari, yana boshqa vazifalarni ham bajarishi lozim bo'lgan. Chunki maktub oxirida shunday deb yoziladi: «Qachonki, (huzurlariga) tashrif buyurishdan mamnun bo'lib, bandalik lozimatini o'rniga qo'ysa, unga topshirilgan zarur ishlardan nimaiki eshitilsa quloq berib (unga) iqbol darajasini munosib ko'rsalar».⁷⁷ Bu «zarur ishlar» nimadan iborat ekanligi maktubda aniq aytilmagan. O'ylaymizki, maktubdagi zarur ishlar savdo-sotiqqa oid masala bo'lishi kerak; bu haqda mehtar Ubaydulla elchiligi orqali yuborilgan Abulfayzxonning boshqa bir maktubida ancha aniq ma'lumotlar bor.

Hokimiyat tepasida qalmoq Jovshan turganida Po'lat mehtarning o'g'li Ubaydulla bosh mehtarlik vazifasiga tayin etilgan edi. Jovshan o'ldirilgach, bosh mehtarlik Ibodullaga olib berilgan, ehtimol Ubaydulla oddiy mehtarlik vazifasida qoldirilgan.

Mehtar Ubaydulla orqali yuborilgan maktubda Buxoro xoni qadim vaqtlardan beri har ikki mamlakat, o'rtasida ota-bobolar davridan beri davom etib kelayotgan do'stona munosabatlarni yanada kuchaytirish kerakligini ta'kidlaydi. So'ng maktub oxirida «Janoblari tomonidan maxsus mehtar Poyanda Boqi va Xudoybergan taxvildorlar orqali (berib yuboriladigan) mollar elchi(miz)ning so'ziga binoan, u orqali ravona qilsalar, mazkur banda (ya'ni elchi) bu mollarni kam-ko'stsiz keltirib, gardunmador sarkor (ya'ni Buxoro xoni) huzuriga qaytib keladi», deb ilova qilingan. Demak, mehtar Ubaydulla elchiligi Hindistonga Sultonbiy elchiligi Buxoroga qaytib kelgandan so'ng ko'p vaqt o'tmay yuborilgan va bu elchilikning asosiy vazifasi (Sultonbiy elchiligi yoki Sultonbiy elchiligiga javoban Hindistondan kelgan elchilik orqali aytib yuborilgan) hind podshohining va'da qilgan mollarini Buxoroga tezroq yetkazib kelishdan iborat bo'lgan.

Sultonbiy va mehtar Ubaydulla elchiliklari haqida hujjatlar XVIII asrning birinchi yarmida ham (Nodirshoh istilosiga qadar) Buxoro xonligi bilan Boburiylar imperiyasi o'rtasida elchilik munosabatlari davom etgan va bu munosabatlar, asosan, iqtisodiy (savdo) manfaatlarni ko'zda tutganligidan darak beradi. Faqat bu davrlardagi Buxoro va Hindiston munosabatlariga oid ko'pgina hujjatlarning hali bizga noma'lum bo'lib qolishi, bu masalaning to'la va mufassal yoritilmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

1736-yili Eron taxtini egallagan Nodirshoh (1736-1747) mamlakatdagi harbiy aristokratiya va turli jangovar qabilalar kuchiga tayanib, istilochilik harakatlarini boshlab yuboradi. Hozirgi Afg'oniston hududlarini bosib olgach, Hindistonning Panjob va boshqa shimoliy viloyatlariga hujum qiladi. Natijada 1739-yili Boburiylar imperiyasining markazi Dehli shahrini ishg'ol qilishga muvassar

⁷⁷ Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966. Б.79

bo'ladi. So'ng, Nodirshoh katta qo'shin bilan Balxga kelib, u yerdan Buxoroga tomon yuradi (1740). Buxoro xoni Abulfayzxon o'z a'yonlari bilan Nodirshoh istiqboliga chiqib, Eronga bo'ysunadi. Shu yili Eron qo'shinlari Xorazmni ham bosib oladilar.

Nodirshoh davlatiga bo'ysungan mamlakat va davlatlar o'zaro mustahkam iqtisodiy va madaniy aloqaga ega emas edilar. Shunga ko'ra, qurol kuchi bilan vujudga keltirilgan bu katta imperiya Nodirshoh vafotidan so'ng tezda parchalanib ketadi. Buxoro va Xorazm xonliklari yana mustaqil bo'lib oladilar. Afg'on qabilalari ham qulay fursatdan foydalanib, abdali (durroniylar) qabilasidan bo'lgan Ahmad nomli shaxsni shoh deb e'lon qilib, Afg'oniston davlatiga asos soladilar (1747). Shu vaqtdan boshlab Buxoro xonligi bilan Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi qo'shnichilik munosabatlari o'rnini Buxoro — Afg'oniston munosabatlari egallaydi.

Nodirshoh istilosidan so'ng zaiflashib qolgan Boburiylar imperiyasi maratxlarning kuchli zarbasiga uchraydi, maratxlar Dehlini ham ishg'ol qilishga muvaffaq bo'ladilar. Ammo oradan ko'p o'tmay, Afg'oniston shohi Ahmad (1747—1773) Hindistonga bostirib keladi, afg'onlar bilan maratxlar o'rtasida 1761-yil 14-yanvarda Panipat maydonida qattiq jang bo'ladi. Afg'onlar o'sib kelayotgan maratxlar kuchiga qaqshatqich zarba beradilar, shu bilan birga o'zlari ham uzoq vaqt Hindistonda qololmaydilar.

I.Nizomiddinov Panipat maydonidagi jangni xarakterlab, bunday deb yozadi: «Buyuk Boburiyning cheksiz hokimiyatini uning noiblari ag'dardi, noiblarning hukmronligini maxratlar (maratxlar) yemirib tashladi, maxratlarning hukmronligini afg'onlar yemirdi va bular hammasi bir-biri bilan urushib turgan bir vaqtda, britaniyaliklar birdanigq hujum qilib kelib, bularning hammasini bo'ysundirib oldi. Haqiqatda bu davrda inglizlar Hindistonni zabt etishda o'z raqiblari bo'lgan Gollandiya va Fransiyaning siqib chiqargan va imperiyaning kuchsizlanganidan foydalanib, Hindistonni o'z mustamlakalariga aylantirishga astoydil kirishgan edilar.

1857-1859 – yillarda ko'tarilgan sipohilar qo'zg'oloni Buyuk Britaniyaga Hindistonni to'la o'z mulki deb e'lon qilishi uchun bahona bo'lib xizmt qildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay O'rta Osiyo xonliklari ham Rossiya tomonidan yarim mustamlakaga aylantirildi. Shu tariqa Hindiston va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro aloqalar uzilib qoldi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, buyuk davlatchiligimiz o'z tarixi davomida juda ko'plab mamlakatlar bilan do'stona va diplomatik aloqalarda bo'lib kelgan. Bugungi kunda har ikki mustaqil mamlakat – O'zbekiston va Hindiston Respubliklari o'rtasidagi iliq munosabatlar kuni kecha paydo bo'lgan emas. Bu aloqalar bir necha asrlik tarixga ega. Madaniyati va tarixi uyg'un bo'lgan har ikki davlatning ushbu dissertatsiyamizda qisman ochib berilgan o'zaro aloqalar ham o'zbek xalqi, ham hind xalqi uchun faxr-u iftixor ramzi bo'lishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston o'rtasidagi do'stona, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, O'zbekiston mustaqillikka erishgan so'nggi yillarda esa bu munosabatlarning rivojlanishida katta imkoniyatlar yaratildi. Natijada ana shu masalalar va ularning tarixiga oid ko'p ilmiy asarlar, maqolalar va arxiv hujjatlari bosilib chiqdi-ki, ular har ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni ravshanlashtirishda muhim ahamiyatga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida O'rta Osiyoda xonliklar davri davlatchilik tarixini o'rganish, bu davrlar haqida tegishli ilmiy xulosalarga kelish vazifasini tarixchi va tarixshunos, manbashunos va sharqshunos olimlar zimmasidagi muhim vazifa qilib qo'ydilar. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qadar bo'lgan davrda O'rta Osiyoda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari yoxud uch mustaqil davlat bo'lib, ular mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishgan. Xonliklarning tashqi iqtisodiy (savdo-sotiq), diplomatik va madaniy aloqalari Sharq va G'arb mamlakatlari bilan qizg'in kechgan. Aynan Rossiya bilan XVI asr o'rtalaridan boshlab doimiy va muntazam diplomatik aloqalar o'rnatilgan. U paytlardagi o'zaro munosabatlar tenglik asosida, har bir subyekt mustaqilligi mezoniga amal qilingan holda yo'lga qo'yilgan. Sharq davlatlari bilan O'rta Osiyo aloqalari esa eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu munosabatlar tizimida Hindiston muhim o'rin tutadi. Kushon imperiyasi (mil.avv I

– mil. IV asrlar) davrida O'rta Osiyo va Hindiston bitta mamlakat tarkibida bo'lgan. Tarixdan bu kabi dalillarni ko'plab keltirish mumkin.

Ayniqsa, XVI-XVIII asrlarda Hindiston va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi ko'pyoqlama munosabatlar tarixi masalalari alohida bir tadqiqot obyekti bo'la oladi.

Ushbu tadqiqotning xulosasida quyidagi holatlarni ta'kidlab o'tishni lozim topdik:

Tadqiqot natijasi sifatida o'rganilgan asosiy yozma manbalarda siyosiy va iqtisodiy manfaatlar ustunlik qilganligi aniqlashtirildi. Hukmdorlar o'rtasidagi, jumladan Abdullaxon II va Akbarshoh, Jahongirshoh va Imomqulixon, Shoh Jahon va Abdulazizxon kabilar olib brogan o'zaro yozishmalardagi faktlar yuqoridagi fikrlarga dalildir. O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Moziyga nazar tashlar ekanmiz, har qanday mamlakatning biror bir davlat bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishda avvalo savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlardan manfaatdor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ana shu jumladan Buxoro va Hindiston xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ham ko'p asrlik tarixni o'z ichiga oladi. Bu aloqalar bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li paydo bo'lgan davrlardayoq ikki o'rtada savdo aloqalari mavjud edi.

Tadqiqotda Hindiston va O'rta Osiyo o'rtasidagi o'zaro aloqalarning qadimiy tarixidan boshlab, o'rganilayotgan davrdagi ularning ijtimoiy-siyosiy ahvoli to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlar keltirildi. Mazkur ma'lumotlar orqali o'sha davr tarixiy jarayonlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun mamlakat va xalq hayoti aniq daliliy raqamlarda o'rganildi.

XVI asrning ikkinchi yarmi Buxoroda siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning keskin kechganligi, uzoq va nihoyat 1556-yilda markazlashgan davlat tuzilishi bilan bog'liq muhim voqea bilan xarakterlanadi. Markazlashgan davlat esa, o'z-o'zidan siyosiy hamkor izlaydi va diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yadi. Bu borada esa

etnik, milliy va diniy jihatdan bir-biriga yaqin ikki mamlakat o'rtasida aloqalarni o'rnatish ancha qulay edi.

Tadqiqotda dissertatsiya mavzusiga va shunga yaqin mavzularda e'lon qilingan turli adabiyotlar, jumladan rus va ingliz tillaridagi adabiyotlardan ham foydalanildi. Sovet davri adabiyotlari ham tanqidiy o'rganilib, ulardagi fikrlarga izohlar berib o'tildi.

Tadqiqotda gazeta, jurnal va ilmiy-nazariy maqolalar to'plamlarida e'lon qilingan ilmiy va ilmiy-publitsistik maqolalar tahlil qilindi va o'rganildi. Istiqbolda ushbu mavzu yuzasidan yana ko'plab maqolalar e'lon qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevoridir, T.1997
- 1.2. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot, ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11 - jild. T. "O'zbekiston", 2003.
- 1.3. Karimov I. A. Istiqlol va mafkura. T., 1994.
- 1.4. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T. 7. – T. "Sharq", 1999.
- 1.5. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T. "O'zbekiston", 1998.
- 1.6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008.

2. Asosiy ilmiy adabiyotlar va manbalar

- 2.1. Абулфазл Алломий, Тарихи Акбаршоҳий, Т., "Шарқ", 1997.
- 2.2. Азимджанова С, Государство Бабура в Кабуле и в Индии, М., 1977.
- 2.3. Alimova R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi./ TDSHI qo'llanma T. 2009.
- 2.4. Аҳмедов Бобур. Историкогеографическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Письменные памятники), Т., 1985
- 2.5. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Ўқитувчи. Т. 1994.
- 2.6. Байкова Н. Б., Роль Средней Азии в русско - индийских торговых связях (первая половина XVI — вторая половина XVIII в.), Ташкент, Изд-во «Наука» УзССР, 1964.
- 2.7. Banarsi Prasad Saksena. History of Shahjahan of Dehli. Allahabad, 1958.
- 2.8. Бартольд В. В., История изучения Востока в Европе и России, 2 изд., М., 1926.
- 2.9. Бартолд В.В. Узбекские ханства. Соч. Т. II. С. 268-292
- 2.10. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома, Т., 1959.

- 2.11. De N o e r F. A. L'Empereur Akbar, Leide, 1883.
- 2.12. Ёрматов Ш. Ўрта Осиё, Россия ва Ҳиндистон халқлари ўртасидаги дўстона алоқалар тарихи. Ўзб ССР МДав Т., 1959.
- 2.13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990
- 2.14. Индийские миниатюры XV - XVIII вв., М., 1971.
- 2.15. История Узбекистана (XVI - Первая половина XIX века), т.3, Т., 1993.
- 2.16. Материалы по истории Средней и Центральной Азии XVI - XIX вв., Т., 1988.
- 2.17. Mirza Muhammad Haydar. Tarixiy Rashidiy. / V.Rahmonov, Y.Egamova tarjiması. "Sharq:. Т. 2010.
- 2.18. Мухаммед Юсуф Мунши. Мукимханская история, перевод с тадж. проф. А.А.Семенова, Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1950.
- 2.19. Неру Дж. Открытие Индии, М., 1955.
- 2.20. Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966
- 2.21. Низомиддинов Н., Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари, Тошкент, Уздавнашр, 1961
- 2.22. Петрущевский И.П., Комментарий географический и исторический, к «Хождению за три моря Афанасия Никитина», изд. 2-е, М., Изд-во АН СССР, 1958
- 2.23. Пигулевская Н. В., Якубовский А. Ю., Петрушевский И. П., Строева Л. В., Белиницкий Л. М., История Ирана с Древнейших времен до конца XVIII века, изд. ЛГУ, 1958
- 2.24. Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdullakhan, «Islamic culture», vol. XXI, 1937
- 2.25. Расул-Заде П., Из истории индо - среднеазиатских политических взаимоотношений во второй половине XIX в., в сб. «Взаимоотношения народов Средней Азии с сопредельными странами Востока», Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1963

- 2.26. Рустамов У. А., К истории изучения экономических, политических и культурных связей между народами Индии и Средней Азии. Труды Института Востоковедения АН УзССР, вып. 4, Ташкент, 1956.
- 2.27. Синха Н. К., Банерджи А. Г., История Индии, М., 1954.
- 2.28. Тюляев С. И., Искусство в Индии, М., 1968.
- 2.29. Уринбоев А., Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси, Тошкент, УзССР ФА нашриёти, 1960
- 2.30. Фехнер М. Ф., Торговля Русского государства со странами Востока в XVI в., М., Госкультпросветиздат, 1956
- 2.31. Хайруллаев М. М. Ўзбек дипломатияси тарихи. Т. "Шарқ", 1993
- 2.32. Хайриддин Султон. Бобурийнома. -Т., 1996.
- 2.33. Шарма Р. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). -Т., 1999.
- 2.34. Эрскин У. Ҳиндистонда Бобур давлати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). - Т., 1997
- 2.35. Юлдашев М. Ю., Новые данные о хозяйстве джуйберских шейхов. «Общественные науки в Узбекистане», 1963
- 2.36. Я. Ғ. Фуломов, Р. Н. Набиев, М. Ғ. Ваҳобов, Ўзбекистон ССР тарихи (бир томлик), Тошкент, 1958
- 2.37. О'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Т., 2001
- 2.38. О'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti, I qism, Т., 2000
- 2.39. О'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 2.40. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб, Т., 1993
- 2.41. Ҳофиз Таниш Бухорий, Абдулланом, Т., Шарқ, 2000
- 2.42. Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи нашр/I жилд. Форсчадан С. Мирзаев таржимаси, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.А. Аҳмедов. - Т., "Фан", 1966

2.43. Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи нашр/I жилд. Форсчадан С. Мирзаев таржимаси, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.А. Аҳмедов. - Т., "Фан", 1969

3. Maqola, tezis va avtoreferatlar

3.1. Азимжонова С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мақолалар тўплами, Т., 1995

3.2. Мараджабова Ф. Е. Бешняя политика Бухарского хана Абдуллахана II.

3.3. Марказий Осиё тарихи манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. II илмий тўплам Т. 2010. Б.493

3.4. Тўраев. Ҳ. Аштархоний Имомқулихон ва Жўйборийлар.

3.5. Halimov T. Abdullaxon II va Akbarshoh o'rtasidagi siyosiy elchilik aloqalari. / Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi. Maqolalar to'plami. Buxoro, 2014. B.357-360

3.6. Halimov T. Ashtarxoniylar va boburiylarning siyosiy munosabatlari tarixidan. / Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi. Maqolalar to'plami. Buxoro, 2014. B.360-362

3.7. Halimov T. Buxoro xonligi va boburiylar saltanati o'rtasidagi siyosiy aloqalar. / Tafakkur va talqin. 3-son, Buxoro, 2014. B.4-6

3.8. Halimov T. O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar (XV-XVII asrlar). / Tafakkur va talqin. 2-son, Buxoro, 2013. B.23-26

4. Internet saytlari

4.1. www.edu.uz

4.2. www.google.co.uz

4.3. www.press.uz

4.4. www.ziyonet.uz

ILOVA




**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va
Hindiston Bosh vaziri Narasimha Rao (Toshkent, 1993-yil)**



Akbarshoh (1556-1605)



Abdullaxon II (1557-1598)



Buyuk ipak yo'lining Osiyo qismi. O'rta Osiyo xonliklaridan Hindistongacha bo'lgan karvon yo'lini ko'rish mumkin.